

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**S.Y. ASHUROVA, M.B. KUBAYEVA**

**TABIAT BILAN TANISHTIRISH  
NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYALARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

(60110200 — “Maktabgacha ta'lism” bakalavriat ta'lism yo‘nalishi  
talabalari uchun)



**“BOOKMAN PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 373.026:502(075.8)**

**KBK: 74.261ya73**

**A 94**

**ISBN 978-9943-8541-4-7**

Ashurova, S.Y., Kubayeva, M.B.

Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S.Y. Ashurova, M.B. Kubayeva. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 172 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta’limning 60110200– “Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi” bakalavriat o‘quv rejasiga kiritilgan “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari” o‘quv fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, Tabiat bilan tanishtirishning maqsad va vazifalari, metod vositalari, ekologik ta’limning dolzarbliji, maktabgcha ta’lim tashkilotida “Ilm fan va tabiat” markazining jihozlanishi yoritilgan. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda pedagogga qo‘yiladigan talablar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari “Ilm fan va tabiat” markazida bolalar bilan o‘tkaziladigan oddiy tajribalar kartategiyasi jamlangan bo‘lib, 60110200-Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrlar, mustaqil ishlanuvchi-tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

**Mualliflar:** S.Yu. Ashurova - Maktabgacha ta’lim vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinnbosari, p.f.n., professor  
M.B. Kubayeva - Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:** Navoiy davlat pedagogika institute  
Maktabgacha ta’lim kafedrasи dotsenti v.b.  
PhD. S.B.Sanayeva  
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti World Skills, dual ta’lim va o‘quv amaliyotlarni metodik ta’minlash bo’limi boshlig‘i vazifasini vaqtincha bajaruvchi.  
PhD. K.T.Umatalieva

© Ashurova S.Y., Kubayeva M.B.  
© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

## KIRISH

“Maktabgacha yoshdagি bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli, maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega”  
Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatni barqaror rivojlanishga o‘tishining muhim sharti ekologik tarbiyadir. Shuning uchun, bolalarni tabiatning qonuniyatlari bilan tanishtirish, ularning to‘g‘ri o‘sib-ulg‘ayishiga, tabiatda bo‘ladigan voqeа-hodisalarни ilmiy asosda tushunishga, bolaning shakllanishida, tabiatga, Ona-Vataniga, tabiat boyliklariga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirishdagi yangi metodikalarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘ilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, so‘nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga mamlakatimizda alohida e’tibor berilmoqda.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son Qarori tasdiqlandi. Qaroring 3-bobida Maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish bo‘yicha bir nechta vazifalar keltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ekologik tarbiysi, birinchi navbatda, bolaning atrof-muhitga yer, suv, o‘simlik, hayvonot olamiga ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Bolalarni tabiatni sevishga va himoya qilishga o‘rgatish, tabiiy boyliklardan ehtiyojkorlik bilan foydalanish ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Biroq, ekologik tarbiya amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili, bu boradagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sinqilik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Bularni bartaraf etish uchun ekologik madaniyat va mas’uliyatni rivojlantirish lozim va ekologik tarbiyani maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlash kerak, chunki, bu davrda olingan bilim kelajakda kuchli ishonchga aylanishi mumkin.

O‘quv qo‘llanmaning tarkibiy tuzilmasi 165sahifadan iborat bo‘lib, unda Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari. Tabiat, inson va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish zaruriyati. Sharq va G‘arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o‘rnı haqidagi qarashlari. Tabiat bilan tanishtirishda aqliy, axloqiy, estetik,

jismoniy, ekologik tarbiyaning ahamiyati. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiya tushunchasi, uning mazmun mohiyati. Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Tabiat bilan tanishtirishda ko‘rgazmali, og‘zaki, kuzatish, amaliy metodlar foydalanishning mohiyati. Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish turlari. Ekologik tarbiya berishda vizual-didaktik o‘yinlardan foydalanish. Oddiy tajribalar va ularning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati. “Ilm-fan va tabiat” markazida oddiy tajribalar o‘tkazish texnologiyalari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo‘yiladigan talablar. Turli yosh guruhlarida bolalarmi o‘simpliklar, hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o‘rgatish texnologiyasi. Yil fasllariga umumiy tavsifnoma., izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

## **1-MODUL: TABIAT BILAN TANISHTIRISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYALARI FANINING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHА**



### **Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari**



#### **Reja:**

Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari.

2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning zaruriyati.
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish prinsiplari.

**Tayanch tushunchalar:** *tabiat, maqsad va vazifalar, bola, ta'lim va tarbiya, texnologiyalar, o'lkashunoslik, ilmiylik prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, o'lkashunoslik prinsipi, ensiklopedik prinsipi, ensiklopedik, ko'rgazmalilik, prinsip, ilmiylik, kompetensiya,*

### **1.Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari.**

Hozirgi davrda jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti jadal ildamlamoqda. Bu o‘z o‘rnida atrof-muhit va inson salomatligi haqidagi bilimlarni yosh avlodga kengroq tushuntirishni hamda anglatishni taqozo etmoqda. Ushbu muammo, albatta, ma’lum darajada ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z yechimini topadi, chunki, bularning barchasi umumiylar tarzda inson va tabiat munosabatida namoyon bo‘lib, shaxsning ekologik bilimlarini takomillashtirish kabi yirik masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fani muhim ahamiyat kasb etadi.

**Fanning maqsadi:** Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ilmiy, nazariy, metodik asoslari, tabiat bilan tanishtirishda turli ish shakllari va metodlardan foydalanish haqidagi tasavvurlarini hosil qilish, maktabgacha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish,

Vatanga mehrli bo‘lish va ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga o‘rgatish.

**Fanning vazifasi:** Talabalarga mактабгача yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni, maqsadi va vazifalari, metodlari; tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etish hamda turli metodlarni qo‘llash va mashg‘ulotlarni loyihalashtirish texnologiyalari haqida bilim berish, tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat.

### **Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- bolalarni tabiat bilan tanishtirishning nazariy asoslari va tabiat haqidagi tushunchalarini shakillantiradi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish vazifalari, metod hamda vositalari haqidagi bilimlarini boyitadi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat bilan tanishtirish ish shakllari va o‘ziga xosligi;
- tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish haqida bilimga ega bo‘ladi;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va tashkil qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oddiy tajribalarni o‘tkazish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil qilish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari yer maydonchalarida bolalar mehnatini tashkil qilish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish va tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladi.

Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fani ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir.

Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlar, ehtiyojlari, xarakter xislatlari, iste’dodlari hisobga olinadi. Bola a’zolarning tuzilishi - oliy nerv sistemasi, ichki a’zolar, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo‘ladigan o‘zgarishilar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu fan bolalar fiziologiyasi fani bilan ham bevosita bog‘langan. Biologiya fani tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.

Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fani falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog‘liq holda bir-birini to‘ldirib, mustahkamlaydi.

### **Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning zaruriyati.**

Tabiatga muhabbat - juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg‘udir. U yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o‘z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib brogan M. Umarovaning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o‘zi yashab turgan mahalliy o‘lka va O‘zbekistan tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko‘ngil qo‘yish ishtiyoqi o‘sib boradi. Bolalikda tug‘ilgan bu tuyg‘u mifik yillarda rivojlanib, boyib boradi.

So‘ngi yillarda ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta’limtarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son** qaroriga asosan **O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi qabul qilinib**, bunda ekologik ta’limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta’limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sinqilik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan.

Xususan:

- barcha turdagilari ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni **4-moddasida** nazarda tutilgan ekologiya o‘quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;

- amaldagi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;

- ekologik ta’lim yo‘nalishida ilg‘or milliy va xorijiy tajribani o‘rganish, ular asosida ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;

-ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlariva umumiyoq o'rta ta'lim maktablari ta'lim dasturlarining mavzulari bugungi kun talablariga javob bermaydi, jumladan, ularda ta'lim oluvchilarda ekologik ongni shakllantiruvchi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid mavzular yetarli emas;

-ta'lim muassasalarida ekologik targ'ibot tizimi ham qoniqarsiz ahvolda, bu borada ekologik targ'ibotni amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va ushbu mexanizmlarni munosib rag'batlantirish tadbirlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti;

-ekologik ta'limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilmagan;

-ta'lim hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi organlari o'rtasida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi amaliy hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, xususan, o'tgan yillar davomida ekologik ta'lim tizimini isloq qilish yuzasidan faqat takliflar bildirilgan xolos;

-ekologik ta'lim sohasida o'qituvchilarining faoliyatini metodik jihatdan ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv qo'llanmalari, o'quvchi va talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emas;

-ta'lim dasturlari to'liq qayta ko'rib chiqishga muhtoj, jumladan, ular respublikada so'nggi vaqtarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib tubdan takomillashtirilishi lozim.<sup>1</sup>

Tabiat insoniyatning moddiy va ma'naviy talablarini qondirish manbai sanaladi. Odam hayot kechirishi davomida tabiatdan ehtiyoji uchun zarur bo'lgan barcha kerakli narsalarni oladi. Inson foydalanadigan barcha narsa tabiat moddasi bilan mehnatning mahsulidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - bu ularda tabiatga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydag'i 434-sodan qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiysi

nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni berib borish zarurligini ko‘rsatadi. Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, atrofdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik ta’siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalar tabiat haqida ishonarli ma’lumotlarni egallashlari juda muhim.

Bolalar tabiat hodisalarini to‘g‘ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yunaltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli hal etib bo‘lmaydi.

**Bolalarni tabiat bilan tanishtirish prinsiplari.** O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturiga ko‘ra bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o‘zaro bir-biriga bog‘liq ta’limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatları - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat narsa-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o‘rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.

Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalari: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta’mini, tili bilan havodagi hidni, burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko‘zi bilan, tovushlarni qulog‘i bilan sezib, ya’ni mazkur xossalarni bolaning besh turli sezgisiga ta’sir etib, shu a’zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to‘g‘risida bilim paydo bo‘ladi, ularning ko‘rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

### **Bolalarni tabiat bilan tanishtirish prinsiplari:**

- 1.Bolalar yoshiga xoslik prinsipi
- 2.Ilmiylik prinsipi
- 3.Ko‘rgazmalilik prinsipi
- 4.O‘lkashunoslik prinsipi

## **5. Ensiklopedik prinsipi**

Yuqorida keltirilgan prinsiplar bir-biri bilan bog‘langan holda olib boriladi.

### **Bolalar yoshiga xoslik prinsipi.**

Bolalar yoshiga xos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo‘lishi bilan birga ilmiy aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘simplikni yorug‘likka, suvga, issiqlikka bo‘lgan ehtiyoji. Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko‘rgazma asosida berilishi shart. O‘z o‘lkasi tabiatini haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslik barcha sohalari- (botanika, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish.

### **2. Ilmiylik prinsipi.**

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik prinsipiga amal qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo‘lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo‘lishi shart. Masalan, erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigan sababli daraxtlar kurtak chiqara boshlaydi. Osmon ko‘m-ko‘k tus oldi, biz endi bog‘cha yer maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin. Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo‘ladi. Ilmiy prinsip bolalar yoshiga xos bo‘lsagina natija beradi. Bu haqida Ya.A.Komenskiy shunday degan:

Oddiydan murakkablikka. Yaqindan-uzoqqa, tomon borish kerak. Bu prinsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo‘limida o‘z ifodasini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosa o‘zlariga yaqin bo‘lgan, atrofni o‘rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga eng avvalo MTT daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimiz zarur. Biz bolalarga ta’lim berishda ularning oldingi bilimlariga tayanamiz. Shundagina yangi bilimni chuqurroq o‘zlashtirib oladi.

### **3. Ko‘rgazmalilik prinsipi.**

Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga xos bo‘lsa ular ko‘rgazmasiz bo‘lsa bolalar ishni tushunmaydi. Shunday qilib sezish tajribani bilish va o‘rganish asosida quyidagi ko‘rgazmalilik prinsipi asoslab beradi. Ko‘rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko‘rib idrok qilish emas, balki hamma sezish organlarini idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidasi hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezish organlari bilan idrok qilish mumkin bo‘lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir necha sezish organlarini amalga oshirish lozim. Demak, ko‘rgazmalilik abstrakt tushunchalarni real anglashga olib keladi.

#### **4.O‘lkashunoslik prinsipi.**

Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan –murakkablikka tizimli ravishda yaqindan, ya’ni o‘z o‘lkasi tabiatidan boshlab uzoq, ya’ni boshqa katta tabiatni tanish, o‘rganish asosida amalga oshiriladi. O‘z o‘lkasi tabiatni bilan tanishish bevosita bolani tevarak- atrofdagi, bog‘chasidagi yer maydonchasicagi o‘simliklar, gullar ko‘chatlar, daryo va ko‘l nomlari, tog‘lar, yo‘lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami, ya’ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizimi asosida ish tashkil qilinsa, o‘zga o‘lkaning tabiatni bilan tanishish yengil, oson kechadi.

#### **5.Ensiklopedik prinsipi.**

Ensiklopedik so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, barcha fanlarni har tomonlama bilib olish, bilimlar yig‘indisi ma’nosida qo‘llaniladi. Bolalar osmon jisimlari astronomiya, o‘zi tug‘ilib o‘sigan shahar, qishloq, tog‘larning nomlarini geografiyadan, o‘simliklar nomlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini botanikadan bilib boradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-sон qarorining 4-moddasida nima yoritilgan?
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish prinsiplari
4. Bolalar yoshiga xoslik prinsipiga ta’rif bering?
5. Ilmiylik prinsipining ma’nosini aytib bering?
6. Ko‘rgazmalilik prinsipi nima?
7. O‘lkashunoslik prinsipiga izoh bering?
8. Ensiklopedik prinsip ma’nosи?

**Mavzuni mustahkamlash  
uchun interfaol metod:  
Insert metodi**



## Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

### 1. Mavzu matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma’lumot

- - men bilgan ma’lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

### 2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

	V	-	+	?
1				
2				
3				
4				

### 1-mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



#### 1.Tabit bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fani qaysi fanlar bilan bog‘liq holda bir-birini to‘ldirib, mustahkamlaydi.

a) falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya

b)falsafa, biologiya, matematika, psixologiya

d)falsafa, biologiya, matematika, psixologiya, fiziologiya

#### 2. Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi qachon qabul qilingan?

a) 2019 yil 28-maydagি

b) **2019 yil 27 maydagи**

d) 2018 yil 27 maydagi

3. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonunining nechanchi moddasida nazarda tutilgan ekologiya o‘quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti?

a) 6-moddasida

**b) 4-moddasida**

d) 7-moddasida

4. “Oddiydan murakkablikka. Yaqindan-uzoqqa, tomon borish kerak”-fikr muallifi kim?

a) A.Avloniy

b) Sh.Mirziyoyev

**d) Ya.A.Komenskiy**

5. Qaysi prinsip asosida ish tashkil qilinsa, o‘zga o‘lkaning tabiat bilan tanishish yengil, oson kechadi.

a) Ilmiylik

**b) O‘lkashunoslik**

d) Ko‘rgazmalilik



### **Tabiat, inson va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish zaruriyati**

#### **Reja:**

1.Tabiat haqida tushuncha.

2.Inson va tabiat.

3.Tabiat,jamiyat va inson munosabatlari.

**Tayanch tushunchalar:** *tabiat haqida tushuncha, inson va tabiat, tabiat, jamiyat, munosabat, birlamchi va ikkilamchi tabiat, ibtidoiy jamoa davri, qishloq xo‘jaligi inqilobi, sanoat inqilobi davri, fan-texnika inqilobi, ekologik munosabatlar davri.*

#### **1.Tabiat haqida tushuncha.**

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, noz-u-ne’matlar manbai bo‘lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz

o‘zining milliy tarixiy an’analariga ega. Bu an’analar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan. O‘tmishdan ma’lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug‘ilish, yashash, o‘sish-faoliyat maydoni. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o‘sadi, rivojlanadi.

**Tabiat** - odamning paydo bo‘lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mayjud borliq. Umuman - bu dunyo, odam, koinot; mikro va makromegadunyolar; jonsiz va jonli borliq. Tabiat odamga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatga bo‘ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o‘zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyat yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa tabiatning ba’zi jihatlarini o‘zgartiradi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, oy, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o‘smaydi, ko‘paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o‘sadilar va ko‘payadilar. Jonli tabiat vakillari o‘simlik, havo, suv, yorug‘lik, issiqlik va ozuqa bo‘lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi.

### **Tabiat 2 guruhgaga bo‘linadi. Birlamchi va ikkilamchi tabiat.**

✓ Birinchi tabiat- o‘rab turgan tabiiy borliq. U o‘ziga bios-fera (o‘simlik va hayvonlar), gidrosfera, atmosferaning pastki qatlami, litosferaning yuqori qatlami, ya’ni “geografik muhitga nisbatan tabiatning kattaroq qismini o‘z ichiga oladi.

✓ Ikkinci tabiat yaratuvchi -inson o‘z qo‘li bilan yaratgan sun’iy muhitni tashkil qiladi. Ikkinci tabiat inson yaratgan barcha narsani o‘z ichiga oladi: mehnat qurollari, maishiy buyumlar, qurilishlar, san’at asarlari.

Falsafada tabiat - obyektiv borliq, ya’ni bizni o‘rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari, deb tushuniladi.

Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda uni va barcha tirik organizmlarning ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lgan atrof-muhit deb qaraladi. Falsafiy yoki astronomik nuqtai nazardan qaraganda son-sanoqsiz yulduzlar, koinot va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirokisiz kelib chiqqan va

tabiiydir. Lekin organizmlar, jumladan insonlar ham o‘zlarining kundalik hayotiy faoliyatlarida ulardan foydalanmaydilar va ulardagi jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydilar.

## **2.Inson va tabiat.**

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go‘sadir. Tabiat ularni to‘ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O‘z navbatida tirik mavjudot ham tabiatga mehr qo‘yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini ko‘paytirish tuyg‘usi bilan uyg‘unlasha olsagina haqiqiy sanaladi.

Tabiat insonni ma’naviy boyitishning bitmas tiganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ekologik ta’lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o‘ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o‘z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg‘otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma’naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Insonning tabiatga ta’sir etishi va uning resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishi tufayli tabiiy muhit (havo, suv, tuproq va boshqalar) ifloslanib, xo‘jalikka va ayniqsa, inson salomatligiga salbiy ta’sir eta boshladи. Tadqiqotchi A.R.Meliboyevning fikricha, tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar sohasida ekologik muammolar paydo bo‘ladigan yo‘nalishlarni aniqlash favqulotda muhim pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi. Bunday munosabatlar:

- ✓ insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatlarining xususiyati (maqsadsiz, shaxsiy qiziqish, atrof muhitga nisbatan loqaydlik, ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, iste’molchilik, ehtiyotkorona, faol ijodiy)ni;
- ✓ tabiat zahiralaridan foydalanish maqsad va usullarini baholash zarurati paydo bo‘lgandagina yuzaga keladi.

Bunday baholashga zarurat tabiiy omilning inson va jamiyat uchun ham muhim insoniy qadriyat ekanligidan hosil bo‘ladi. Jamiyat a’zolarining farovonligi va huzur-halovati atrof-muhit holatiga bevosita bog‘liq.

Ma’lumki, tabiat insoniyat uchun beباho qadriyatdir. Tabiat, tug‘ilish, yashash, o‘sish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o‘sadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta’sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog‘liq hamdir. Tabiatga bog‘liq omillar texnika, iqtisodiy

ekologik munosabatlarini ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o‘rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg‘undir. Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg‘unlikni buzmoqda, unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o‘rinsiz foydalanish ekologiyani o‘zgartirib yubordi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini noto‘g‘ri rejalaشتirish, kimyoviy o‘g‘itlarni haddan ziyod ko‘p qo‘llash yer unumдорлиги va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti. Korxonalardan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot olami va o‘simpliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan tutun-gaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi insondan ekologik madaniyatni talab etmoqda. Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go‘zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari – sovuq va issiq, qurg‘oqchilik, yong‘inlar, turli ofatlar ustidan g‘alabasi unga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Bu ko‘r-ko‘ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo‘lgan mehr tuyg‘usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo‘lagini tashkil etadi.

Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go‘zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi. O‘z navbatida, tabiat insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik, nazokatlilik kabi tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Bu - insonda ikki ko‘rinishda: tabiatga va o‘ziga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Inson tabiatdan faqat zavqlanishni emas, balki uni yaxshi tushunishni ham o‘rganadi. Natijada, o‘zligini his qilib, tabiatdan unga inson bo‘lish imkonini bergen narsani, ya’ni insonga xos madaniyat hislarini topishga intiladi. Demak, insoniy tuyg‘ular tabiatga mehr bilan qarashdan oziq oladi.

### **3.Tabiat, jamiyat va inson munosabatlari.**

**Tabiat** - keng ma’noda butun borliq olam va uning xilma - xil shakllari; tor ma’noda kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lgan atrof tabiiy muhit.

**Jamiyat** - keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birligining faoliyatlarini majmui yoki tor ma'noda ijtimoiy munosabatlarning konkret tipidir.

**Inson** - tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurg'izuvchi individ. Inson tarixiy jamoa jarayoni subyekti bo'lib, u yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdag'i tirik mavjudotlar bilan genetik bog'langan holda, lekin ulardan ongini yuqoriligi, mehnat quollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi hamda axloqiy, ma'naviy va ruhiy o'z - o'zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Tabiat-jamiyat-inson munosabatlarini boshqarishning demokratik xarakteri va gumanistik tamoyillarga mosligi umuminsoniy ekologik axloqiy qadriyatlar darajasida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ekologik faoliyatni boshqarishning xalq tomonidan nazorat qilish imkoniyati, uning demokratik xarakterini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Bunda jamiyatning siyosiy institutlari, xususan davlat, uning qonuniy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy kafolati bo'lishi kerak. Chunki, ekologik faoliyatnng axloqiy mezonlari va huquqiy qonunlari aniq belgilanmasa tizimning mutanosibligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini boshqarishda milliy va umuminsoniy ekologik axloqiy qadriyatlarning integratsiyalashuvi va globallashuvi hozirgi davrda barqaror ekologik rivojlanishining obyektiv qonuniyati bo'lib, uning tarixiy tendensiyasini hamda sivilizatsiya istiqbolini belgilovchi ustuvor omilga aylanmoqda. Biroq, bu jarayonning obyektivligi subyektiv omillarni istisno qilmaydi, aksincha umuminsoniy ekologik axloqiy normalar tabiatni muhofaza qilishning zaruriy shartidir.

Inson o'z hayoti davomida ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy narsalarning barchasini tabiatdan oladi. U tabiat bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Fan-texnika rivojlangani sari insonning mehnat qurollari takomillashib boradi. Natijada u o'zini o'rab turgan tabiatning xususiyatlarini o'zgartirib, o'ziga xos muhit yaratadi. Shuning uchun, jamiyat va tabiat munosabatlari haqida gapirganda tabiiy muhit, geografik muhit, atrof-muhit, texnogen muhit kabi tushunchalar qo'llaniladi.

Jamiyatning tabiatga ta'sirining ortib borishi va tabiatga munosabatining o'zgarib borishini besh bosqichga bo'lish mumkin.

**1.Ibtidoiy jamoa davri** - jamiyatning geotizimlar tabiiy holatini buzmaydigan hayot tarzi. Odam paydo bo'lgandan boshlangan. Bu davrning xususiyatlari: dastlab tayyor tabiat ne'matlaridan termachilik

bilan kun ko‘rilgan; tosh qurollari ixtiro qilinib, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanilgan; olov kashf qilingan; dastlabki uy hayvoni, ya’ni it xonakilashtirilgan; inson tabiatga butkul qaram bo‘lib, tabiatning bir bo‘lagi sifatida hayot kechirgan; tabiatni o‘ziga moslashtirilmagan; geotizimlar to‘la qayta tiklanish imkoniga ega bo‘lgan va h.k. Ibtidoiy odamni iqlimi qulay, biologik resurslarga boy (yirik hayvonlar, mevalar) joylar ko‘proq qiziqtirgan. Bu bosqichda inson tabiatni o‘zgartirmagan, balki unga moslashgan. Inson xo‘jalik faoliyati juda sodda bo‘lib, tabiiy muhitning o‘zgarishiga sababchi bo‘lmagan. Mevali o‘simliklarni asrash va me’yorida terish, hayvonlarni me’yorida ovlash qoidalari u davrda yozuv bo‘lmaganligi sababli og‘zaki tarzda o‘rnatilgan.

**2.Qishloq xo‘jaligi inqilobi davri**— jamiyatning geotizimlarni kichik hududlarda, kam buzilishiga sababchi bo‘ladigan hayot tarzi. Bundan 6–8 ming yil ilgari boshlangan. Ushbu davrda odam ovchilik va baliqchilikdan dehqonchilikka o‘tgan. Tabiiy landshaftlarning kuchsiz o‘zgarishi ro‘y bera boshlagan. Bu davrning xususiyatlari: neolit davrida “Qishloq xo‘jaligi inqilobi” natijasida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlangan; mug‘onalik – insonning tabiatga ta’sir ko‘rsatishi va uni o‘zgartirishi mumkinligi haqidagi qarash paydo bo‘lgan. Mehnat qurollari ancha takomillashib borishi natijasida inson tabiat bilan muvozanatni buza boshlagan, ayrim ov hayvonlari va o‘simliklar miqdor jihatdan kamaygan; xo‘jalik sohalarining dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lgan va rivojlangan; aholi o‘troq hayot kechira boshlagan va dastlabki shaharlar paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida er.av. II asrda dastlabki ariqlar, eramizning IV–VI asrlarida esa kanallar qurilgan. IX–XIII asrlarda sug‘orishning turli usullari va yirik gidrotexnik inshootlar qurilib, shu davr mobaynida jami 3,5–3,8 mln hektar yer sug‘orilgan.

Bu davrda insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri kuchaya borgan, hunarmandchilik rivojlangan, xo‘jalikda tabiiy resurslardan keng qo‘llanila boshlangan. Dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan, ammo ular, asosan, qo‘l kuchiga asoslangani uchun ekologik muvozanatga ta’sir etmagan. Demak, bu davrda tabiatga ta’sir, asosan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida bo‘lgan. Nisbatan uzoq davom etgan bosqich bo‘lib, tabiatga kuchsiz, ba’zi tabiat komponentlariga kuchliroq ta’sir ko‘rsatilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan qonunlar yozma ravishda o‘rnatilgan va amal qilingan, diniy manbalarga asoslanib, hukmdorlar turli davrlarda har xil ekologik qonunlar va farmoyishlar chiqarganlar.

**3. Sanoat inqilobi davri** – jamiyatning o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanadigan hayot tarzi. Bu davr XVIII asrdan boshlangan bo‘lib, asosiy xususiyatlari: 1784-yil bug‘ mashinasining yaratilishi bilan “sanoat inqilobi”, XX asrning o‘rtalarida esa – “Yashil inqilob”, ya’ni qishloq xo‘jaligida tub burilish amalga oshirildi va bu «inqilob»lar keyinchalik ekologik tanglikni keltirib chiqardi.

**4. Fan-texnika inqilobi davri** – jamiyatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mavjud tabiiy muhitni saqlab qolish darajasidagi hayot tarzi. Bu davr XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu davrda ekologik bilim, ong, madaniyat shakllandi va rivojlandi, ekologik tashkilotlar tuzila boshladi; aholi soni juda tez o‘sdi va inson ilm bilan qurollandi, ya’ni “fan-texnika inqilobi” amalga oshirildi; fazoni o‘zlashtirish boshlandi; D.Mendeleyev davriy sistemasidagi barcha elementlardan foydalanildi va tabiatga begona bo‘lgan sun’iy birikmalar paydo bo‘ldi; tabiat qonunlari ijtimoiy qonunlarga moslashtirilmoqchi bo‘lindi; geoekologik vaziyat inqirozli hududlar va global muammolar vujudga keldi; tabiat komponentlarining barchasiga kuchli ta’sir etildi. Shu bilan birga, bu davrda suv, tuproq, o’simlik va hayvonlar muhofazasiga ham alohida e’tibor qaratildi, ixtisoslashtirilgan ekologik qonunlar qabul qilindi. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ushbu qonunlar xalqaro andozalarga moslashtirildi va ekologik qonunchilik ta’lim tizimida o‘qitila boshlandi Fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan tabiiy resurslar juda katta miqyosda o‘zlashtirila boshlandi. Turli shakl va miqyosdagi ekologik muammolarning tarkib topishi va tabiiy ofatlarning kuchayishi jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda.

**5. Ekologik munosabatlar davri** – jamiyatning sog‘lom va ekologik toza atrof-muhitni iqtisodiy o‘sish bilan teng darajada qadrlanishga asoslangan hayot tarzi. Bu davrning belgilari ayrim rivojlangan davlatlarda kuzatilib, insonni biologik va ijtimoiy organizm sifatida saqlab qolish hamda uning atrof tabiiy muhitini ekologik xavfsiz holda saqlash maqsadida muhofaza qilish asosiy vazifaga olib chiqilgan, resurslarning qayta tiklanishi jamiyat hisobidan amalga oshirilmoqda, ekologik qonunchilik yanada takomillashgan, tabiatga yetkazilgan zararni qoplashda har bir geotizimning geoekologik vaziyati hisobga olinib, tabaqalashgan holda belgilanadi, ekologik madaniyat inqilobi yuzaga kelmoqda. Umumiy qilib aytganda, bu bosqich jamiyat va tabiat o‘zaro uyg‘un rivojlanishda bo‘ladigan davr hisoblanadi.

Xullas, tabiat jamiyat munosabatlarining ijobiyligi yoki salbiy munosabati bevosita kattalarning xatti-harakatlariga bog'liq. Shuni esadan chiqarmaylikki, bu harakatlar bolajonlarning yurish turishida, atrof tabiiy muhit holati va salomatligida o'z aksini topadi. Kishilik jamiyatining kuch-qudrati jadal suratlarda oshib borayotgan bir paytda ekologik vaziyat ko'proq tabiatga emas, balki inson, jamiyat, davlat va hamjamiyat faoliyatiga, ya'ni ularning ekologik madaniyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Biz, insonlar, tabiatdan ajralgan tarzda yashay olmas ekanmiz, uning ajralmas bir bo'lagi sifatida o'zimizni inson tariqasida his etib, hayot kechirishimizga to'g'ri keladi. Zero ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga erishmoq barchamizning muqaddas burchimizdir.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Tabiatdagi narsalar necha qismdan iborat?
2. Jonli tabiatga nimalar kiradi?
3. Jonsiz tabiatga nimalar kiradi?
4. Tabiatdagi uyg'unlikning buzilishiga sabab nima?
5. Jamiyatga ta'rif bering.
6. Jamiyatning tabiatga ta'sirining ortib borishi va tabiatga munosabatining o'zgarib borishini necha bosqichga bo'lish mumkin.
7. Ibtidoiy jamoa davrida qanday o'zgarishlar yuz bergan?
8. "Yashil inqilob" hodisasi qaysi davrda bo'lib o'tgan.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



1. Suv, havo, toshlar tabiatning qaysi qismiga kiradi?
  - a) jonli tabiat
  - b) jonsiz tabiat**
  - d) jonli va jonsiz tabiat
2. Tabiatning birlamchi guruhi nimalarini o'z ichiga qamrab oladi?
  - a) mehnat qurollari, maishiy buyumlar, qurilishlar, san'at asarlari.
  - b) biosfera, gidrosfera**
  - d) mehnat qurollari, maishiy buyumlar, biosfera, gidrosfera
3. Jamiyatning tabiatga ta'sirining ortib borishi va tabiatga munosabatining o'zgarib borishini necha bosqichga bo'lish mumkin.
  - a) 5 ta**
  - b) 4 ta

- d) 3 ta
4. Qishloq xo‘jaligi inqilobi davri qachon boshlangan?
- 4-6ming yil ilgari
  - 5-7ming yil ilgari
  - d) 6-8ming yil ilgari**
5. Qaysi davr jamiyat va tabiat o‘zaro uyg‘un rivojlanishda bo‘ladigan davr hisoblanadi?
- Ekologik munosabatlar davri**
  - Qishloq xo‘jaligi inqilobi
  - Sanoat inqilobi

### **Mavzu yuzasidan interfaol metod:**

“Assesment” metodi



**Metodning qo‘llanishi.** “Assesment” metodi o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetning biron-bir bo‘limi tugallanganida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash takrorlash mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarining bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarining dastlabki bilimlari, ko‘nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo‘llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi. Bunda topshiriqlar shakli 10-jadvaldagagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

#### **“Assesment” metodi bo‘yicha topshiriq namunasi**

**Test.** Tegishli fan bo‘yicha **Muammoli vaziyat.** O‘tilgan o‘tilgan (bo‘lim, kurs) mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, yuzasidan 1- 2 ta test beriladi. hodisaga asoslangan muammo beriladi.

**Simptom.** Mavzu bo‘yicha Amaliy ko‘nikma. O‘tilgan mavzu ilmiy-nazariy fikrlar, g‘oyalar, mazmunini hayotda ish foaliyatida ta’riflar tugallanmagan fikr qo‘llashdagi ko‘nikmalarga tegishli ko‘rinishida beriladi, masalan: topishiriq beriladi, masalan: chizing, ta’rif bering, ilmiy hisoblang, to‘ldiring, toping, solishtirin asoslang, yoriting va b. va b.

### **“Assesment” texnologiyasi**

( **Assesment** (assessment) – o’z-o’zini taqdimot qilish, ma’lum bir sinovdan o’tish.).

	<b>TEST</b>	<b>MUAMMOLI VAZIYAT</b>
	<b>SIMPTOM</b>	<b>AMALIY KO’NIKMA</b>



**Sharq va g‘arb olimlarining tabiat, uning  
inson hayotidagi o‘rn ni haqidagi qarashlari**

#### **Reja:**

1. Tabiat haqida qadimgi qo‘lyozmalarda yoritilishi.
2. Sharq mutafakkirlarining tabiat va uning inson hayotiga ta’siri haqidagi qarashlari.
3. G‘arb mutafakkirlarining tabiat va uning inson hayotiga ta’siri haqidagi qarashlari.

**Tayanch tushunchalar:** *qadimgi qo‘lyozmalar, Sharq mutafakkirlarini qarashlari, G‘arb mutafakkirlarini bildirgan fikrlari, o‘rta osiyo xalqlari, Avesto, jamiyat va inson, Zardushtiylik ta’limotida, Qur’oni karim.*

#### **1.Tabiat haqida qadimgi qo‘lyozmalarda yoritilishi.**

O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega. Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozma “Avesto” xalqimizning beباو mulki sanaladi. “Avesto” tabiat, jamiyat va inson

o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir. "Avesto"da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. "Avesto"da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

"Avesto" da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va buniyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan. "Avesto" faqat odamnigina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" yerning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyohlarning buniyod etish tarixiga doir asar<sup>2</sup>. Ajdodlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya borasida ham boy meros qoldirgan. Bunga "Avesto"da ifodalangan ekologik yo'nalishdagi qarashlar va o'gitlar, zardushtiylik bilan bog'liq an'analar, urf-odatlar, bayramlar, suvgaga, yerga sajda qilish, olovning poklovchi kuchiga e'tiqod, ajdodlar ruhiga topinsh misol bo'la oladi.

Qadimgi zardushtiylarning o'ziga xos o'simlik va hayvonot olami, hayot tarzi bilan aloqador tarixiy sharoit havo, suv, tuproq va olovning ilohiyashtirilishiga olib keldi. "Avesto" da hayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari to'g'risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. "Avesto" da maxsus bo'lim bo'lib, uning nomi "Suvlar qasidasi" dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri – Amudaryo haqida so'z yuritiladi. Suvni toza tutish uchun qo'yilgan talablar tuproqqa ham qo'yilgan. Ona zamin tabiatning ajralmas bo'lagi, shu sababli ajdodlarimizning yerga mehri o'zgacha bo'lgan. Ona zaminni ehtiyyot qilishda sir-asror mo'l-ko'l, karomat kattadir, chunki yer barcha boylikning asosi, butun tiriklikning manbaidir<sup>3</sup>. Zardushtiylar e'tiqodicha,

<sup>2</sup> Maximov T. Avesto haqida. – T.: SHarq, 2002. – 63 b

<sup>3</sup> Sobirov O'. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekologiya xabarnomasi. – T.: № 3. 2005. - 17-19 b.

yer har xil iflos narsalar, ayniqsa, inson va hayvonlar jasadining ko‘milishidan paydo bo‘ladigan narsalardan poklanishga ehtiyoj sezadi.

Zardushtiylik ta’limotida atrof muhitga nisbatan madaniyatning teranligi va kuchliligi insonni hayratga soladi. Zero, uning dolzarbligi hozir ham o‘z kuchini saqlab qolmoqda. Bu o‘rinda yerni ifloslantirmay va hosildorligicha saqlash, o‘simlik va daraxtlarni o‘stirish, hayvonlarni parvarishlash kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Axlatlarni maxsus usulda tozalash lozim bo‘lgan. Toza va quruq axlat masalan, singan idish, suyaklar yerga zarar keltirmaydigan narsalar sifatida ko‘mib tashlangan. Qolgan barcha narsalar tomida tuynuksimon teshigi bo‘lgan kichikroq uychaga to‘plangan hamda vaqtı-vaqtı bilan ishqor ta’sirida yo‘q qilib turilgan.

Zardushtiylik aqidalarida insonga ongli jonzot sifatida qarash alohida ahamiyat kasb etgan. U shu sababli ham atrof muhitni saqlash uchungina emas, balki o‘zining jismoniy sog‘ligi, axloqiy-ma’naviy holatini kuzatish, qarindosh-urug‘lari haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga ham mas’ul qilingandir. Shuning uchun “Avesto” da tabiatni – ya’ni suv, tuproq, olov, havo, quyoshni e’zozlash va insonning yaratuvchanlik mehnatini ulug‘lash birlamchi ahamiyat kasb etgan<sup>4</sup>.

Qadimgi an’analarga ko‘ra bu paytda kishi quyidagi shartlarni bajarmog‘i kerak: ko‘cha va hovlilarni tartibga keltirish, tozalashda ishtirok etishi, daraxtlarni oqlash, ko‘chat (kamida uchta) hamda gullar o‘tqazish, xushchaqchaq va shoduman yurishi, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish. Shunga ko‘ra, ekologik madaniyat tamoyillari, me‘yorlari antropogen omillar xarakteriga ega bo‘lib faqat insonning bevosita tabiat bilan bo‘lgan munosabatlaridagi harakatlarigagina tatbiq etilgan va baholangan. Barcha insonlar ana shu o‘lchov me’origa amal qilganlar. Shu sababdan ham suvga tuflama, suvga suprindi tashlama, suv oqqan ariqni iflos qilma, havoni ifloslama kabi fikrlar ular uchun dasturi amal bo‘lgan.

Islom ta’limotida ekologiya muammosiga alohida e’tiborberilgan. Qur’oni karim va Hadisi sharifda tabiatni muhofaza qilish, boyitish, pokiza saqlashga oid pand-nasihatlar o‘z aksini topgan. Qur’oni karim kitobi insonlarni tabiat bilan uyg‘unlikka da’vat etadi. Jumladan, “Furqon surasi” ning 2-oyatida: “Alloh hamma narsani yaratdi va o‘lchovini mukammal qildi”, deyiladi. Ya’ni dunyodagi har bir narsa – suv ham, tuproq ham, havo ham, hayvonot olami ham, nabobat olami ham Alloh taolo tomonidan

<sup>4</sup> Sobirov O’. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekologiya xabarnomasi. – T.: № 3. 2005. - 17-19 b

muayyan o'lchov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat buziladigan bo'lsa, tabiat uchun, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqishi ehtimoli nihoyatda katta.

Alloh taolo ilohiy kitoblarda insonni ulug'lab, unga tabiatni asrab-avaylash, o'z ne'matlaridan bahramand bo'lish, ularni nobud qilmay, ezgu maqsadlarga ishlatishni amr etgan. "A'rof surasi" ning 56-oyatida Parvardigor shunday deb amr qiladi: "Obod qilib qo'yilgan yer yuzida bo'zg'unchilik ishlarini qilmang". Shuningdek, "Al-Isro" surasi tunggi sayr degan ma'noni bildiradi. Bunda borliqdagi barcha jonli-jonsiz mavjudot o'zaro bog'lanishda ekanliklari to'g'risida aytilgan. "Raxmon" surasida jannatga ta'rif beriladi, "Duoxon" tutun degan ma'noni anglatib, bunda ham do'zax va jannat manzaralari haqida ta'riflanadi. "Shuar" surasidagi Nuh payg'ambarning kemasida odamlar bilan hayvonlar va parrandalarning saqlab qolinishi hikoyatlari, "Nahl" asalari, "Naml" chumoli deb nomlangan suralarida ham zaif va zahmatkash maxluqlarning ibratli hayot tarzi haqida hikoya qilinadi<sup>5</sup>

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlarida yer, suv, havo, atrofdagi o'simlik hamda hayvonot dunyosiga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Ular to'plagan ekologik tajribasining bir avloddan ikkinchi avlodga, bir xalqdan boshqa xalqqa vorisiyligini ta'minlash muhimdir.

## **2. Sharq mutafakkirlarining tabiat va uning inson hayotiga ta'siri haqidagi qarashlari.**

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850) risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Bilingki, daryoning ko'zları yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryordan mehringizni darig' tutmanglar!" Daryoning "yoshli ko'zları" deganda Muhammad Muso al Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Etimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avalo daryo bilan odamlarning

---

<sup>5</sup> Aluddin Mansur Qur'oni Karim. – T.: Cho'lon, 1992. – 544 b.

“bir-birlarini tushunishlari”, o‘zaro mehr muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgan. 847 yilda Muhammad al Xorazmiy “Kitob surat al arz” nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvatorlar, cho’llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar va o‘rmonlar, ulardagi o‘simplik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

**Abu Nasr Forobi**y O‘rtta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (873-950) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelning ro‘yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, uning “Kitob al-hajm va al-miqdor”, “Kitob almabodi al-insoniya” (“Insoniyatning boshlanishi haqida kitob”), “Kitob al-a’zo al-hayvon” (“Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob”) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Tabiatshunoslikka oid “Odam a’zolarining tuzilishi”, “Hayvon a’zolari va ularning vazifalari haqida” kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a’zolarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham fikr yuritilgan.

Odam a’zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so‘z yuritilganda o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi. Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta’siri katta ekanligini, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga ko‘rsatiladigan boshqa ta’sirlarni atroflicha baholagan.

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba’zi hodisalarni quyoshning ta’siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o‘simplik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o‘simplik va hayvonlar doimo ko‘payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari ham hozirgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan: “Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo‘lsada, kunlar o‘tishi bilan bu ikki o‘sish natijasida ko‘payish cheklanmaydi. Agar o‘simpliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o‘sishiga sharoit bo‘lmay, o‘sishdan to‘xtasa ham, boshqalarida bu

ahvol bo‘lmaydi. Ular birdaniga paydo bo‘lib, birdaniga yo‘qolib ketmaydi. Bordi-yu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko‘payishiga ham, daraxtning o‘sishiga ham o‘rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o‘toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar”

Beruniy asarlarida o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, “Saydana”, “Minerologiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklan” asarlarida o‘z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi misollar bilan tushuntirilgan. Beruniy yer yuzining o‘zgarishi o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig‘anojni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb ta’kidlaydi alloma. Beruniy “Saydana” degan asarida 1116 xil dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlarida o‘simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Beruniy o‘zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagি hodisalar ma’lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo‘lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida “Tib qonunlari” shoh asari tibbiyot ilmining qomusi bo‘lib, o‘rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho‘qqisi bo‘lib hisoblanadi. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur “Kitobash-shifo”, ya’ni “Davolash kitobi” asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning tog‘larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, zilzilaning bo‘lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1530). Bobur nafaqat shoir balki podshoh, ovchi, tarixchi, bog‘bon va tabiatshunos bo‘lgan.

“Boburnoma” asarida Bobur o‘zi ko‘rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiat, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o‘simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so‘zлari ko‘plab uchraydi. Bobur o‘z asarida joyning geografik o‘rni, qaysi iqlimga mansubligi, o‘simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O‘rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug‘doy, o‘rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta’kidlagan. Asarda Bobur borgan joylarining tabiatini va o‘ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergen.

### **3.G‘arb mutafakkirlarining tabiat va uning inson hayotiga ta’siri haqidagi qarashlari.**

Tarix zarvaraqlarida o‘zlarining o‘chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati. uning bola ruhiyatiga qanday ta’sir qilishi haqida ilmiy fikrlarini aytib o‘tganlar.

Ushbu mavzuni o‘rganishda biz G‘arb pedagoglaridan: K.D.Ushinskiy, Y.A.Komenskiy, I.G.Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o‘rni haqidagi ilmiy asarlari bilan tanishamiz. Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, “Inson tarbiya predmeti sifatida” asarida “Meni pedagogikada var var hisoblasangiz ham, lekin men o‘z hayot tajribamda shunday xulosaga keldim. Go‘zal tabiat yosh qalbga shunday katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadiki, hatto pedagogikaning ta’siri ham u bilan raqobatlashishga ojizdir”, -degan edi.

Chexiyalik mashhur pedagog **Ya.A.Komenskiy** bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o‘rin olgan: U o‘zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o‘qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag‘ishlagan. Uning fikricha, inson tabiatning eng go‘zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o‘xshatgan. “Onalar maktabi” xushbo‘y o‘simliklar, g‘uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. “Ona tili” maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o‘xshaydi. “Gimnaziya”da dalalar, bog‘ va terakzorlardagi mo‘1 hosilni yig‘ib, uni “Aql xazinasi”ga joylayotgan kuz faslini eslatadi. Va nihoyat, “Akademiya” yig‘ilgan hosilni umr bo‘yi sarflashni mo‘ljallab taqsimlayotgan kishiga o‘xshatiladi.

Ya.A.Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini o‘zining boshqa asarlarida ham ochib bergen. Ya.A. Komenskiy “Onalar

maktabi”da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- ✓ suv, yer, havo, olov, yomg‘ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o‘t, qush, baliq kabilarni;
- ✓ yorug‘lik va qorong‘ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;
- ✓ o‘zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog‘, vodiy, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog‘lab tushuntirgan. U o‘quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarining nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to‘liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mayjud narsalardan eng chiroylisi bog‘ning turli manzaralaridan namuna olishdir. **I.G.Pestalossi** 1746- yilda shveytsariyalik shifokor oilasida tug‘ilgan. U o‘z zamonasining mashhur pedagogi bo‘lgan. LG.Pestalossining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. U Ya.A.Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu g‘oyasiga amal qildi: “Insoniy kuchlarning o‘sishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy-hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. To‘g‘ri tarbiya esa ularni, ya’ni barcha insoniy kuchlarni o‘stirishga yordam beradi”.

I.G. Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o‘stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg‘a suradi:

1. Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo‘naltirish.
3. Bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
4. Ko‘rsatmalilik.

I.G.Pestalossi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, o‘z asarlari bilan o‘ziga haykal yaratgan olimdir.

Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo‘ladi. Bu haqida buyuk pedagog olimlarimiz o‘zлari yashab o‘tgan davrda, bolaning har tomonlama o‘sishida ma’naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne’matidir deb, ta’kidlab o‘tganlar. Biz hozirda o‘tmishdagi pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyanganmiz o‘zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan shug‘ullanganlar pedagogik olimlar?

2.I.G. Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi qanday didaktik qoidalarni olg'a suradi:

3. Y.Kamenskiyning "Onalar maktabi" asarida 4 xil maktabni qaysi birini qanday faslga o'xshatishadi.

4. Sharq mutaffakirlaridan kimlarning tabiat va uning inson hayotiga ta'siri haqidagi qarashlarini bilasiz

5. G'arb mutaffakirlaridan kimlarning tabiat va uning inson hayotiga ta'siri haqidagi qarashlarini bilasiz

6. Ibn Sinoning qaysi falsafiy va tibbiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur qilgan.

7. "Bilingki, daryoning ko'zлari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!" "Daryoning yoshli ko'zлari" deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan?

8. Ya.A. Komenskiy Onalar maktabi»da nechta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. "Alloh hamma narsani yaratdi va o'lchovini mukammal qildi"- ushbu fikr qaysi asardan olingan?

a) "Avesto"

**b) Qur'oni karim**

d) "Qobusnama"

2. Qur`oni karimning qaysi surasida jannatga ta'rif beriladi

**a) "Raxmon surasida "** surasida

d) "Al-Isrob" Furkon surasida

3. "Kitob al-hajm va al-miqdor", Kitob almabodi al-insonia" - asarlar muallifi kim?

a) Muhammad Muso al-Xorazmiy

b) Ya.A. Komenskiy

**d) Abu Nasr Forobiy**

4. Ya.A. Komenskiy «Onalar maktabi»da nechta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan?

a) 13ta

**b) 18ta**

d) 15ta

5. Kim bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg'a suradi?

**a) I.G. Pestalossi**

b) Ya. A. Komenskiy

d) Abu Ali ibn Sino

**Mavzu yuzasidan topshiriq:  
FSMU texnologiyasi**



Ushbu texnologiya o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi. Bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga o'rgatadi. Talabalarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U - fikringizni umumlashtiring

FIKR	Maktabgacha ta'lim tashkiloti bola rivojlanishida asosiy poydevor sifatida
F-fikringizni bayon eting	
S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U-fikringizni unumlashtiring	

## 2-MODUL: TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA TARBIYA TURLARINING O'RNI



**Tabiat bilan tanishtirishda aqliy, axloqiy,  
estetik, jismoniy, ekologik tarbiyaning  
ahamiyati**

### **Reja:**

1. Tabiat bilan tanishtirishda aqliy tarbiyaning ahamiyati.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Estetik tarbiya.
4. Jismoniy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.

**Tayanch tushunchalar:** muktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, tabiat go'zalligi, aqliy, axloqiy, jismoniy, ekologik, estetik, tarbiya, tarbiyachi, mahorat, tarbiyaviy imkoniyat.

### **1. Aqliy tarbiya.**

Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri kattadir.

Muktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta`lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rabi olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda muktabgacha ta'lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

**Aqliy tarbiya** – shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasnif-lash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.

Fikrlash faqat idrok qilish bilan bog‘langan so‘zlar yordamida hosil qilinish I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta’siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so‘z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog‘liq, bu ko‘rgazmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo‘lib, miya po‘stlog‘idagi muvafaqqiyatli bog‘lanishni o‘z ichiga oladi, ya’ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarini sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya’ni tushunchalarning hosil bo‘lish jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan bog‘liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo‘lish, biron narsa haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

“Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir” - degan edi I.P.Pavlov.

O‘zlashtirishda qancha ko‘p analizatorlar birgalikda ishtirot etsa, tasavvur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma’noli bo‘ladi. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosiga birinchi navbatda ko‘rgazmalilikni qo‘yish kerak, ya’ni narsa va hodisalar ularning sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etishi, bolalar narsalarini ko‘rib, qo‘l bilan ushlab ko‘rishlari, eshitib, hidlab ko‘rishlari, ta’mini tatib ko‘rishlari, ya’ni ularning xususiyatlarini sezalish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari shart.

Uyda, sayrda, o‘yinlarda va mehnatda, tabiatdagi narsa va hodisalarini bolalarga ta’sir etishi natijasida ularda sezalish tajribalari to‘planib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bog‘chaga ketayotganlarida ko‘chadagi ob-havo sharoiti (sovuj, issiq, iliq va namlik)ni sezalish oladilar. Qo‘llarini yuvganlarida, cho‘milish vaqtida, o‘yinlarda suvning xususiyatlarini (sovujligi, iliqligi, sachrashi, toshlarning suvda cho‘kishi yoki yog‘ochning suzib yurishi)ni payqay oladilar. Hayvonlarni parvarish qilishda esa ularning harakatlarini, odatlarini bilib oladilar.

Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lishi natijasida, undagi narsa va hodisalarini yaqqol ko‘rib, idrok qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Lekin ko‘pincha bola narsalarini payqamay qolishi yoki muhim bo‘lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto‘g‘ri tasvirlashi mumkin. 3-4 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt xam sezmasligi mumkin. Hayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e’tibor beradi, akvariumda suzib yurgan baliqni kursatib uni «yuryapti» yoki «qanotlarini silkityapti», - deb aytadi. Bundan ma’lum

bo‘ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko‘rsatishning o‘zagina kifoya qilmaydi. O‘rgatish jarayonida maqsadga muvofiq raxbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bolaning idrokini yo‘lga soladigan, diqqatini ko‘rish va eshitishi muhim bo‘lgan narsa va hodisalarga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi so‘zlarida ifodalanadi.

Maktabgacha yoshida tabiatni o‘rganish ko‘proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog‘liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko‘ra so‘z bilan aytib idrok qilish mustahkam o‘zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang‘ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks ettirish mumkin.

Tushuncha - bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko‘rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so‘zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo‘ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o‘yin va mehnatda o‘zlashtiriladi va tekshirib ko‘riladi.

Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad — shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilish kabi xislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya’ni go‘zallikni his qilishni o‘rgatadi Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g‘ichirlashi - bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalashda va o‘stirishda boy material bo‘lib xizmat qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg‘ularning o‘sishi esa, o‘z navbatida san’atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o‘rganish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Avval tabiat go‘zalligini, so‘ngra san’at go‘zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san’atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg‘ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg‘ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, ulardan bahramand bo‘lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg‘onishi uchun oylar, yillar kerak bo‘ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki

bog‘cha hovlisidagi xushmanzara gullarni, chiroyli bog‘ hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

## **2.Axloqiy tarbiya**

Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg‘ulari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do‘slik, tinchlik, inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobi, axloqiy sifatlari, poklik, to‘g‘rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjanob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi.

**Axloq tushunchasi** – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu murakkab jarayon bo‘lib, uzoq vaqt, kerak bo‘lsa yillar davomida qilinadigan mehnatning mahsuli hisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bog‘cha hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida har bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish, sug‘orish, begona o‘tlardan tozalash, shakl berish, o‘g‘it yoki go‘ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Bu yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek «ovqatni yaxshi ko‘rishini», o‘simlikning ovqati go‘ng, o‘g‘it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko‘rsak, gullar ham «yuvinishni», «taranishni» yaxshi ko‘rishini va buning uchun gullarni tagini vaqt-vaqt bilan yumshatib, suv berib turish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini o‘rgatishi zarur. Shuningdek tarbiyachi bolalarga odamlar yorug‘likni, quyoshni qanday yaxshi ko‘rsa, gullar ham yorug‘likni, quyoshni shunchalik yaxshi ko‘rishini, shuning uchun ham ularni soya yoki qorong‘i yerga saqlash mumkin emasligini ularga uqtirishi zarur.

Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo‘llari juda ko‘p va xilma-xildir. Biz yuqorida faqat uning ba’zi birlarini eslatdik, xolos. Uni har bir tarbiyachi o‘z sharoiti, o‘z milliy urf-odatlari asosida amalga oshirsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Bolalarning o‘simliklar

o'stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka o'rgatadi

### **3. Estetik tarbiya**

**Estetik tarbiya** - jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad – shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to'g'ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o'zini to'g'ri tuta bilish kabi xislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya'ni go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g'ichirlashi - bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotini tarbiyalashda va o'stirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg'ularning o'sishi esa, o'z navbatida san'atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o'rganish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Avval tabiat go'zalligini, so'ngra san'at go'zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san'atdagi go'zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg'ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bog'cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg'ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, ulardan bahramand bo'lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg'onishi uchun oylar, yillar kerak bo'ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog'cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog' hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

### **3. Jismoniy tarbiya**

**Jismoniy tarbiya**- badan tarbiya — sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi.

Insonning ma'naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan sog'lom bo'lishining ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz "tani sog'lik – tuman boylik", "to'rt muchaling sog' bo'lsin" deb bekorga

aytmagan. Bu naqllarning turli-tuman ma’nosi bor. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma’lumki, bolalar 7–8 yoshgacha bo‘yiga har yili 5 sm gacha o‘sib, tana og‘irligi 2-2,5 kg ga ortib boradi. Keyin esa biroz sekinlashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bolaning jismonan sog‘lom o‘sishini yoshlikdan ta’minalash kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalarni jismonan sog‘lom tarbiyalash uchun nimalarga e’tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug‘ilishi mumkin. Bolalarni jismonan to‘g‘ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlarga qat’iy rioya qilish kerak: – gigiyenik ko‘nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovli, jihozlar, kiyim-bosh, poyabzal gigiyenasi); tibbiyat xodimlarining doimiy nazoratida (sog‘lig‘i, antropolitik ma’lumotlari, fiziologik holati) bo‘lish; – bog‘chadagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o‘yin, mashg‘ulot, sayrlar, organizmni chiniqtirish). Bog‘cha yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishda ochiq havoda sayr qildirish, tog‘ etaklari, daryo bo‘ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bog‘larida bo‘lish, ular bilan bog‘cha hovlisida ishlash, harakatli o‘yinlar tashkil qilish, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog‘larida bo‘lish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Bog‘cha hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug‘orish, gulzorni begona o‘tlardan tozalash, gullarga mineral va madaniy o‘g‘itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka, ham jismonan sog‘lom bo‘lib o‘sishlariga yordam beradi. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda yer maydonchasi, bog‘cha hovlisining mavjudligi katta ahamiyatga ega. Bola ochiq havoda sayr etar ekan, nafas olish organlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a’zolari mustahkamlanadi, sog‘lom o‘sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishning turlari juda ko‘p bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish kerak.

#### **4. Ekologik tarbiya**

Bolalarning ekologik tarbiyasi-pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o‘z ifodasini topgan an’anaviy yondashish, keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi bir yo‘nalishdir. Voyaga yetayotgan avlodni ekologik tarbiya muammosi avvalambor hozirgi zamon olimlarining tabiat va jamiyatdagi o‘zaro bog‘liqliklarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqdi. Hozirgi kunda inson va tabiatning o‘zaro munosabatlar xarakteri yer sharida hayotni saqlab qolish bilan bog‘liqdir. Ushbu muammolarning dolzarbliji, ekologik va biologik qonuniyatlarni hisobga olmagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning

tez sur'atlar bilan o'sib borishi va nihoyat, tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi. Olimlar tabiat jamiyat bir-biriga ta'sirning o'ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi turiga o'tishni ta'minlash kerak degan xulosaga keldilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki xuddi mana shu yoshda informatsiyalarning 70%ni qabul qiladilar, ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevor asoslari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariiga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lган faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi – tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligi, kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda: (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanishni tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonda shaxsni ekologik tarbiyalash quyidagi faoliyat turlarini ochib berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish. Bola ekologik ong elementlarini tushunish va tasavvur etish, tabiat to'g'risidagi bilimlarning xarakteri va mazmuni bilan aniqlanadi. Ularda, tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini namoyon qiluvchi ekologik mazmunga ega bo'lган bilimlar bo'lishi kerak.

2. Bolalarda tabiat bilan bog'liq bo'lган turli xil bilim va malakalarni shakllantirish, faoliyat bilan bog'liq bo'lган harakatlar tabiatni saqlash xarakteriga ega bo'lishi kerak. Tabiat bilan bog'liq holda olib borilayotgan aniq faoliyat davomida (dala hovli va tabiat burchaklarida o'simlik va hayvonlarga qarash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lган ishlarda faol qatnashish) bolalar tirik organizmlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo'lган sharoitlarni tashkil qilishni o'zlashtiradilar. Bunda, salbiy ishlarning oqibatlarini oldindan ko'ra-bilish, tabiatda o'zini qanday tutishni bilish, alohida olingan turkumlar va tirik organizmlarning butunligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda aqliy tarbiya qanday amalga oshiriladi?
2. Tabiatni estetik qabul qilishning ahamiyatini qanday tushunasiz?
3. Tabiat bilan tanishtirishda axloqiy tarbiyaning o'rni?
4. Tabiat bilan tanishtirish metodikasida jismoniy tarbiyaning mohiyati nimada?



### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1.“Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir”-fikr muallifi?

- a)I.Pavlov
- b)Ya.A. Komenskiy
- d) I.G. Pestalossi

2. Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad?

a) yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg‘ulari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do‘stlik, tinchlik, inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobiliy, axloqiy sifatlari, poklik, to‘g‘rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjanob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash

**b) shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarни to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir.**

d) Bolalarning o‘simliklar o‘stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtiok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka o‘rgatadi

3. Jismoniy tarbiya nima?

**a) Insonning ma’naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan sog‘lom bo‘lishining ahamiyati**

b) Bolalarning o'simliklar o'stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka o'rgatadi

d) tabiat go'zalligini, so'ngra san'at go'zalligini his etish

4. ....- pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o'z ifodasini topgan an'anaviy yondashish, keyingi yillarda yo'zaga kelgan yangi bir yo'nalishdir

a) estetik tarbiya

b) aqliy tarbiya

**d) ekologik tarbiya**

5. Maktabgacha tarbiya yoshida bolalar informatsiyalarning necha foizini qabul qiladilar?

**a) 70%**

b) 75%

d) 50%

**Mavzuni mustahkamlash  
uchun interfaol metod:  
“Aqliy hujum” metodi**



Ushbu metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod bo'lib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi hamda original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

“Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlab, ayni vaqtida ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”dan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi.

Shunday qilib, “Aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ✓ olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ✓ ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha

yaxshi;

✓ istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

✓ muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;

✓ barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan

yozib olinadi;

✓ “hujum”ni o‘tkazish vaqtি aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

✓ beriladigan savollarga qisqacha ( asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

### **“Tarbiya nima”**

### **3-MODUL: MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA**



#### **Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarda ekologik ta'lim va tarbiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati**

##### **Reja:**

- 1.Ekologiya haqida tushuncha.
- 2.Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik ta'lim berishda zamonaviy yondashuv.
- 3.Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarda ekologik ta'lim tarbiyaning mazmun mohiyati.
- 4.Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

**Ekologiya haqida tushuncha:** umumiy ekologiya, xususiy ekologiya, autekologiya, populyatsiyalar, sinekologiya, ekotizimlar, maktabgacha ta'lismi tashkilotlari, davlat stantarti, o'quv dastur.

##### **1.Ekologiya haqida tushuncha.**

**Ekologiya** organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'r ganadigan fan<sup>6</sup> sifatida talqin qilinadi.

Ekologiya o'r ganadigan obyektlariga ko'ra, umumiy va xususiy ekologiyaga ajratiladi.

Umumiy ekologiya organizmdan yuqori turadigan har xil sistemalarning tuzilishi va funksiyasini o'r ganadi. U populyatsiyalar ekologiyasi, biotsenologiya, ekosistemalar ekologiyasi kabi bo'limlardan iborat. Populyatsiyalar ekologiyasi populyatsiyalarining strukturasi va miqdoriy dinamikasining umumiy qonuniyatları hamda har xil turlar populyatsiyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (raqobat, yirtqichlik)ni tadqiq qiladi. Biotsenologiya (hamjamoalar ekologiyasi) biotsenozlarning tuzilishi qonuniyatları, tarkibi va funksiyasini o'r ganadi.

<sup>6</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D0%BA%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>

Xususiy ekologiya muayyan taksonomik guruhga mansub organizmlarning muhit sharoitiga munosabatlari majmuini o‘rganadi (mas, hasharotlar ekologiyasi). Ba’zan xususiy ekologiyaga muayyan ekosistema va hamjamoani o‘rganadigan fan sifatida ham qaraladi.<sup>7</sup>

“Ekologiya” termini 1866 yil nemis olimi E.Gekkel tomonidan organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etilgan. Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII – XIX asrlarda yashagan naturalistlar va geograflarning ishlari bilan bog‘liq. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida tadqiqotchilar ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning organizmlarning tarqalishi va dinamikasiga ta’sir etishiga e’tibor berishdi. Ayni shu davrda organizmlarning bir butun majmui bo‘lgan tabiiy biotsenozlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Ekologiya XX asrning 20-30-yillarida jadal rivojlana boshladи. Bu davrda amerika zoologi CH.Elton populyatsiyalar va hamjamoalarni o‘rganishning asosiy vazifalarini ko‘rsatib berdi; italiyalik va amerikalik matematiklar V. Volterra va A. Lotka populyatsiyalarning o‘sishi, o‘zaro ta’sirining matematik modellarini taklif etishdi; rus mikrobiolog G.F. Gauze bu modellarni tajribada sinab ko‘radi. Xuddi shu davrda gidrobiologiyada tirik organizmlar orqali moddalar va energiya o‘zgarishini miqdoriy jihatdan o‘rganish boshlanadi. Bir-biri va notirik atrof muhit bilan o‘zaro bog‘langan organizmlar komplekslari to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi ingliz botanigi A. Tenslining «ekosistema» (1935) va rus botanigi V.N. Sukachevning “biogeotsenoz” (1940) tushunchalarining yaratilishi bilan bog‘liq.

XX asrning 50-yillarida umumiy ekologiya shakllanadi. Tadqiqotchilarning asosiy ishlari organizmlar va ular hosil qiladigan sistemalarning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratiladi. Ekologiya tadqiqotlarida miqdoriy metodlar keng tarqala boshlaydi; laboratoriya va tabiatda o‘tkaziladigan tajribalar hamda matematik modellashtirishlar keng qo‘llanila boshlanadi.

XX asrning 2-yarmida odamning biosferaga salbiy ta’siri kuchayishi natijasida ekologik krizisning yuzaga chiqishi va tabiatni muhofaza qilish ishlarini keng miqyosda amalga oshirish zaruriyatining tug‘ilishi bilan ekologiyaning amaliy ahamiyati keskin oshib ketdi. Ko‘pchilik tabiiy fanlarni “ekologiyalashtirish” boshlandi. Ekologiya bilan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va boshqa bir qancha fanlar o‘rtasida uzviy bog‘lanish paydo bo‘ldi.

<sup>7</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/ekologiya-uz/>

O'rta Osiyoda ekologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari bo'yicha D.N.Kashkarov, A.L.Brodskiy, T.3.Zohidov va boshqalar faoliyat olib borgan. D.N.Kashkarov umurtqali hayvonlarni o'rgangan va birinchi bo'lib, hayvonlar ekologiyasi darsligini yaratgan. A.L.Brodskiy tuproq umurtqasiz hayvonlarini, T.3.Zohidov Qizilqum umurtqali hayvonlarini ekologik jihatdan tadqiq qilgan. O'simliklar ekologiyasiga oid tadqiqotlar Q. Z. Zokirov, A. M. Muzaffarov, I . I.Granitov va ularning shogirdlari tomonidan keng miqyosda olib borilmoqda.<sup>8</sup>

Etakchi ekologlardan biri bo'lgan N.F.Reymers "ekologiya" ta'rifida mohiyatan beshta jihatini aniqlab ko'rsatib bergan.<sup>9</sup> Yuqorida aytilganidek, ekologiya tirik organizmlarning atrof-muhit va ularning o'zaro aloqalarini o'rganadigan biologiya fanlari o'zagidir.

Bolalar yoshining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning ruhiy va shaxsiy rivojlanishini inobatga olib, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida turli darajadagi biologik ekologiya bo'limlari yetarli bilim va uslublarini yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ekologiya (grekcha "oikos" - yashash, uy, makon, "logos" - ta'limot) -umumiylar tarzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma'noni anglatadi. Populyatsiyalar, turlar, biotsenozi, biogeotsenozi va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. Shuning uchun umumiylar ekologiya to'rt bo'limga bo'lib o'rganiladi: autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

1. Autekologiya ("autos" — yunoncha so'z bo'lib, "o'zi" degan ma'noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, ularning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.

2. Populyatsiyalar ekologiyasi ("populyatsion" — fransuzch so'z bo'lib, "aholi" degan ma'noni bildiradi) populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasini, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarish (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. Sinekologiya ("sin" — yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosini "birlikda" demakdir) biogeotsenozlarning tuzilishi va xossalari, ayrim o'simlik va hayvon turlarini o'zaro aloqasini hamda ularni tashqi muhit bilan munosabatini o'rganadi.

4. Ekotizimlarning tadqiq qilishning rivojlanishi biosfera haqidagi ta'limotni vujudga keltiradi.

<sup>8</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/ekologiya-uz/>

B.Ziyomuhamedovning ta’riflashicha, ekologiya terminining mumtoz ma’nosi ayrim hayvonot turlari va ular populyatsiyalarining hamda o’simliklar turlarining tashqi atrof-muhit bilan munosabatlari, ularning tadrijiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadigan ilm sohasi demakdir. Muhitning organizmni harakatlantiruvchi alohida tarkibiy qismlari (havo, yorug‘lik, issiqlik, suv, oziq-ovqat) ekologik omillar deb ataladi. A. S.To‘xtayev fikricha, “ekologik muhit deganda tirik organizmni o‘rab turgan fizik qurshov e’tiborga olinadi. Aniqroq so‘z borganda muhit tevarak-atrofdagi o‘zaro bog‘lanishlardagi shart-sharoitlar va ta’sirlar majmuidir (tabiiy va sun’iy muhit)”. Ekologik omil esa tirik organizmlarga to‘gridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi muhitning ayrim bir tarkibiy qismidir.

Biroq odamlarga moddiy ne’matlar ishlab chiqarishi uchun muayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bog‘laydigan, uning taraqqiyotiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadigan qismi atrof-muhit deb ataladi. Yerning ustki qatlami va yer osti boyliklari, iqlim va boshqa shu kabilar atrof-muhitni tashkil etadi. Atrof-muhit insonning moddiy ne’matlar ishlab chiqarish faoliyati uchun doimiy, abadiy va zaruriy shart-sharoitdir. Ayniqsa, insonning tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshiradi.

Tirik organizmlarning ma’lum bir muhitda yashash qonuniyatlarini, ya’ni organizmlarning o‘zaro va ularni o‘rab turgan atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan hayot tarzini o‘rganadigan fan ekologiya deb ataladi .

Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bo‘layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o‘rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, echish yo‘llari, chora-tadbirlarini topish yetarli ekologik bilimlarga ega bo‘lgan holda atrof muhit muhofazasini amalga oshirishdir. Ekologik ta’lim tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari; ular o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash;

2. Ijtimoiy-iqtisodiy rejalshtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo‘naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tayyorlash;

3. Har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o‘zları yashab turgan tabiat, uning boyliklarni saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni etishtirish;

4. Jamiyat a'zolariga o'zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda yashab turgan joy, vodiy, adirlar, tog'larning go'zalligi, ularning inson hayoti va saloamatligidagi ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, maktab va o'quv yurtlari o'quvchilari, turli o'yinlar, kinofilmlar orqali tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'tishda o'zları yashab turgan joydagi tabiiy voqelik va ekologik holatlarga bog'lab, ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi hamda darslar o'tishi kerak.

## **2.Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik ta'lim berishda zamonaviy yondashuv.**

Ekologik ta'lim tarbiyaning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birgalikda ko'plab mamlakatlarda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir<sup>10</sup>.

Umuman, tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta'lim – tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo'llash, ekologik tarbiyani rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta'lim - tarbiyaning barcha yo'nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg'un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Ma'lumki, davlatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy farovonlik va yurt taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ko'plab hukumat qaror, farmon, farmoyish, Nizomlari ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda Respublikada "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiysi" yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2915-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 noyabrda "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 958-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15

---

<sup>10</sup> <http://ekolog.uz/?p=668>.

yanvarda 29-son qaroriga asosan “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 mayda “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi 434-sonli qarorlari ishlab chiqilgan. Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi asosiy vazifalar atmosfera havosi, suv va yer resurslarining ifloslanishini kamaytirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilg‘or xorijiy texnologiyalar va innovatsiyalarni moslashtirish va amaliyatga tatbiq etish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha talab va standartlarni ishlab chiqish kabilar belgilangan.

Maktabgacha ta’limda “Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish”ga doir yangi qarorlarning asosiy maqsadi amaldagi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish orqali tarbiyalanuvchilarni MTTda tabiat bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik madaniyatli qilishning ilk qadamlarini singdirishdir.

**Ekologik ta’lim** ekologik ma’rifatning asosiy jihatni bo‘lib, o‘qitish va o‘qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o‘tkazilishidir. Ekologik ta’lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi.

**Ekologik tarbiya** – shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishga qaratilgan pedagogik faoliyat va jarayon.

**Ekologik ong** – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va xatti-harakatini tartibga solib turadigan ruhiyatning oliy shakli.

**Ekologik faoliyat** – esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

**Ekologik madaniyat** – shaxs yoki jamiyatning mavjud tabiatning tabiiy, atrof-muhitning esa sanitariya holatini muhofaza qilish yo‘lida mavjud axloqiy-ekologik me’yor, talablarga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Bolalar yoshining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning ruhiy va shaxsiy rivojlanishini inobatga olib, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida turli darajadagi biologik ekologiya bo‘limlari yetarli bilim va uslublarini yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 mayda “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiysi

to‘g‘risida”gi 434-sonli qarorining 3- bobida mazkur tizimga ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha 11 ta vazifa belgilanib olingan. Jumladan:<sup>11</sup>

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida birinchi navbatda ushbu ta’lim turi uchun belgilangan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqiladi, dasturda bolalarda ona tabiatni asrab-avaylash borasidagi ilk tasavvurlarni uyg‘otishga hamda uni asrab-avaylash, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi mavzularni ko‘paytirishga e’tibor qaratiladi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalda bo‘lgan davlat o‘quv dasturda belgilangan ekologik ta’limga oid mavzular va amaliy mashg‘ulotlarni to‘laqonli tashkil etish maqsadida “Ekolog bolajon” dasturi ishlab chiqiladi va amaliyatga joriy etiladi.

3. Ta’lim dasturlari o‘rta, katta va maktabgacha tayyorlov guruhlari uchun jonsiz tabiat (o‘simliklar dunyosi), jonli tabiat (hayvonot dunyosi) hamda sayrda bo‘lib o‘tadigan jonsiz va jonli tabiat tushunchalarini uyg‘otishga yo‘naltiriladi. Bunda, mavzularni qayta belgilashda yer yuzida, shu jumladan, yurtimizda yo‘qolib borayotgan va kamyob turdagи o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda ularni asrab-avaylash masalasiga alohida urg‘u beriladi.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim dasturlarini atrof muhitni muhofaza qilish va atrofimizdagi olamni toza saqlash, shu jumladan, maishiy chiqindilardan tozalash kabi tushunchalar bilan boyitib boriladi.

5. Har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti ekologik burchaklar tashkil etish hamda ularni zarur materiallar bilan ta’minalashni asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab oladi.

6. Maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyalanuvchilarning ekologik ongi ularning ko‘ziga yaqqol tashlanadigan atrof tabiiy muhit (yer, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) bilan “Ona tabiat” mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari o‘tkazish, rasmlar chizdirish, atrof olam haqidagi she’rlarni yod oldirish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi o‘yinlarni tashkil etish orqali shakllantiriladi.

7. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 21-mart -Navro‘z bayrami, 1-aprel - Xalqaro qushlar kuni, 15-aprel - Ekologik bilimlar kuni, 22-aprel - Xalqaro Yer kuni, 5-iyun - Butunjahon atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish kuni kabi ekologik sanalarga bag‘ishlab ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.

---

<sup>11</sup> O‘zR Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 27 mayda “O‘zRda ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi 434-sonli qarori 3- bob.

Shuningdek, muhim ekologik sanalarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagoglari uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqiladi.

8. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ekologik yo‘lakchalar” tashkil etiladi, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o‘simlik va hayvonlar haqidagi dastlabki tushunchalar tarbiyalanuvchining ongiga singdiriladi, muhofaza qilinadigan o‘simlik va hayvonlar rasmlarini chizish orqali tarbiyalanuvchilarda dastlabki ekologik bilimlar shakllantiriladi.

9. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun talablar asosida tarbiyalanuvchilarni atrof muhit, tabiat bilan tanishtirish masalalarini qamrab olgan “Ilk qadam” davlat o‘quvdasturida belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi orqali amaliyotga joriy etiladi.

10. Tarbiyalanuvchilar uchun ona tabiatni asrab-avaylash va ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini kuchaytirish mavzusida turli teatrlashtirilgan tomoshalar va sahna ko‘rinishlari tashkil etiladi.

11. Tarbiyalanuvchilarda ona tabiatga nisbatan mehr hissini uyg‘otish, ularning ekologik tarbiyasini yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining roli yanada kuchaytiriladi.

Ushbu vazifalarni amalgalama etish uchun 2019 yil 6 avgustda Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining **MTTda ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish chora- tadbirlari** bo‘yicha qarori qabul qilindi.

Dunyo tajribasidan foydalanish va bunday noekologik ta’limni bartaraf qilish maqsadida yuqorida qayd qilingan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan qabul qilingan qo‘shma qarorda MTTda **ekologik ilmni yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi chora- tadbirlarni amalga joriy etish** masalasi qo‘yilgan<sup>12</sup>:

✓ Davlat ta’lim talablari va ta’lim dasturlariga ekologik ta’lim-tarbiya yo‘nalishida ilg‘or milliy va xorijiy tajribani o‘rganish va ular asosida bolajonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlarini belgilash;

---

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (MTV ) hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2019 yil 6 avgustda «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlari» bo‘yicha 7/1 va 6-sonli qo‘shma qarori.

- ✓ “Davlat ta’lim standartlari” va o‘quv dasturlari mazmunini bolajonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish va qo‘srimcha indikatorlarni belgilash;
- ✓ dasturda ona tabiatni asrab- avaylash, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi mavzularni ko‘paytirish;
- ✓ mактабгача та’лим музассаларининг “Ekoliya burchaklari” namunalarini ishlab chiqish va tasdiqlash; mактабгача та’лим музассаларининг tasdiqlangan namuna asosida “Ekoliya burchaklari”ni tashkil etish.
- ✓ “Ilk qadam” tayanch dasturida ko‘zda tutilgan ekologik ta’limga oid mavzular va amaliy mashg‘ulotlarni to‘laqonli ravishda tashkil etish maqsadida “Ekolog bolajon” dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
- ✓ rahbar va mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslariga “Ekoliyaning dolzarb muammolari”ga bag‘ishlangan ustuvor modullarni joriy qilish va u.k.

Mактабгача та’limda mazkur qo‘shma qarorning asosiy vazifasi - 2018 yildan amalda bo‘lgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturlarida bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni *ekologik ilmli* qilish kerakligi uqtirilgan. Bu degani, bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish davomida ularni kundalik hayotida uchraydigan mahalliy atrof-muhitdagi ekotizimlarni (yashash: joyi, makoni, uyi) muhofaza qilish, undagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning buzilganlarini qayta tiklashda kerak bo‘ladigan ma’lumotlarga ega qilishlik vazifasi yuklatiladi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularni Ona Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, moddiy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylashga, atrof-muhitni toza va ozoda saqlashga o‘rgatishga oid ularda bilim, ko‘nikmalarni tarkib toptirish juda muhimdir.

Bolalarda ilk yoshdanoq inson va tabiat, ularning bir-biriga nisbatan ta’sir ko‘rsatishi, uyg‘unligi haqidagi bilimlarni berish – bugungi kunda mактабгача та’lim tashkilotlari o‘quv-tarbiyaviy jarayonining muhim vazifasi sanaladi.

Kuzatishlar, kattalar va bolalar uchun bilimlar tizimi sifatida ekoliyaning nazariy tushunchalari va ulardan foydalanish assoslari, ya’ni mактабгача yoshdagi bolalarni ekologik yondashuv asosida tabiat bilan tanishtirishning yangi mazmunini aks ettirish lozimligini ko‘rsatadi.

Bunda nazariy ma’lumotlarning ikki tomonlama vazifasini ko‘rish mumkin:

- maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkilotlari, tarbiyachilarining ekologiya to‘g‘risidagi ilmiy bilimlarini shakllantirish;

- tarbiyalanuvchilar uchun ekologik bilimlar hosil qilish tizimini ishlab chiqish.

Bunda ekologik tushunchalarning qay biri ahamiyatli va ekologik tarbiya tizimini asosini tashkil etishi mumkinligini aniqlash muhimdir.

### **3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim tarbiyaning mazmun mohiyati.**

Insonni o‘rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go‘zalligiga hissa qo‘sadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish ekologik tarbiyaning maqsadi hisoblanadi.

Odatda, ekologik tarbiya ekologik ta’lim orqali kirib keladi va u ekologik madaniyat bilan baholanadi. Chunki, zamonamizda yuksak ekologik ma’naviyatli (mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion jihatdan shakllangan) va ma’rifatli (ilmiy va ijodiy ustuvorlik ruhida tayyorlangan) jismoniy shaxsgina ekologik ta’lim orqali olgan kompetensiyalarini madaniyat ko‘rsatgichlariga olib chиqa oladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ekologik ta’lim va tarbiya ajralmas va yagona tizimda turuvchi vositalar majmuasidir.

Falsafiy ta’limot nuktai nazaridan olganda ekologik ta’lim metodologiyasi - real ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy- ma’rifiy, iqdisodiy, ekologik vaziyatda ekotizimlarda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy holat, jarayon va hodisalar haqida bilim, ko‘nikma va malaka berishga yaratilgan metodlarni tanlash va tizimlashtirish. Metodologiyaning kengrok falsafiy ma’nosiga ko‘prok yondoshish orqali O‘zbekistonda maktabgacha ekologik ta’lim metodologiyasida quyidagi talablarni bajarish lozim:

- ekologik ta’limga oid tatsitsotlarni muayyan ekotizimlar (bolajonlarning yashash makoni) doirasida olib borish;

- metodlarni tanlash va ularni tizimlashtirishda amaldagi uutsutsiy, ijtimoiy, itstisodiy, siyosiy, ekologik, ma’naviy- ma’rifiy va texnologik sharoitlardan kelib chitsish;

- respublikaning tabiiy va ma’muriy uududiy farslanish xususiyatlarini inobatga olish;

- tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy uolat, votsea, jarayon va uodisalarni tadsits silish;

- ekologik ta’lim va tarbiyaning uziga xos tadsitsot metodlarini ishlab chitsish;

- ilmiy bilish metodlarini real sharoitdan kelib chitssan uolda tizimlashtirish.

Ekologik ta’lim metodologiyasida ijtimoiy sharoitni inobatga olishda tadqiqotlarni ijtimoiylashuviga, ya’ni inson tomonidan jamiyatda yashash imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o’zlashtirilishini inobatga olish kerak<sup>1</sup>.

Maktabgacha yoshdagি bolalarda ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish bilan bir qatorda, madaniy-ma’rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan: ommaviy axborot vositalaridan, og‘zaki, ko‘rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki ekologik targ‘ibot aholining muayyan toifalari ongiga ta’sir etib qolmay, balki bog‘cha yoshidagi boladan tortib, aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi, hammaga tushunarli, ko‘rgazmali va oshkora bo‘lishi lozim. Tabiat, yer, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida xabarlar berish bilan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan e’zoz uyg‘otib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasida ekologik ta’lim-tarbiya beshigi rolini o’tashi lozim..

Bolaga ekologik ta’lim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o’zlashtirishdan iboratdir.

Bolaga ekologik tarbiya - bu bolani tabiatga qadam qo‘ygan vaqtдан boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘u-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir.

Ekologik ta’lim va tarbiyaning tub ma‘nosi - tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog‘luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

### **Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiyaning maqsadi:**

Mahalliy sharoitda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish uchun tarbiyalanuvchilarni yuksak ma’naviyatli inson qilib tayyorlashning boshlang‘ich (bazaviy) tarbiyasini yo‘lga qo‘yish.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> Askar Nigmatov“Maktabgacha ekologik ta’lim” darslik 2020 y46-47 betlar.

## **Ekologik ta’lim va tarbiyaning maqsadlaridan kelib chiqqan tarzda mактабгача та’лим тизимига quyидаги vazifalar yuklatiladi:**

- MTTda ekologik ta’lim va tarbiyaning hozirgi holatini o‘rganish;
- mактабгача ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilish va uni milliy ta’lim tizimiga ilmiy asosda joriy qilish (implementatsiyalash) mexanizmini mahalliy sharoitdan kelib chiqqan tarzda amalga oshirish;
- ekologik ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xos metodologik hamda metodik asoslarini ishlab chiqish va amalda sinab ko‘rish;
- MTTda ekologik ta’lim va tarbiya tajriba-sinov bo‘yicha anik pilot o‘quv muassasalarini belgilash;
- pilot muassasalarda seminar-treninglarni tashkil etish;
- tajriba natijalarini metodologik jihatdan tahlil qilish va unga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritib borish;
- mактабгача ekologik ta’lim va tarbiyaga doir to‘garaklar, ko‘rsatuвлar hamda Internet portallari va veb-saytlarni yaratish;
- MTTdagi to‘garaklarida ekologik ta’lim va tarbiyani tashkil etishning metodik shakllarini ishlab chiqish hamda unga oid bolalarga mos adabiyotlarni nashr etish;
- mактабгача ta’lim bosqichida, zamonaviy axborot texnologiyalarini (masalan, infografik multimedia vositalarini) qo‘llagan tarzda ekologik ta’lim va tarbiyaning mazmun hamda mohiyatiga doir ilmiy, ilmiy-amaliy, amaliy tadqiqotlarni olib borish va h.k.

## **Ekologik ta’lim va tarbiya orqali bolajonlarda:**

- koinotdagi yagona hayot mavjud bo‘lgan yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar;
- yashash makoni haqidagi bilimlar;
- tabiat va jamiyatning uzviy bog‘langanligi haqidagi dunyoqarashlar;
- o‘z o‘lkasi va respublikamizning o‘ziga xos ajoyib tabiat, ularning paydo bo‘lishi va evolyutsion rivojlanishi, antropogen o‘zgarishi, makon va maydon bo‘yicha tarqalishi haqidagi bilimlar;
- undan kelib chiqadigan xususiyatlar, boyliklar, holat, kelajak istiqbol haqidagi tasavvurlar;
- milliy, regional va global miqqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlарining uzviy bog‘liqligi to‘g‘risidagi tasavvurlar;
- atrof-muuitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid bilim va ko‘nikmalar;
- ekologik muammolarni anglash va to‘g‘ri harakatlanish kabi

xislatlar yuzaga keltiriladi.<sup>14</sup>

**Bular maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarini ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:**

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy yo'llar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday bo'lsa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar.

**Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ekologik tarbiya yo'naliishlari ham turli xil bo'ldi. Quyida ularning ba'zilari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklari tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z o'quv tashkilotini va uning tevarak-atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda o'quv tashkilotlari va oila o'rtasidagi umumiylilik va xususiylik.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.
11. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-onal ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.
12. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oiladagi, o'quv tashkilotidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

---

<sup>14</sup> Askar Nigmatov "Maktabgacha ekologik ta'lif" darslik 2020 y 48-bet

13. Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf-odatlarni tiklashga e'tibor qaratish.

MTTda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish **bolajonlarni** tabiat bilan tanishtirish davomida ularni o'rabi turgan **mahalliy sharoitdagi atrof tabiiy muhiti** - ekotizimlarni (yashash joyi, makoni, uyini) muhofaza qilish, undagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning buzilganlarini qayta tiklashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarga ega qilish vazifasi yuklatiladi.

Amalda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" 802-sonli Qarorining 2-ilovasi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturida maktabgacha yoshdagи bolalarni tabiat bilan tanishtirish, atrofdagi olam bilan tanishtirish, eksperimentlar amaliy tajribalarning miqdori ko'rsatilgan.

### **3-yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan faoliyatlar miqdori**

№ t/r	Mashg'ulotlarnomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynid a	Oy mobaynid a	O'quv yili mobaynid a	Hafta mobaynida	Oy mobaynid a	
1	Atrofdagi olam bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12
	Eksperimentlaramaliy tajribalar						
2	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	O'yinlar viktorinalar	1	3
Ja mi		2	4	72	2	5	15

**4-yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan faoliyatlar miqdori**

№ t/r	Mashg‘ulotla r nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynid a	Oy mobayn ida	O‘quv yili mobayni da	Hafta mobaynida	Oy mobay -nida	
1	Atrofdagi olam bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12
	Eksperimentl ar amaliy tajribalar						
2	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	O‘yinlar viktorinalar	1	3
Jam i		2	4	72	2	5	15

**5- yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan faoliyatlar miqdori**

№ t/r	Mashg‘ulotlar Nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynida	Oy mobay- nida	O‘quv yili mobaynida	Hafta mobaynida	Oy moba ynida	
1	Atrofdagi olam bilan tanishtirish	2	8	72	1	4	12
	Eksperimentla r Amaliytajribal ar						
2	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12
	Jami	3	12	108	2	8	24

**6- yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar miqdori**

№ t/r	Mashg‘ulotlar nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynida	Oy mobay nida	O‘quv yili mobaynida	Hafta mobayn ida	Oy mobayni da	
1	Atrofdagi olam bilan tanishtirish	2	8	72	1	4	12
	Eksperimentlar amaliy tajribalar						
2	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12
	Jami:	3	12	108	2	8	24

#### **4.Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablar.**

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o‘z ishlariga ma’suliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan savobli ishlarni qila oshilariga bog‘liq. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma’suliyatli vazifalarni bajaradi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga ta’lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o‘z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o‘sishga ko‘maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo‘lishi kerak.

#### **Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar.**

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqlishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb

egalaridan ajratib turiladi. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o‘z predmetini, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro‘sini ko‘taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan muhim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo‘la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqlaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo‘la olmaydi.

Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Pedagog tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, o‘qituvchiga bolalarga chinakam ma’naviy murabbiysi bo‘lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog‘liqdir.

Pedagogik qibiliyatlar - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qibiliyatlar tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qibiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi.

Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san’atidir.

### **Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish.**

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma’lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan kishi bo'lishi kerak.

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobjiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi kerak.

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtirib savollardan foydalanishi kerak.

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalg qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak.

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak.

6. Kun tartibini to'g'i tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish.

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim.

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak.

9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi kerak.

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-soni Maktabgacha talim va tarbiya Qonunining, 42-moddasida pedagogning kasbiy standarti belgilangan<sup>15</sup>

Ish beruvchilar tomonidan pedagogning kasbiy standarti:

- ❖ kadrlar siyosatini shakllantirish;
- ❖ pedagog kadrlarni ishga qabul qilish;
- ❖ mehnat shartnomalarini tuzish;
- ❖ lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish;

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha talim va tarbiya Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-soni 42-modda

- ❖ mehnatga haq to‘lash;
- ❖ pedagoglar o‘qishini tashkil etish;
- ❖ maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarini attestatsiyadan o‘tkazish chog‘ida qo‘llaniladi.

Pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda talablar bilan to‘ldirilishi mumkin.

Pedagogning kasbiy standarti pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko‘nikmalaridan ajralmas bo‘lgan talablar qo‘yadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Pedagogning malaka toifasi pedagogning kasbiy standartiga muvofiq beriladi.

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ekologik tarbiyasi, birinchi navbatda, bolaning atrof-muhitga, yer, suv, o‘simplik, hayvonot olamiga ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Bolalarni tabiatni sevishga va himoya qilishga o‘rgatish, tabiiy boyliklardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Biroq, ekologik tarbiyani amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili, bu boradagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Bularni bartaraf etish uchun ekologik tarbiya va mas’uliyatni rivojlantirish lozim va ekologik tarbiyani maktabgacha talim tashkilotlaridan boshlash kerak, chunki, bu davrda olingan bilim kelajakda kuchli ishonchga aylanishi mumkin.

Buning uchun esa maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ekologik tarbiya berish uchun tarbiyachilaridan tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zaxiralariga ega bo‘lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izohlay olishlari talab etiladi.

Shunga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ish faoliyatini olib borayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqealari, hodisalar haqida to‘g‘ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta’lim- tarbiya berishdek muhim

vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o‘zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Bolalarda tabiatga faol va ehtiyyotkorona munosabatni tarbiyalash maktabgacha ta’lim tashkilotida mavjud bo‘lgan hayvon va o‘simpliklarni oziqlantirishga yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil eta olish, o‘simplik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Bundan tashqari u maktabgacha ta’lim tashkiloti maydonchasi va tabiat burchagida o‘simpliklarni sug‘orish va hayvonlarni boqishning agrotexnik usullarini egallay olishi lozim.

Tarbiyachining namunasi bolalarda mehnat ko‘nikmalarini tarbiyalashda hal etuvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida tarbiyachining o‘zi tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olishi va tabiatda go‘zallik yaratish ishtiyoqiga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Zarur bilim va ko‘nikmalarini egallab qolmasdan, tabiat bilan tanishtirish shakl, metod va vositalaridan foydalana olishni ham o‘zlashtirishi talab etiladi.

Umuman olganda, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etishi zarur:

- 1) jonli va jonli tabiat haqida aniq bilimlar berishi, ularning o‘zaro aloqadorligini ochib berishi;
- 2) inson organizmi va uning salomatligi haqida ma’lumot berishi;
- 3) maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatishga doir xulq-atvor ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- 4) tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan inson mehnat faoliyati bilan tanishtirish;
- 5) Ona-tabiatga muhabbat, uning asrab-avaylashga doir ishtiyоqni tarbiyalash.

Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haqidagi bilimlarini to‘g‘ri rejallashtirishi, yer maydonchasidagi o‘simpliklar, tirik burchakdagi xona o‘simpliklari, akvariumda, terrariumda yashovchilarni parvarish qilish ko‘nikmalarini, qafasdagи qushlar va mayda sute Mizuvchilar bilan tanishtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o‘rganib, - ular haqida dastlabki

tushunchalar beradi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Ekologiya qanday fan?
2. Umumiy ekologiya nimani o‘rganadi?
3. Xususiy ekologiya nimani o‘rganadi?
4. Umumiy ekologiyaning bo‘limlarini ayting?
5. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni

rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi 434-sonli qarori qachon ishlab chiqilgan?

6. Ekologik ta`lim nima?
7. Ekologik tarbiya nima?

8. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish jarayonida qanday vazifalarni hal etishi zarur?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



#### **1. Populyatsiyalar ekologiyasi nimalarni tadqiq qiladi?**

a) organizmdan yuqori turadigan har xil sistemalarning tuzilishi va funksiyasini o‘rganadi.

b) populyatsiyalarining strukturasi va miqdoriy dinamikasining umumiy qonuniyatlari hamda har xil turlar populyatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari (raqobat, yirtqichlik)ni tadqiq qiladi.

d) biotsenozlarning tuzilishi qonuniyatlari, tarkibi va funksiyasini o‘rganadi.

#### **2.Umumiy ekologiyaning bo‘limlari qaysilar?**

a) autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

- b) Xususiy va populyatsiyalar ekologiyasi  
d) biosfera, gidrosfera

#### **3. “Sinekologiya” so‘zining ma`nosi nima?**

- a) yunoncha so‘z bo‘lib, “o‘zi” degan ma’noni bildiradi  
b) fransuzcha so‘z bo‘lib, “aholi” degan ma’noni bildiradi

**d) yunoncha so‘z bo‘lib, uning ma’nosi “birlikda” demakdir**

**4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 yanvarda 29-son qaroriga asosan qaysi Nizomi ishlab chiqildi?**

**a) “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risida”**

b) “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”

d) “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

**5. Ekologik ta’lim va tarbiyaning tub ma’nosi nima?**

a) bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘urog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir.

b) bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

**d) tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog‘luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.**

**Mavzu bo‘yicha metod.**

**FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring.

Jadvalni to‘ldiriladi

Savol

Nima uchun bolalarga ekologik ta’lim va tarbiyani erta yoshdan boshlashi zarur?

(F) Fikringizni bayon eting

S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

(U) Fikringizni umumlashtiring

## **4-MODUL: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISHDA VIZUAL TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**



**Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali,  
og'zaki, kuzatish, amaliy metodlar  
foydalanishning mohiyati**

### **Reja:**

1. Tabiat bilan tanishtirishda qo'llanadigan ko'rgazmali metod.
2. Amaliy metod va uning turlari.
3. Tabiat bilan tanishtirishda og'zaki metod.

**Tayanch tushunchalar:** *kuzatish, usul, amaliy usul, kuzata-bilish, o'simlik, hayvonlar, tarqatma materiallar, o'yin, mehnat, sayr, suhbat.*

### **1. Tabiat bilan tanishtirishda qo'llanadigan ko'rgazmali metod.**

Pedagogikada metod — pedagog va ta'lif oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lif-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirishda axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniadi.

### **Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:**

Ko'rgazmali uslub: (Kuzatish)

Amaliy uslub

Og'zaki uslub

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiatini, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

### **Tabiat bilan tanishtirishning ko'rgazmali metod.**

Kuzatish atrof - olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi, malakalari muhim ahamiyatga ega.

## KO'RGAZMALI METOD.

Kuzatish	Rasmlarni ko'rish, Diafilm, kinofilm, tarqatma matrealar ekskursiyalar;
Uzoq muddatli, qisqa muddatli, solishtirma	ta'limiy voqealarni band Texnik vositalar rasmlari predmetli rasmlar, urug'lar mevalar burglar

Predmet va hodisalarining xususiyati va sifatlari haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri ular chiqadigan tovushlarni ham o'rganadigan va x.k.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning yoritilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi uzoq, muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Kuzatish predmetining ayrim belgisiga ko'ra uning holatini aniqlash, ayrim belgilarga ko'ra yaxlit manzarani tayyorlash, maqsadida ham tashkil etilishi mumkin.

Kuzatishning yana bir turi solishtirib kuzatishdir. Kuzatishning bu turi o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi Solishtirma kuzatishda bir turdag'i o'simlik yoki hayvonlarni kuzatiladi. Ya'ni, masalan, pishgan meva bilan xom mevani, yorug'likda o'sgan o'simlik bilan soyada qorong'ulikda o'sgan o'simliklarni o'zaro solishtirib kuzatish. Tarqatma materiallardan foydalanib, kuzatishlar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Bu kuzatish bitta obyektni kuzatishdan murakkabdir. Bu o'rinda tarbiyachidan o'z diqqatini taqsimlash, barcha bolalar harakatini uyushtira olishi talab etiladi, bolalar esa tarbiyachining barcha topshiriqlari ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari, tengdoshlarni tinglashlari va quloq solishlari, boshqalarning kuzatishlari bilan taqqoslashlari va qiyoslashlari kerak. Kuzatishlarni tashkil etishning katta ahamiyati bor. Barcha bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishida mashqlarni o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bolalarda aniq tasavvurlar shakllanadi.

Tarqatma material sifatida o'simliklar va ularning qismlaridan foydalanish mumkin. Kuzatishda ishtirok etuvchi har bir bola material to'plamini qo'liga oladi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga savollar beradi. Olingan tasavvurlar qiyoslanadi. Tarbiyachi bolalarni xulosa chiqarishlariga ko'maklashadi.

Kuzatishlarda tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning yuqori faoliyatini ta`minlaydi. Ko‘rgazmali metoddan guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni ko‘rish diapositiv va kinofilmerni namoyish qilish ham kiradi. Bu metodlar foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga, tasavvurlarni aniqlash va bilimlarini tizimlashtirish, umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi. Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq ko‘rish, diqqatni uzoq muddat shu predmetga qaratish imkonini beradi, buni esa ko‘pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi va o‘zgaruvchanligi tufayli amalga oshirilishining imkoni bo‘lmaydi. Bundan tashqari ko‘p hodisalarini bevosita kuzatish mumkin emas. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta`limiy, voqeaband predmetli, shuningdek badiiy rasmlardan foydalaniladi. Ta`limiy, voqeaband predmetli rasmlar bolalarni o‘qitishda ko‘rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir. Rasmlardan foydalanishdan maqsad bolalarda tabiatga nisbatan estetik munosabatni tarkib toptirishdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishida kitob jadvalidan ham foydalaniladi. Qo‘yilgan maqsadlarga ko‘ra kitoblarga illyustratsiyalarni ko‘rish turlicha o‘tkaziladi, ya’ni illyustratsiyalarni ko‘rishdan oldin, o‘qish davomida va himoya so‘ngida namoyish etish mumkin. Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diapositiv diafilm, kinofilm, telefilmlardan foydalaniladi. O‘quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: o‘simlik, hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi - kattalarning mehnati haqidagi tasavvurini shakllantiradi, qisqa muddat ichida uzoq vaqt bo‘lib o‘tgan hodisalarini ko‘rsatish imkonini yaratadi. Filmni ko‘rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog‘liq suhbatlar, ekskursiyalar o‘tkaziladi, kitoblarni o‘qish tashkil etiladi. Bevosita filmlarni ko‘rsatishdan oldin bolalar yo‘llanma beruvchi suhbat o‘tkazilib unda bolalarga filmini ko‘rayotganlarida e`tibor berishlari lozim bo‘lgan topshiriqlar beriladi film ko‘rib bo‘lganidan keyin muhim joylarini ajratib ko‘rsatishga yo‘llangan suhbat o‘tkaziladi. Maktabgacha kichik yoshdagilar uchun ovozsiz filmdan foydalanish ma`qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi. Film so‘ngida kichkintoylar bilan maxsus suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.

## **2.Amaliy metod va uning turlari:**

AMALIY METOD		
Tabiatdagi mehnat	O‘yin	Oddiy tajribalar
Tabiat burchagi	Predmetli	Eksptent
Yer maydonchasi	2.Stol-bosma.	
Navbatchilik	3.Didaktik	

#### 4. Harakatli 5. Ijodiy oyn

Bolalar tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari shakllantiradi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan mas’uliyatni his etib yondoshishni tarbiyalaydi. Bolalar o‘simplik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan mas’uliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari o‘z mehnatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Mehnat jarayonida bolalar o‘simpliklar holati ularning yorug‘likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishiga bog‘liq ekanligini anglab oladilar. Bolalar muhitning o‘zgarishi qonuniy tarzda o‘simpliklar holatini o‘zgartirishni bilib oladilar. Bu aloqa va o‘zaro munosabatlarning egallab olinishi bolaning mehnatga bo‘lgan munosabatiga ham ta`sir etadi, mehnat ancha ongli va maqsadga yo‘llangan holda olib boriladi. Bolalarda mehnatga barqaror qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o‘stirishning usullaridan biridir. Bolaning tabiatdagi mehnati yakka topshiriq shaklida va kollektiv mehnat tarzida tashkil etiladi.

Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda turli o‘yinlardan keng foydalaniadi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradi, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirshda ta`limiy, harakatli, ijodiy o‘yinlardan foydalaniadi.

Ta`limiy o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o‘simplik haqida mavjud bo‘lgan bilimlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradi. Predmetli o‘yinlar - barglar, urug‘lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o‘ynaladigan “ajoyib qopcha”, “mevalar va ildizlar” va hakozolar. “Stol bosma” o‘yinlari – “Zoologiya lotosi”, “Botanika lotosi”, “Barglarni terib ol» va hokozolar. Harakatli o‘yinlar tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o‘yinlar, hayvonlarning harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ba`zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Bular “Ona tovuq va jo‘jalar”, “Mushuk va sichqonlar”, “Quyosh va yomg‘ir”. “Bo‘ri va quyonlar” va hokazolar. Ijodiy o‘yinlarda bolalar mashg‘ulot ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olgan taassurotlarini aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimini egallaydilar, bunda ularga mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi.

Bolalar predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqa hamda munosabatlarining sabablarini aniqlashlari uchun oddiy tajribalardan foydalaniladi. Tajriba maxsus tashkil etilgan sharoitda o‘tkaziladigan kuzatishdir.


Tajribalardan o‘yin, mehnat yoki maxsus mashg‘ulotlar jarayonida paydo bo‘lgan bilim vazifalarni hal qilish usuli sifatida foydalaniladi.

Tajriba shartining muhokamasi tarbiyachi rahbarligi ostida o‘tadi. Tajribaning hamma shartlari tenglashtirilishi va faqat ulardan bittasi tajribaning natijasiga ta`sir etadigani alohida ajratilishi, bolalarga ko‘rsatilish hamda ular tomonidan tushunilishi lozim. Tajriba uzoq, muddatli qiyoslanadigan yoki qisqa muddatli kuzatish tarzida o‘tkazilishi mumkin. Uzoq, muddatli qiyoslanadigan kuzatishda natijalar kechiktirilganligi tufayli tajribaning ayrim alohida xarakterli bosqichlarini rasmiy jadvallarda qayd qilish lozim.

Tajribalarni tashkil etish jarayonida tirik obyektlarni halok bo‘lishiga olib kelmaslik, ularning hayotiy muhim ko‘rinishlarini buzmaslik kerak. Shuning uchun ham sezilarli o‘zgarishlar paydo bo‘lishi bilanoq sharoitni darhol o‘zgartirish kerak.

### 3.Tabiat bilan tanishtirishda og‘zaki metod:

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o‘qishlardan suhbatdan foydalaniladi. Og‘zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagи mehnat jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi. to‘ldiriladi, umumlashtiriladi, hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, og‘zaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.



Og‘zaki metodlardan foydalanish bir qancha vazifalarni hal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmati shu bilan aniqdanadiki, u ma‘lum ta`limiy vazifalarni hal etar ekan, maktabgacha yoshdagи bolalarning

tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma`lum yoshdagi guruh bolalariga mo`ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o`qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutqini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi og`zaki tasnif asosida yetarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqeahodisalarning bir-biriga bog`liqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o`zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab ko`rishi lozim.

Bularning barchasini tarbiyachi tabiat haqidagi hikoyasiga bo`lgan talablarni belgilaydi. Tilni jonliligi, obrazliligi, aniqligi tarbiyachining hikoyasiga qo`yiladigan mutloq talabdir.

Hikoya uchun tarbiyachi xil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlari, ajoyib kishilarining hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar va hikoyalar ilmiy materiallardan foydalaniladi.

Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish suhbatni va yakuniy suhbatga bo`linadi.

Kirish suhbatni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo`llaydi. Maqsad bo`lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o`rtasida aloqa o`rnatish maqsadida bolalarni bilimini aniqlashdir. Kirish suhbatni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo`llaydi. Maqsad bo`lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o`rtasida aloqa o`rnatish maqsadida bolalarni bilimini aniqlashdir.

Yakuniy suhbat bilib olingan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo`naladi. Suhbatning samarali bo`lishi bolalarni oldindan qanday tayyorlanganligiga bog`liq. Suhbat - bu ular bilan o`tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, o`yinlar, tabiatshunoslik, kitoblarini o`qish, hikoyalar orqali tasavvurlar hosil qilish vazifasi turadi. Tarbiyachi doimo suhbatni ta`limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi kerak. Suhbat hodisa, dalillarni tahlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalar o`rtasida muhim aloqa va munosabatlarni ta`kidlashdan boshlanadi. Bunday tahlil umumlashtirishga o`tishni ta`minlaydi, tarqoq dalillarni tizimga soladi. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida o`rta, katta, tayyorlov guruhlarida qo`llaniladi.

Bolalar adabiyotida tabiat turlari badiiy vositalar yordamida ifodalanidi. O`z mazmuniga ko`ra ilmiy bo`lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtida san`atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi tabiat kitobidan pedagog birinchi navbatda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanadi. U san`atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta`sir etadi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni kuzatuvchanlikni bilimga bo‘lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo‘yadi. Bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan o‘rashga majbur qiladi. Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy vosita sanaladi.

Badiiy adabiyotda berilgan barcha voqealari hodisalar hayotiy, jonli qilib berilishi lozim. Shundagina bola shu asar qahramonlariga ishonadi. Bolalar bog‘chasi tarbiyachisi esa o‘scha asarlar orqali tarbiya maqsadlariga muvaffaq bo‘lishlari mumkin.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Metod nima?
2. Tabiat bilan tanishtirish metodlari nechta asosiy guruhga bo‘linadi?
3. Amaliy metod va uning turlarini aytib bering.
4. Og‘zaki metod va uning turlarini aytib bering.
5. Suhbat necha xil bo‘ladi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



1. ....-atrof - olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir.

**a) kuzatish**

b) amaliy

d) og‘zaki

2. Tabiatdagi mehnat, tabiat burchagi, yer maydonchasi, navbatchilik-qaysi metodga kiradi?

a) kuzatish

**b) amaliy**

d) og‘zaki

3. Og‘zaki metodning turlari qaysilar?

a) amaliy va kuzatish

**b) tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlar, suhbat**

d) kirish, yakuniy

4. Kirish suhbati tarbiyachi qachon qo‘llaydi?

**a) kuzatishlar, ekskursiyadan oldin**

**b) kuzatishlar, ekskursiyadan keyin**


**c) kuzatishlar, ekskursiya davomida**


5. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning qaysi guruhlarida qo'llaniladi?

**a) tayyorlov**


**b) o'rtalik va katta**

**d) o'rtalik, katta, tayyorlov**

<b>Mustahkamlash uchun interfaol metod “Klaster” (tarmoq) metodi</b>	
--	--



Klasterlarga ajratish- o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi g'ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodala





## Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishdan vizual texnologiyalardan foydalanish turlari

### Reja:

1. Vizual texnologiya haqida umumiy tushuncha.
2. Bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual usullar.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual-didaktik o‘yinlardan foydalanish.

**Tayanch tushunchalar:** *Vizual texnologiya, atrof muhit, vizuallik, kuzatuv, illyustratsiya, namoyishlar, ekran, texnik vositalar, vizual o‘qitish usullari, vizual didaktik o‘yinlar.*

### 1. Vizual texnologiya haqida umumiy tushuncha.

Bugungi kunda ekologik ta’lim-tarbiyaning dolzarbliji mamlakatimiz tabiat, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarni hal qilishda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ekologik tarbiya jarayonlarini yangi metodikalar yaratishdan boshlash kerakligini ko‘rsatmoqda. Zero, zamonaviy jamiyatni barqaror rivojlanishga o‘tishining muhim sharti ekologik ta’lim-tarbiyadir. Shuning uchun, bolalarni tabiatning qonuniyatlari bilan tanishtirish, ularning to‘g‘ri o‘sib-ulg‘ayishiga, tabiatda bo‘ladigan voqeа-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga, bolaning shakllanishida, tabiatga, Ona-Vataniga, tabiat boyliklariga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirishdagi yangi metodikalarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bizning vazifamiz bolaga har bir tirik organizmni yashash huquqiga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini qadrlaydigan, noyob mavjudot sifatida qarashga o‘rgatishdir. Agar biz maktabgacha yoshda ekologik ta’lim-tarbiyaning asosini shakllantirishni boshlasak, eng yaxshi natijaga erishishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda turli usul va metodlar bo‘lib, bular orasida bolalar ko‘rish va tasavvurini kengaytirish usuli bo‘lgan vizual texnologiyalarning ahamiyati kattadir.

Vizual texnologiya – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va

animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.

“Vizuallik” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “visualis”, ya’ni ko‘riladigan, tasviriyl degan ma’noni bildiradi.

Vizuallik - raqamli ma’lumot yoki fizik hodisani ko‘rish, kuzatish hamda tahlil qilish usullarining umumiyl nomi.<sup>16</sup>

Rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta’lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tatbiq qilinmoqda. Amaliyat tajribalaridan shu narsa ma’lumki, vizual texnologiya asosida ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi isbotlangan. Vizual texnologiya vositalari asosida bilim berishda 30 % gacha vaqtini tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar tarbiyalanuvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo‘srimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ga ortadi.

Bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda o‘rganilayotgan ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishlari va bilimlarni o‘rganishlari uchun tarbiyalanuvchilarning e’tiborini jalb qilish lozimdir. Bunday natijaga faqat yuqori sifatli, qulay, yorqin vizual materiallar tufayli erishish mumkin. Vizual texnologiya - bolaning e’tiborini jalb qilishga imkon beradigan, diqqatini jalb qiladigan va o‘z navbatida materialni osonlik bilan o‘zlashtirishi hamda yaxshiroq eslab qolishiga imkon beradigan vositadir. Vizual texnologiyalar nafaqat xotiraga ta’sir qiladi, balki tasvirlarning ravshanligi tufayli, bola o‘zi uchun tushunarli bo‘lgan analogiyalarni yaratadi. Shu sababli, vizual texnologiya turli xil tushunchalar ishlataladigan doiraga kiritilib, bularning barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim-tarbiya berish sifatini yaxshilaydi. Masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish jarayonida tarbiyachi materialni og‘zaki ravishda taqdim etishning o‘rniga, vizual diagramma rasm orqali taqdim etsa, bolada tasavvur qilish ancha yaxshilanadi.

Faqatgina og‘zaki tushuntirishni tinglashi kerak bo‘lgan, keyinchalik mantiqiy tafakkurni bog‘laydigan, ma’lumotlarning ma’nosini tushunadigan kattalardan farqli o‘laroq, bolalar uchun “yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yaxshidir” degan so‘zlar bolalar uchun juda mos keladi. Bola o‘zining vizual - majoziy tafakkuri bilan, obyekt bilan bir vaqtida

---

<sup>16</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

ko‘rish, eshitish, harakat qilish yoki obyektning harakatlarini baholash mumkin bo‘lgan narsani tushunadi. Shuning uchun mактабгача yoshdagи bolalarni ularga mavjud bo‘lgan ma’lumot kanallariga murojaat qilishni o‘rgatish juda muhimdir.

O‘quv jarayonida vizual texnologiyalardan foydalanish, bilimlarni puxta o‘zlashtirish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik prinsipi bilan bog‘langanda yanada kengayadi va takomillashadi.

A. A. Verbitskiy vizuallik bo‘yicha quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Vizuallik jarayoni – bu vizual tasvirda tafakkur jarayonining qisqarishi bo‘lib, idrok etilayotgan tasvir keng tafakkur va amaliy harakatlar uchun yordamchi sifatida xizmat qilishi mumkin”.<sup>17</sup>

Ushbu ta’rif “vizuallik”, “vizual vositalar” tushunchalarini “ko‘rgazmali”, “ko‘rgazmali vositalar” tushunchalarini ajratishga imkon beradi.

Pedagogik tushuncha sifatida “ko‘rgazmali” tushunchasi insonning ichki tomondan tug‘ilgan rejasiga ko‘ra emas, balki doimo tashqaridan berilgan aniq predmetlar namoyishida, jarayonda, hodisalar, tugallangan tasvirni taqdim etishda asoslanadi. Fikrlar tasvirini yuzaga chiqarishda, ya’ni, ichki tomondan tashqi tomonga “olib chiqish”da aqliy tasvirning rivojlanishini namoyish etadi. Ushbu preksiya moddiy olamning sub’ekti va obyektlarining o‘zaro ta’sir etishi jarayonida qurilgan bo‘lib, u fikrlash mexanizmlariga tayanadi hamda o‘quv faoliyatining turli shakllarida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, A. A. Verbitskiy pedagogika fanida “ko‘rgazmalilik” va “vizuallik” tushunchalarini izohlagan. Ularning o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, ko‘rgazmali vosita – ma’lum bir tasvirni namoyish etuvchi obyekt, vizual vosita esa insonning aqliy faoliyati mahsuli bo‘lib, kafolatli yakuniy natija olinadi.

T.T.Sidelnikova vizuallikni “ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslangan pedagogik usul bo‘lib, uning doirasida sxemalar va tasvirlarning belgilar asosida qandaydir hodisa, jarayonning mazmunini, vazifasini, tuzilishini, bosqichlarini namoyish etishi”, deb qaraydi.<sup>18</sup> Ta’lim jarayonida vizuallik tamoyilini qo‘llashga doir tadqiqotlar tahlil qilinganda (R. Arnxeym, D. A. Barxatova, A. G. Barышkin, L. A. Batayeva, V. N. Bodrov, ye. B.

<sup>17</sup> Verbitskiy A. A. Aktivnoye obucheniye v vysshy shkole: kontekstnyy podxod. M.: Vysssh. shk., 1991. 207 s.

<sup>18</sup> Сидельникова Т. Т. Потенциал и ограничения визуализации как метода изучения социально-гуманитарных дисциплин // Интеграция образования. 2016. Т. 20. № 2. С. 281-292.

yermilova, G. V. Lavrentev, N. B. Lavrenteva, V. V. Magalashvili, A. P. Malkina, N. N. Manko, M. V. Moiseyeva, N. A. Neudaxina, N. A. Reznik, P. M. Erdniyev, N. ye. Erganova), ushbu tamoyil universal bo‘lib, turli fundamental fanlarda hamda umuminsoniy sohalarda qo‘llanilishi aniqlandi. Shuni ta’kidlash lozimki, vizuallik tamoyili orqali o‘quv materialini loyihalashtirish bilan bog‘liq masalalar to‘liq yoritilmagan. Ta’lim jarayonida vizual vositalardan foydalanish yuqori samaradorlik omili sanaladi, chunki ular ta’lim oluvchida o‘quv materialini o‘zlashtirishga va keyinchalik ularning xotirasida va ongida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi. Vizuallik jarayonining asosi, ta’lim oluvchi tomonidan ko‘rish orqali qabul qilinadigan ko‘rgazmali tasvirlar ko‘rinishida taqdim etilgan ma’lumotlarning fiziologik mexanizmlari hisoblanadi.

A.P.Malkinaning aytishicha, “qabul qiluvchining ichki faolligini oshirishda vizual vositalar (chizmalar, sxemalar, jadvallar, rasmlar, fotosuratlar va b.lar)ni semantik idrok etish va ma’lumotlarni qayta ishslash imkoniyatini beradi”.<sup>19</sup>

Vizual texnologiya shu bilan belgilanadiki, ularni qo‘llash asosida yangi bilimlar olish maqsad qilib qo‘yiladi. Bu jarayonda o‘quv filmlaridan, diafilm va diapazitivlarning axborot matnlari (ostidagi sur’at) yozuvlar yangi bilimlar egallash uchun bilimlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda tabiiy materiallar va turli xil rasm hamda jadvallar namoyish qilinadi. Tarbiyalanuvchilar esa tarbiyachi tomonidan qo‘yilgan ko‘rgazma vositalarning kuzatish asosida (topishi) berilgan topshiriqa asoslanib, javoban fikrlaydilar, tahlil qiladilar, so‘ngra xulosa chiqaradilar. Har qanday holatda ham vizual texnologiyalar qo‘llanilganda bolalarning faol idrok etishlari va fikrlashlari ko‘zda tutiladi, shuning uchun ham ular oldida aniq bilish vazifasi qo‘yiladi. Unda jismlar va jarayonlarni kuzatish, qarab chiqish va namoyon bo‘lgan borliq va jarayonlarni o‘rgatish ko‘rsatilishi lozim. Kuzatish va o‘rgatish holati frontal, guruh yoki yakka tartibda o‘tkazilishi mumkin.

## **2. Bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual usullar.**

Vizual o‘qitish metodikasi va ularning texnikasi vazifasi obyektiv dunyo, jarayonlar va hodisalarni tabiiy shaklda yoki turli xil tasvirlar,

---

<sup>19</sup> Малькина А. П. Визуализация как способ понимания иноязычного текста по специальности в обучении иностранному языку (неязыковый вуз) // Вестник Тамбовского университета. Серия «Гуманитарные науки». 2008. Вып. 2 (58). С. 239-245.

reproduktsiyalar, diagrammalar va boshqalarni ishlatib, ramziy aks ettirish bilan bolalarni vizual va hissiy jihatdan tanishtirishdir.

Vizual metodlar tushunchasini quyidagi uchta guruhga bo‘lish mumkin:

- kuzatuv,
- illyustratsiya
- namoyishlar.

Ushbu tasnif amaliy bilim manbasiga asoslangan vizual usullarni belgilaydi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ushbu amaliy amaliyotida biz turli xil materiallardan foydalanamiz: didaktik rasmlar, badiiy rasmlarning reproduktsiyalari, fotosuratlar, videolar, ovoz yozuvlari; bunda bolalar passiv pedagogik ta’sir obyektlaridan ko‘ra faolroq bo‘ladilar.

Kuzatish usuli voqelik va hodisalarini uzoq, maqsadga muvofiq idrok etish shaklida qilingan sa'y-harakatlar nuqtai nazaridan ancha qimmat bo‘lgan bilim jarayonidir. Ushbu usul bolalar o‘rtasida umumlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan aniq bilimlarni shakllantirish jarayonining zaruriy elementidir.

Haqiqat predmetlari va hodisalarini idrok etish samaradorligi bolalarda kuzatuvchanlik ko‘nikmalarining shakllanish darajasiga bog‘liq, shu sababli erta yoshda ushbu bolani o‘qitishni boshlash, uning kuzatilayotgan obyektga diqqatni jamlash, eng muhim narsalarni belgilash, ko‘rgan narsalari haqida fikr yuritish, so‘zlar yordamida o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini oshirish kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rasmlar va taqdimotlar yordamida bolalar tabiatni, o‘simlik va hayvonot dunyosini, odamlarning mavsumiy ishlarida naqshlarni kuzatishni o‘rganadilar. Bu bolalarning aqliy rivojlanishiga va ularda jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida to‘g‘ri fikrlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Har xil texnika va ish turlaridan foydalanish kerak. Kuzatishni atrofdagi olam hodisalariga diqqatni jamlash, ularning asosiy elementlarini belgilash, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga e’tibor berish, ushbu hodisalarning sababini topish va olingan ma'lumotlar to‘g‘risida xulosa qilish qobiliyati deb ham belgilash mumkin. Bu omillarning barchasi birgalikda bolalarda hayot to‘g‘risida to‘liq tushunchani shakllantirish va idrok, xotira, fikrlash, tasavvur kabi bilim jarayonlarini rivojlantirish jarayonida asosiy rol o‘ynaydi.

Illyustratsiya usuli turli xil narsalar va hodisalarini tabiiy shaklda ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Shuningdek, bolalarni bir xil narsalar va hodisalarning tasvirlari bilan tanishtirish mumkin. O‘simliklar, hayvonlar, texnika yoki fanning hodisalari va obyektlarini va boshqa ko‘p narsalarni

tasvirlash mumkin. Illyustratsiya vositalaridan biri sifatida doska yoki interaktiv doskalardan keng foydalaniladi. Ular so‘zlarni, jumlalarni, turli xil vazifalarni yozib olish uchun maydon bo‘lib xizmat qiladi, ular ustida harakatlar ketma-ketligini tasvirlashingiz mumkin. Shuningdek, xaritalar, rasmlar, jadvallar, bannerlar va boshqalar kabi ba’zi illyustratsion vositalardan foydalaniladi.

**Tasvirlarni o‘qitishning vizual usuli sifatida ishlatalishda siz quyidagi fikrlarga muvofiq harakat qilishingiz kerak:**

- ular bolalarning yoshiga mos kelishi, me’yorida qo‘llanilishi va faqat faoliyatning tegishli paytidayoq har bir bola ko‘rib chiqilayotgan illyustratsiyani to‘liq ko‘rishga imkon beradigan tarzda taqdim etilishi kerak;

- bolalar illyustratsiyalarni ko‘rsatish jarayonida eng muhimlarini aniq ajratib ko‘rsatish vazifasini bajarishi kerak, ular asosiy elementlarga tushuntirishlar va umuman illyustratsiyalar ustida aniq o‘ylashlari kerak;

- illyustratsiya materialning mazmuniga mos bo‘lishi kerak, muhim omil ijro masalasining estetik tomonidir. Illyustratsiya bolalarning o‘zlarini kerakli ma'lumotlarni topish va aniqlashga jalb qilishi kerak.

Namoyish usuli odatda qurilmalar, turli xil uskunalar, tajribalar, filmlar, magnitafonlar yoki kompyuter dasturlarini namoyish etishga asoslangan. Ulardan foydalanishning maqsadi talabalar orasida qiziqish yoki kognitiv motivatsiyani shakllantirish, muammoli vaziyat yaratish, shuningdek, ular uchun yangi bo‘lgan ma’lumotlar bilan tanishishdir.

Masalan, kompyuter yoki magnitafondan foydalanish. Ushbu qurilmalardan o‘quv jarayonida foydalanilganda, ifodali nutq va musiqa me’yorlari namoyish etiladi. Filmlar, teledasturlar, videofilmlar fragmentlari ilm-fan, texnika, madaniyatning so‘nggi yutuqlari, noyob hujjatlar, arxiv materiallari, badiiy asarlar namoyishida o‘z o‘rnini topadi.

Vizual metodlar o‘qitishning og‘zaki va amaliy usullari bilan birgalikda qo‘llaniladi va bolalarni hodisalar, jarayonlar, obyekt bilan o‘zlarining tabiiy shaklida yoki har qanday chizmalar, reproduksiyalar, diagrammalar va hokazolardan foydalangan holda ramziy tasvir bilan vizual va sezgir tanishtirish uchun mo‘ljallangan. Buning uchun zamonaviy MTTdagi ekran texnik vositalaridan keng foydalaniladi.

**Vizual o‘qitish usullaridan foydalanishda bir qator shartlarga rioya qilish kerak:**

- a) ishlataladigan vizualizatsiya bolalar yoshiga mos kelishi kerak;
- b) ravshanlik me’yorida ishlatalishi kerak va u asta-sekin va faqat tegishli daqiqada ko‘rsatilishi kerak;

- c) kuzatish vaqtida barcha bolalarga namoyish etilayotgan obyektni aniq ko‘radigan qilib tashkil qilinishi kerak;
- d) illyustratsiyalarni namoyish qilishda asosiy, muhimni aniq ta’kidlash kerak;
- e) hodisalarini namoyish qilish paytida berilgan izohlarni batafsil o‘ylab ko‘ring;
- f) namoyish etilgan ko‘rinish materialning tarkibiga aniq mos kelishi kerak;
- g) bolalarni ko‘rgazmali qo‘llanmada yoki ko‘rgazmali materialda kerakli ma'lumotlarni topishga jalb qilish.

Yuqoridagi usullarning xarakterli xususiyati shundaki, o‘quv materialini o‘zlashtirish bu jarayonda qo‘llaniladigan o‘quv qo‘llanmalari va texnik vositalar (AKT) bilan chambarchas bog‘liqdir.

Elektron ommaviy axborot vositalarida quyidagi turdagি tasviriy materiallardan foydalanamiz:

1. Tovush materiallari - bu qushlarning, sute Mizuvchilarining ovozlari, o‘rmon shovqini, yomg‘ir, shamol va h.k;
2. Ekran materiallari slaydlar, ya’ni. muayyan mavzuga bag‘ishlangan bir qator shaxsiy ramkalar;
3. Taqdimotlar bolalarga atrofdagi dunyo haqida ma'lumot berishga yordam beradigan chiroysi va yorqin rasmlar bilan ta'minlangan ta’lim ekranidir. Taqdimot dinamikani, tovushni, rangli tasvirlarni birlashtiradi, bu ma'lumotni idrok qilishni sezilarli darajada yaxshilaydi;
4. Biz noutbukdan foydalangan holda yoki kompyuter, proektor va ekran bilan jihozlangan guruh xonasida olib boradigan axborot vositalari;
5. Modellash jarayonida;
6. Agar biron-bir virtual bilim ma'lumotni berish kerak bo‘lsa.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik tarbiya berishda ta’limning vizual texnologiyalaridan foydalanish bolalarga tabiiy olamga kognitiv qiziqishini, faol faoliyatini, tabiatni ongli ravishda anglashi, ekologik ong, ekologik bilimlarni, tabiatga madaniy munosabatni shakllantirishda va axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari, audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallari orqali bolalarga yetkazib berish yaxshi natija beradi.

### **3.Maktabgacha yoshdagи bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual-didaktik o‘yinlardan foydalanish.**

Maktabgacha yosh o‘yining klassik davri hisoblanadi. O‘yinda bolaning barcha aqliy fazilatlari va shaxsiy xususiyatlari jadal shakllanadi.

O‘yin sharoitida bolalar kattalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshirig‘iga qaraganda ko‘proq diqqati jamlanadi va xotirada eslab qoladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik o‘yinlar bolalarda jonli va jonsiz tabiat, dunyo haqidagi g‘oyalarni shakllantirish uchun juda muhimdir. Maktabgacha yosh bola shaxsining ekologik tarbiyasini rivojlantirishning muhim bosqichdir. Ekologik o‘yinlar nafaqat obyektlar va tabiiy hodisalar haqida bilim olishga hissa qo‘sadi, atrofdagi tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolalarning tabiatga bo‘lgan hissiy munosabatini shakllantirishda tarbiyachi ko‘plab o‘yin turlaridan foydalanadi. Mana shu o‘yin turlaridan bir vizual-didaktik o‘yinlardir.

Ekologik tarkibdagi vizual-didaktik o‘yinlar individual organizm va ekotizim yaxlitligini ko‘rishga, tabiatning har bir obyektining o‘ziga xosligini anglashga, insonning asossiz aralashuvi tabiatda qaytarib bo‘lmaydigan jarayonlarga olib kelishi mumkinligini tushunishga yordam beradi va ularning to‘liq rivojlanishiga hissa qo‘sadi.

### **Vizual –didaktik o‘yinlar jarayonida bolada:**

- ✓ atrofdagi dunyo haqida bilimlar shakllanadi;
- ✓ kognitiv qiziqishlar rivojlanadi;
- ✓ tabiatga nisbatan muhabbat ortadi;
- ✓ ehtiyyotkorlik va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, ekologik xulq-atvor tarbiyalanadi;
- ✓ dunyoqarashini kengaytiradi;
- ✓ kuzatish va qiziquvchanligi, rivojlanadi;
- ✓ tabiiy narsalarga qiziqish uyg‘otadi;
- ✓ intellektual qobiliyatlar rivojlanadi.

Vizual-didaktik o‘yinlar qanchalik xilma-xil qiziqarli bo‘lsa natija ham shuncha yaxshi bo‘ladi. (Vizual-didaktik o‘yindan namuna keltiramiz)

### **“Ekologik svetofor”**

**Maqsad:** Bolalarning ekologik toza xulq-atvori haqidagi tasavvurlarini takomillashtirishni davom ettirish.

O‘yinning borishi: Tarbiyachi har bir bolaga qog‘ozdan tayyorlangan yashil va qizil doiralarni beradi.

**Tarbiyachi:** Sizga bir nechta video qo‘yib beraman. Agar videoda ko‘rgan narsangizni to‘g‘ri deb o‘ylasak, yoritmoq yashil chiroq, agar noto‘g‘ri bo‘lsa – qizil chiroqni ko‘tarasiz.

**1-video.** Katta shaharda moshinalar, zavod, fabrikalar juda ko‘p. Odamlar shaharni kattalashtirish uchun atrofdagi daraxtlarni sindirishmoqda. Alisher buni kuzatib turgandi, uyining yonidagi bog‘dagi daraxtlarni yilib

tashlay boshladi. Buni ko‘rib turgan o‘rtog‘i sababini so‘radi. Alisher bu daraxt katta bo‘lsa baribir olib tashlanishini aytdi. Alisher to‘g‘ri ish qildimi. ( bolalar yashil va qizil svetoforlar orqali munosabat bildiradi).

**2-video.** Bahodir va zumrad bog‘da sayr qilishdi. To‘satdan ular boshqa bolalarni ko‘rib qoldi. Bolalar tog‘dagi daraxtning ustiga chiqib yashil mevalarni terishni boshladilar. Bolalar og‘ir bo‘lganligi uchun bitta novdani sindirishdi. Ularni kuzatib turgan Bahodir va Zumrad “Tushing va keting!” – dedi bolalarga. Bolalar qochib ketishdi. Kechqurun Bahodir va Zumrad singan novdaga qanday yordam berish to‘g‘risida dadasi bilan maslahatlashdilar. Sizningcha Bahodir va Zumrad o‘zini to‘g‘ri tutdimi?

**3- video.** Bobur hashoratlар bilan o‘ynashni yoqtirardi. U to‘rni oldi, bir nechta hasharotlarni ushladi, ularni bankaga solib, idishni qopqoq bilan yopdi. Ertalab u bankaning pastki qismida o‘lik hashoratlarni ko‘rdi. Ular endi o‘tloqqa yurganidek chiroyli emas edi. Bobur hashoratlarni axlat qutisiga tashladi.

Boburning harakatlarini qanday baholaysiz? (qizil yoki yashil svetofor orqali)

4-video. Laylo va uning ota-onasi mashinada shahar tashqarisiga chiqishdi. Ular o‘rmonga yaqinlashganlarida, dadasi mashinani to‘xtatdi va o‘rmonga piyoda kirishlarini aytdi. Laylo dadasiga o‘rmonga mashinada kirib boraylik dedi. Layloning onasi kimdir allaqachon buni amalga oshirgan va mashinalarning izlari uzoq vaqt saqlanib qolgan. Shuning uchun bu yerda o‘t deyarli o‘smagan dedi.. Layloning ota-onasi bunga rozi bo‘lmadilar. Ular mashinani yo‘lda qoldirib, o‘rmonga piyoda ketishdi. Sizningcha, Layloning ota-onasi to‘g‘ri ish qildimi? ( bolalar qizil yoki yashil svetofor orqali munosabat bildiradi).

### **“Reklama bo‘yicha bilib oling”**

**Maqsad:** Hayvonlar va qushlarning xususiyatlarini (tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, yashash joylari) tanishtirishni davom etirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Bu o‘yinda bolalar o‘zlari xohlagan hayvon yoki qush rasmini tanlab oladilar va uni e’lon qiladi qolgan bolalar e’lonni diqqat bilan tinglashi kerak va qaysi (hayvon yoki qush) haqida gapirayotganini topishlari zarur. To‘g‘ri topgan bola bitta rog‘bat kortochka oladi va o‘yin oxirida natija e’lon qilinadi. Masalan.

1. Meni ziyorat qilish uchun keling! Mening manzillarim yo‘q. Men har doim uyimni o‘zim bilan olib yuraman.

2. Do‘stlar! Kimga igna kerak bo‘lsa, men bilan bog‘laning.

3. Sizdan bahorda meni uyg‘otishingizni so‘rayman. Asal bilan keling.(h.k)

## “Qor to‘pi”

**Maqsad:** Bolalarning ko‘chib yuruvchi qushlar haqidagi bilimlarini kengaytirish. Diqqat va kuzatishni rivojlantiring.

**O‘yinning borishi:** Ushbu o‘yinda bolalarga ko‘chib yuruvchi qushlar video orqali ko‘rsatiladi. Bolalar videoni ko‘rishadi va bu haqda navbatma-navbat gapishtadi: birinchi bola - birinchi jumlasini, ikkinchi bola - oldingi jumlalar va o‘zining jumlesi, uchinchi bola - avvalgi ikkisini takrorlaydi va o‘z so‘zini qo‘sadi. Masalan: “Qarg‘a - bu ko‘chib yuruvchi qush. U katta va qora”. “Qarg‘a - bu ko‘chib yuruvchi qush. U katta va qora. Ularning yashash joylari noaniq va hokazo.

Har qanday vizual vositalardan foydalanish, albatta, muayyan maqsadlarni ko‘zlashi kerak.

Bola bu o‘yinlar orqali “Men tabiatga ozor berdim va u qiyndaldi” “Men xato qildim va u men tufayli jarohat oldi”. Va keyin tushundim: “Tabiatga faqat qalbing bilan teginish mumkin» degan tushuncha hosil bo‘lishi zarur.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Vizual texnologiyaga ta`rif bering.
2. “Vizuallik” so‘zining ma`nosi nima?
3. A. A. Verbitskiyning vizuallik jarayoniga bergan ta`rifini aytib bering.
4. Vizual o‘qitish usullaridan foydalanishda qanday shartlarga rioya qilish kerak?
5. Vizual didaktik o‘yinlarning bola hayotidagi ahamiyati.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



1..... raqamli ma’lumot yoki fizik hodisani ko‘rish, kuzatish hamda tahlil qilish usullarining umumiyl nomi.

- a) Texnologiya
- b) Axborot
- d) Vizuallik**

2. Agar tarbiyalanuvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi necha % ga oshadi.

**a) 25-30**

b) 35-40

d) 25-35

3. “Vizuallik jarayoni – bu vizual tasvirda tafakkur jarayonining qisqarishi bo‘lib,

idrok etilayotgan tasvir keng tafakkur va amaliy harakatlar uchun yordamchi sifatida

xizmat qilishi mumkin”- fikr muallifi?

a) Ya.A.Komenskiy

**b) A. A. Verbitskiy**

d) B.A. Verbitskiy

4. Illyustratsiya usul?

**a) turli xil narsalar va hodisalarni tabiiy shaklda ko‘rsatish uchun foydalilanildi.**

b) voqelik va hodisalarni uzoq, maqsadga muvofiq idrok etish shaklida qilingan sa'y harakatlar nuqtai nazaridan ancha qimmat bo‘lgan bilim jarayonidir.

d) qurilmalar, turli xil uskunalar, tajribalar, filmlar, magnitafonlar yoki kompyuter dasturlarini namoyish etishga asoslangan

5. Qaysi usul bolalar o‘rtasida umumlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan aniq bilimlarni shakllantirish jarayonining zaruriy elementidir.

a) Illyustratsiya usuli

**b) kuzatish usuli**

d) namoyishla

**Mavzuni mustahkamlash  
uchun intfaol metod:  
Tushunchalar tahlili metodi**



**“Tushunchalar tahlili” metodi asosida quyidagi tushunchalarni zohlang?**

Tayanch tushunchalar Tushunchalar mazmuni O‘qituvchi ma’lumoti  
**(Talabalar javobi.....)**

**Tabiat**

**Ko‘rgazmalilik**

**Vizual**

**Vizuallik**

**O‘yin**

**Usul**

**Illyustratsiya**

## 5-MODUL: ODDIY TAJRIBALAR, ULARNI O'TKAZISH TEXNALOGIYASI



### Oddiy tajribalar va ularning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

#### Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ilm-fan va tabiat” markazining turli yosh guruhi xususiyatlariga ko‘ra jihozlanishi.
2. Ilm-fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribalarning ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyati.
3. Ilm-fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribalarning mavzuli yillik rejasi.

**Tayanch tushunchalar:** *Ilm-fan va tabiat, rivojlantiruvchi muhit, ta'lim markazlari, rivojlanish sohasi, yosh guruhlari, kichik labaratoriya, kichik yosh, o'rta yosh, katta yosh, mактабга тайyorlov yoshi.*

#### 1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Ilm-fan va tabiat markazining turli yosh guruhi xususiyatlariga ko‘ra jihozlanishi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faoliyatini to‘laqonli rivojlantirishda fan va tabiat markazlarining tashkil qilinishi juda muhim bo‘lib, bu markazlar bolaning qiziqishi, fikrashi va ijodiy faolligini oshiradi. Atrofdagi narsalar xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Markazdagi barcha jihozlar xavfsizlik talablariga javob berishi, bolaning erkin faoliyatiga moslashtirilgan (jihozlar bolaning bo‘yi yetadigan qilib joylashtirilishi) bo‘lishi, estetik jihozlangan bo‘lishi kerak. Fan va tabiat markazi nafaqat guruhning bezash bo‘libgina emas, balki o‘z-o‘zini rivojlantiradigan joy bo‘lib xizmat qilish zarur. Bolalar tadqiqotlar o‘tkazishga o‘rganadilar. Ushbu markaz o‘z qiyofasini bolalarning qiziqishlari o‘zgarishiga, yil fasllari o‘zgarishiga va dastur bo‘limlari mavzulari o‘zgarishiga qarab o‘zgartiradi. Natijada tajribada bolalarni fizika obyektlari bo‘lmish magnitlar, suv, yer tortilishi kabilar bilan tanishtirish mumkin. Bolalar sayr qilish paytida o‘simpliklar, daraxtlar va hayvonlarni kuzatgan holda tabiatshunoslik fani asoslarini

tushunib yetadilar, atrof-muhitni o‘rganadilar. Tarbiyachi bu jarayonni boshqarishi va qo‘llab quvvatlashi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oddiy tajribalarni o‘tkazish uchun kichik labaratoriya zarur.

### **Kichik laboratoriya .**

Laboratoriya bolaning tadqiqiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini, tabiiy fanlarga oid ilk tasavvurlarini, kuzatuvchanlikni qiziqishini rivojlantiradi.

Laboratoriya quyidagi tajribalarni amalga oshiradi:

- Predmetlar va ularning xususiyatlari ustida tajriba olib borish;
- Kolleksiya yig‘ish ( toshlar, gerbariy .)

Kichik laboratoriyada bolalar tajriba orqali jonli va jonsiz tabiatni anglashga yordam beradigan jihoz va buyumlar saqlanadi:

- ✓ maxsus idishlar (turli xil idishlar, patnis, o‘lchov qoshiqlari stakanchalar, tarelkalar, elakchalar, trubkachalar)
- ✓ tabiat materiallari (toshchalar, qum, urug‘lar, daraxt po‘stloqlari, rakushka, sosna daraxt mevalari,quritilgan gullar, daraxt shoxlari va h.k....)
- ✓ tashlandiq materiallar (simlar, qand qog‘ozlari, penoplast, qopqoqchalar, iplar va h.k...)
- ✓ yordamchi –qurilmalar (mikroskop, lupalar, kompas, oynalar, turli xil tarozilar va boshqalar ..)
- ✓ tibbiy jihozlar (ignasiz shprislar, pipetkalar, paxtali tayyoqchalar, kolbachalar.
- ✓ materiallar olami (qog‘oz turlari, turli matolar, plastmassa buyumlar, paxtada materiallar, metall buyumlar)
- ✓ texnik materiallar ( burama mixlar va h.k..)
- ✓ suv bilan tajriba o‘tkazish uchun oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo‘ljallangan bo‘yoqlar (pishevoy krasitel), tuz, shakar, un, kraxmal, choy, o‘simlik moyi, qolipchalar;
- ✓ havo bilan tajriba o‘tkazish uchun trubkalar, sharlar, pufaklar va boshqalar
- ✓ yorug‘lik va ranglar bilan tajriba o‘tkazish uchun: turli xil fonarchalar oynalar, ranglar plastik idishlardan qirqilgan shishachalar;
- ✓ tovush bilan tajriba o‘tkazish uchun: kinder idishlari (ichiga no‘xat grechka, bug‘doy, manka va boshqalar to‘ldirilgan) qo‘ng‘iroqchalar, naylar qulochchinlar;
- ✓ hidlar bilan tajriba uchun moychechakli , sosnali, lavandali, xushbo‘y hidli o‘simliklar solingan xaltachalar, xushbo‘y moylar, shamlar;
- ✓ magnit bilan tajriba uchun turli magnitlar, skrepkalar, metall buyumlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ning 3-ilovasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plamlari, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash me’yorlarining, Umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘quv-ta’lim vositalari, didaktik qo’llanmalar, ko‘rgazmali materiallar, o‘yinlar to‘plamlari, o‘yinchoqlar, mebel, sport anjomlari, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan ta’minlashning eng kam (minimal) ro‘yxati.<sup>20</sup>

### **MTT Kichik yoshdagi guruhlarda Ilm-fan va tabiat markazining jihozlanishi :**

- ✓ Suv va qum uchun idishlar
- ✓ Shaklli qolipchalar
- ✓ Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablichcha, paqircha
- ✓ Rangli qum
- ✓ Tabiiy materiallar: o‘rta hajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar
- ✓ Bolalar uchun oq xalat
- ✓ Tabiat burchagi uchun xona gullari:
- ✓ Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan.
- ✓ Tabiat kalendari (qor, yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)
- ✓ Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)
- ✓ Qishki tomorqa : ekilgan piyozi (piyozni o‘sish darajalari aks ettiruvchi rasmlar), kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevela oxirida)
- ✓ Yil fasllari aks ettirilgan katta hajmdagi tasvirlar

### **MTT O‘rta yoshdagi guruhlarda Ilm-fan va tabiat markazining jihozlanishi:**

- ✓ Suv va qum uchun idishlar
- ✓ Shaklli qolipchalar
- ✓ Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablichcha, paqircha
- ✓ Rangli qum
- ✓ Tabiiy materiallar: o‘rta hajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar
- ✓ Bolalar uchun oq xalat
- ✓ Tabiat burchagi uchun xona gullari:
- ✓ Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan, begoniya, geran, agava, asparanus

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ning 3-ilovasi. 2020.y

✓ Tabiat va ob-havo kalendar (qor,yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)

✓ Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)

✓ Qishki tomorqa : ekilgan piyozi (piyozi o‘sish darajalari aks ettiruvchi rasmlar), no‘xat urug‘larini ekish, kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevral oxirida)

✓ Yil fasllari aks ettirgan katta hajmdagi tasvirlar

**MTT katta yoshdagi guruhlarda Ilm-fan va tabiat markazining jihozlanishi:**

✓ Suv va qum uchun idishlar

✓ Shaklli qolipchalar

✓ Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablicha, paqircha, tuproqni yumshatuvchi tayoqcha, xokandoz

✓ Rangli qum

✓ Tabiiy materiallar:o‘rta hajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar

✓ Bolalar uchun oq xalat

✓ Tabiat burchagi uchun xona gullari:

✓ Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan, begoniya, geran, agava, asparanus, tradiskansiya, kliviya, amarilis, plyush, xona uzumi

✓ Tabiat va ob-havo kalendar (qor,yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)

✓ Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)

✓ Qishki tomorqa : ekilgan piyozi (piyozi o‘sish darajalari aks ettiruvchi rasmlar), no‘xat urug‘larini ekish, kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevral oxirida)

✓ Yil fasllari aks ettirgan katta hajmdagi tasvirlar

✓ Hasharotlar tutish uchun setkalar

✓ Urug‘ yig‘ish uchun xaltachalar

✓ Shishali o‘lchov idishlari

✓ Tarozi.

**MTT Maktabga tayyorlov yoshdagi guruhlarda Ilm-fan va tabiat markazining jihozlanishi :**

✓ Suv va qum uchun idishlar

✓ Shaklli qolipchalar

✓ Qumda o‘ynash uchun leyka, kurakcha, grablicha, paqircha, tuproqni yumshatuvchi tayoqcha, xokandoz

✓ Rangli qum

- ✓ Tabiiy materiallar:o‘rtta hajmdagi toshlar, rangli toshlar, suv, kashtanlar (kashtan daraxti mevasi), shishkalar
- ✓ Bolalar uchun oq xalat
- ✓ Tabiat burchagi uchun xona gullari:
- ✓ Balzamin, koleus, aukuba, kitayskiy rozan, begoniya, geran, agava, asparanus, tradiskansiya, kliviya, amarilis, plyush, xona uzumi
- ✓ Tabiat va ob-havo kalendar (qor,yomg‘ir, shamol, do‘l, quyosh va hokazo)
- ✓ Akvarium (baliqlar, suv toshbaqalari)
- ✓ Qishki tomorqa : ekilgan piyozi (piyozi o‘sish darajalari aks ettiruvchi rasmlar), no‘xat urug‘larini ekish, kuzgi barglar, erta kurtak chiqaruvchi terak, siren kabi daraxt novdalari(fevel oxirida)
- ✓ Yil fasllari aks ettirgan katta hajmdagi tasvirlar
- ✓ Hasharotlar tutish uchun setkalar
- ✓ Urug‘ yig‘ish uchun xaltachalar
- ✓ Shishali o‘lchov idishlari
- ✓ Tarozu
- ✓ Lupa

## **2. Ilm-fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribalarning ta’limiy - tarbiyaviy ahamiyati.**

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturiga ko‘ra mashg‘ulotlar 5 ta rivojlantiruvchi ta’lim markazda olib boriladi. Bular quyidagilardir:

- 1.Til va nutq markazi
- 2.Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi
- 3.San’at markazi
- 4.Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz
- 5.Ilm-fan va tabiat markazi

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan oddiy tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa, bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o‘zlashtiradi.

Markaz nafaqat bolalarda, balki pedagoglarda ham qiziqish uyg‘otadi. Hayotimiz davomida ishlataladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma’lumotlar bolalarning o‘z qo‘llari bilan urug‘larni tuvaklarga sepish orqali unga suv quyishi va urug‘ unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o’ziga xos belgilarga ega bo’lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:**

✓ maktabgacha ta’lim tashkilotining ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga: milliy va mintaqaviy an’analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim;

✓ muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 802-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq ‘Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari»ning to‘rtinchi katta sohasi “Bilish jarayonining rivojlanish” sohasining kichik sohalaridan biri tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat deb nomlanadi. Aynan mana shu sohada bolalar bilan birgalikda tashkil etiladigan oddiy tajribalarning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati va bolada kutilayotgan natijalar yosh guruhlariga moslab yoritilgan. Oddiy tajribalarni o‘kazish jarayonida:

### **3-4 yoshli bolalarda :**

✓ kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo‘yash, cho‘ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo);

✓ tabiatdagi ayrim o‘zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg‘ir, do‘l, issiq, shamol va hokazo);

✓ ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi;

✓ ayrim jonivorlar bolalarini nomini to‘g‘ri aytadi;

✓ “sujet” asosida qurilmalar yaratadi;

✓ suv va qum bilan o‘ynaydi;

✓ jonli obyektlarni kuzatadi.

### **4-5 yoshli bolalarda:**

✓ kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo‘yash, qizdirish, qaynatish va hokazo);

✓ yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi;

✓ nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o‘qish kerakligini biladi;

✓ organizmning ma’lum bir organlari funksiyasini biladi;

✓ ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi;

✓ konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyalar yaratadi.

### **5-6 yoshli bolalarda :**

- ✓ tabiat hodisalarining turli omillarga bog‘liqligini tushunadi;
- ✓ tabiatdagi o‘zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi);
- ✓ insonlarning atrof olamga ta’sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig‘ish);
- ✓ tabiiy materiallardan qo‘l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi;
- ✓ mustaqil qurib yasashi mumkin;
- ✓ jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi;
- ✓ insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.

### **6-7 yoshli bolalarda:**

- ✓ qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha);
- ✓ shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog‘liq savollar beradi;
- ✓ shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi;
- ✓ tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi;
- ✓ turli resurslarni qo‘llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta’riflaydi;
- ✓ atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog‘ozni asrash).

Pedagogdan oddiy tajribalarni samarali tashkil etishda pedagogik mahorat talab qilinadi. Tajribalarning sifatli va samarali tashkil etilishida jihozlar alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachi o‘tkazayotgan tajribaning bolalar yosh guruhiga mos bo‘lishi, uni mavzuga mosligi, mavsumiyligi alohida e’tibor berishi lozim.

### **3. Ilm-fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribalarning mavzuli yillik rejasi.**

Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun mo‘ljallangan ta’limiy faoliyatning mavzuli rejasi guruh tarbiyachilariga yordam sifatida ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog tomonidan ta’lim faoliyatini rejalashtirishda birinchi navbatda ta’limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo‘yiladi va bunda bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkillashtirish, zamonaviy maktabgacha ta’lim- tarbiyaning ilmiy konsepsiyasи hisoblanadi.

O‘quv jarayonini mavzuli tarzda tuzish tamoyili hududiy, milliy, madaniy komponentlarni singdirish va bu jarayonda mакtabgacha ta’lim muassasangizning xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Bir mavzu doirasida kamida bir hafta ta’lim berilishi lozim. Mavzu guruh va rivojlanish markazlaridagi materiallarda uz aksini topishi kerak.

Ta’limiy davrning asosiy mavzusini tanlash, albatta, bolalarning barcha faoliyatni bu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak, degani emas. Mavzuning asosiy davrlarga taqsimlashdan Maqsad - ta’lim faoliyatini integratsiyalashtirish va bolalar faoliyatini ta’lim sohalari bo‘yicha asossiz taqsimlanishini oldini olishdan iborat.

Ta’lim faoliyati mazmunini mavzuli-kompleks ravishda tashkil etib rejalashtirishda quyidagi ta’lim sohalaridan foydalaniladi:

- ✓ jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ✓ ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- ✓ nutq, muloqot,o‘qish va yozish malakalariga tayyorgarlik;
- ✓ bilish jarayonini rivojlanishi;
- ✓ ijodiy rivojlanish.

Ushbu mavzuli rejalashtirish majmuasining mazkur asosi bolalar faoliyatning barcha turlarida mакtabgacha ta’lim mazmunining ichiga to‘liq kirishini ta’mindaydi.

Turli yosh guruqlarida o‘zaro bog‘liq o‘xhash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg‘un rivojlanish va butun mакtabgacha yosh davrining turli guruqlarida bolalarni rivojlantirishda o‘quv maqsadlari birligini va uzlusizligini ta’minalash orqali ta’limiy maqsadga erishilishiga olib keladi.

Ta’limiy rivojlantirishda mакtabgacha ta’lim konsepsiyasiga muvofik pedagog L.S.Vigotskiyning kuyidagi nazariyasiga tayaniladi:

«Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo‘ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so‘ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi». <sup>21</sup>

“Ilk va mакtabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, shundan bilish jarayonining rivojlanishi» ning kichik sohasi tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyati oddiy tajribalarni o‘z ichiga oladi.

<sup>21</sup> O‘zbekiston respublikasi Mакtabgacha ta’lim vazirligining Mакtabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuliy rejalashtirish.2018-yil..2-b

**Kichik va o‘rta guruhlар bilan “Ilm fan va tabiat” markazida olib  
boriladigan oddiy tajribaning mavzuli yillik rejasi**  
(namunaviy o‘quv rejada eksprement ilm-fan mashg‘uloti soni 18 ta)

	<b>Kichik guruh</b>		<b>O‘rta guruh</b>	
Sentyabr	Suvning xususiyatlari	Baliqlar bilan	Suv bilan tajriba	“Ko‘rinmas hava” tajriba
Oktyabr	Non qayerdan keladi	Qum va suvning xususiyatlari bilan tanishtirish	Uning xususiyatlari	Paxtadan nima tayyorlanadi?
Noyabr			Qumning xususiyatlari bilan tanishtirish	Qumning xosalari
Dekabr	Qor yoki muzning xususiyatlari bilan tanishtirish	Yashikcha ga piyoz ekamiz	Akvarumdagи baliqlar	Tajribadan faxrlanish(turli xil tajribalar
Yanvar	Rangli muzlar	Qumda odam rasmini chizish	Tajriba “Cho‘kadi cho‘kmaydi”(suvda)	Rezina koptok xususiyatlari
Fevral	Qunda odam rasmini tasvirlash	Bug‘doy urug‘ini ivitish va ekishga tayyorlash	Xavo xususiyatlari (sovun pufakchalari)	Qum bilan tajriba
Mart			Loyning xususiyatlari	Kamalakni izlash
Aprel	Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishtirish	To‘g‘ri ovqatlanish ning inson hayotidgi o‘rni” mavzusida	Tomchining sayohati	Shamol shamol, shaboda

		tajriba		
May			Qum bilan tajriba	Yorug‘lik bilan

**Katta guruh bilan Ilm fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribaning mavzuli yillik rejasi**

(namunaviy o‘quv rejada Eksprement ilm-fan mashg‘uloti soni 36 ta)

	<b>1-2-hafta</b>		<b>3-4- hafta</b>	
Sentyabr	Suv va qumning xususiyatlari	Xavo tajribasi “Quvnoq pufakchalar”	Tuproq tosh va qumning xosalari	“Oilamning antropometrik o‘lchovlari”
Oktyabr	Tabiiy bo‘yoqlar	Barglarni o‘rganamiz	Tomchilab sug‘arish usuli	Un va xamir turush xususiyatlari
Noyabr	Chigitdan moy olamiz	Havo markazi “eko tarbiya”	Suv xususiyatlari	Olov xususiyati
Dekabr	Matoning turlari	Tabiat kalendar bilan ishlash(qish belgilarini aniqlash, ob havoni taqqoslash)	Qor bilan tajriba o‘tkazish.(Qor, muz,suv)	Quvatni almashtiramiz
Yanvar	Magnit va uning xususiyatlari bilan tanishtirish	Predmetlarni suvning yuzasida mualaq turishi	Fanar chiroqlari yordamida tajriba o‘tkazish	“To‘g‘ri ovqatlanishning inson hayotidgi o‘rni” mavzusida tajriba
Fevral	Suv bu’lanishini tajriba orqali o‘rgatish	Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishish	Tajriba ishi xona gullari	MTT bog‘ida tajriba piyoz va sarimsoq
Mart	Quyosh yorug‘lik va issiqlik	Tabiatda suvning o‘rni tajriba	Suv mualajalari	Foydali vazararli xashoratlar

	manbai			
Aprel	Havo xususiyatlari	Bug‘doy urug‘ini ivitish va ekishga tayyorlash	Tayyorlangan bug‘doydan sumalak tayyorlash.	Urug‘ sepish, sabzavot vazelen ekish
May	Qum bilan tajriba	To‘quluvchan jisimlarni hajmini o‘lchash	Daraxt xususiyatlari bilan tanishtirish	Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishtirish

**Tayyorlov guruh bilan Ilm fan va tabiat markazida olib boriladigan oddiy tajribaning mavzuli yillik rejasi**

(namunaviy o‘quv rejada eksprement ilm-fan mashg‘uloti soni 36 ta)

	1-2-hafta	3-4- hafta		
Sentyabr	Sabzavot va mevalardan bo‘yoq olish	Loy, tosh va qumning xosalari	Ajoyib magnitlar	Shaxsiy kamalak
Oktyabr	Tabiiy bo‘yoqlar	Barglarni o‘rganamiz	Tomchilab sug‘arish usuli	Un va xamir turush xususiyatlari
Noyabr	Paxtaning xususiyatlari	Chigitdan moy olamiz	Alanga havoni ifloslantiradi	Suv va qum xususiyatlari o‘t o‘churuvchil arga yordamchi
Dekabr	Tabiat kalendari bilan ishlash(qish belgilarini aniqlash, ob havoni taqqoslash)	Sumalakni kuzatamiz.	Rangli muz yasaymiz	Matoning turlari

Yanvar	Qor va muz bilan tajribalar	Ko‘rinmas havo. Shamol	Fanar chiroqlari yordamida tajriba o‘tkazish	“To‘g‘ri ovqatlanishning inson hayotidgi o‘rnini” mavzusida tajriba
Fevral	Qurulmani platformaga joylashtirib chidamlilika sinovdan o‘tkazish	Un olish maqsadida donni yanchish. Elektr haqida tajriba	Kun vat un almashunuvi. (lampochka va globis bilan) Quyosh sistemasi, quyosh tutilishi	Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishtirish
Mart	Soyani tutish	Rangli shishalar bilan tajriba. Muzlatish	Bug‘doy ekamiz	Shaxsiy kamalak
Aprel	Hidiga qarab top. Suv va qog‘oz bilan tajriba.	Tortishish markazi, magnit bilan tajriba. Teleskop bilan ishlash.	Tirik organizimlar ni o‘rganamiz.(lupa ostida)suv xossalari	Vulqon otilishi tajriba
May	Qum bilan tajriba	Daraxt xususiyatlar i bilan tanishtirish	Loyning xususiyatlari	Suvning xususiyatlari. Magnit bilan tajriba

Yuqorida keltirilgan namunaviy o‘quv rejada Eksprement ilm-fan mashg‘uloti soni (kichik va o‘rta guruhlarda 18 ta, Katta va tayyorlov guruhlarida soni 36 ta) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ning “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” ning 4-bobidagi maktabgacha ta’limning namunaviy o‘quv rejasida keltirilgan.

### **Mavzu yuzasidan savollar?**

1. Laboratoriya jarayonining bola hayotidagi ahamiyati.
2. MTT kichik yoshdagi guruhlarda Ilm-fan va tabiat markazi nimalar bilan jihozlanadi?
3. Oddiy tajriba jarayonida 6-7 yoshli bola nimalarni anglab yetadi?
4. Oddiy tajriba jarayonida 5-6 yoshli bola nimalarni anglab yetadi?

### **MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIG‘I:**



1. Laboratoriya qaysi tajribalarni amalga oshiradi:
  - Predmetlar va ularning xususiyatlari ustida tajriba olib borish;
  - Kolleksiya yig‘ish ( toshlar, gerbariy )
  - Predmetlar va ularning xususiyatlari ustida tajriba olib borish; Kolleksiya yig‘ish ( toshlar, gerbariy )**
  - O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining « Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi »qarori qachon qabul qilingan?
    - 2021-yil 22-dekabr
    - 2020-yil 22-dekabr**
    - 2020-yil 20-dekabr
3. Oddiy tajriba jarayonida 3-4 yoshli bola nimalarni anglab yetadi?
  - kattalar bilan birqalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo‘yash, cho‘ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo); tabiatdagi ayrim o‘zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg‘ir, do‘l, issiq, shamol va hokazo); ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi;
  - ayrim jonivorlar bolalarini nomini to‘g‘ri aytadi; “sujet” asosida qurilmalar yaratadi; suv va qum bilan o‘ynaydi; jonli obyektlarni kuzatadi
  - qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha); shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog‘liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi; tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi; turli resurslarni qo‘llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta’riflaydi;
  - tabiat hodisalarining turli omillarga bog‘liqligini tushunadi; tabiatdagi o‘zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor

erishi); insonlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish); tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi;

4.Necha yoshda bolalar kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi

a)3-4 yoshda

**b)4-5 yoshda**

d)6-7 yoshda

5. Qaysi katta sohaning kichik sohalaridan biri tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat deb nomlanadi?

a)Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

b)Ijodiy rivojlanish

**d) Bilish jarayonining rivojlanishi**

**6.Ta'lim faoliyati mazmunini mavzuli-kompleks ravishda tashkil etib rejalashtirishda qaysi ta'lim soxalaridan foydalaniladi:**

a) jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, ukish va yozish malakalariga tayyorgarlik; bilish jarayonini rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.

b) nutq, muloqot,o'qish va yozish malakalariga tayyorgarlik;


c) bilish jarayonini rivojlanishi;

d) ijodiy rivojlanish.

<p><b>Mavzunu mustahkamlash uchun interfaol metod: “Qanday” organayzerini to‘ldiring</b></p>	
--	--

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va —Qanday savoli orqali muammo hal qilinadi.

**“Ilm fan va tabiat burchagida oddiy tajribalarni olib borishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni qanday hal qilsak bo‘ladi**



**“Ilm-fan va tabiat” markazida oddiy tajribalar o‘tkazish texnologiyalari**

### **Reja:**

1. “Ilm-fan va tabiat” markazida sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida o‘tkaziladigan oddiy tajribalar texnologiyasi.
2. “Ilm-fan va tabiat” markazida dekabr, yanvar, fevral oylarida o‘tkaziladigan oddiy tajribalar texnologiyasi.
3. “Ilm-fan va tabiat” markazida mart, aprel, may oylarida o‘tkaziladigan oddiy tajribalar texnologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** oddiy tajribalar o‘tkazish, qumning xususiyatlari, qaora va muzning bilan tajriba, un va xamirturish xususiyatlari, olov xususiyatlari, suvning xususiyatlari, meva va

*sabzavotlar bilan o'tkaziladigan tajribalar.*

**1. “Ilm-fan va tabiat” markazida sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida o’tkaziladigan oddiy tajribalarni texnalogiyasi.**

### **Qum va uning xususiyatlari**

#### **Tajriba №1.**

##### **Mavzu : Qum har qanday kerakli shaklni hosil qiladi.**

Qumni musht orasiga olishni va uni ohistalik bilan oqizishni taklif qilish. Quruq qum bilan nima sodir bo‘ladi? (U sochiladi). Kelinglar, qumdan u-bu narsani yasashga harakat qilib ko‘ramiz. SHakllar hosil bo‘lmoqdam? Quruq qumni namlashga harakat qilib ko‘ramiz. Uni musht orasiga oling va sochishga harakat qilib ko‘ring. U avvalgidek onson sochilmoqdam? (Yo‘q). Uni shakllar ichiga soling. Shakllar yasang. Buning imkonи bo‘layaptimi? Qanday shakllar hosil bo‘ldi? Qanday qumdan shakllar yasay oldingiz? (Nam qumdan).

**Xulosa:** Biz bugun nima haqida bilib oldik? Qanday qumdan shakllar hosil qilish mumkin? (Nam qumdan).

#### **Tajriba №2.**

##### **Mavzu: Nam qumda izlar qoladi**

Tarbiyachi quruq qumda kaft izlarini qoldirishni taklif qiladi. Izlar yaxshi ko‘rinayaptimi? Tarbiyachi qumni ho‘llaydi, aralashtiradi, tekislaydi. Ho‘l qumda kaft izlarini qoldirishni taklif qiladi. Endi ko‘rinyaptimi? Qaranglar, har bir barmoq ko‘rinmoqda. Endi oyoq izlarini hosil qilamiz. Siz nimani ko‘rayapsiz? Nima uchun kaft va oyoq izlarini hosil qila oldik? (Chunki biz qumni ho‘lladik).

**Xulosa:** Biz bugun nima haqida bilib oldik? Qanday qumda oyoq va kaft izlari qoladi? (Ho‘l qumda izlar qoladi).

#### **Tajriba №3.**

##### **Mavzu: Qum bu - ko‘plab zarrachalar**

Bolalar stakanchada nima bor? (Qum). Men oq rangdagi qog‘oz varog‘ini olaman va uning ustiga qum zarrachalarini sochaman. Qaranglar, zarrachalar qanday mayda. Ularning har birini qog‘oz varog‘i ustida aniq ko‘rish imkonи bor. Katta qum uyumi hosil bo‘lishi uchun juda ko‘p zarrachalar kerak. Tarbiyachi turli hajmdagi bir nechta qum uyumlarini hosil qiladi. Mazkur uyumlarning qaysi birida zarrachalar ko‘proq (kamroq)? Qumdonda qum zarrachalari ko‘pmi?

**Xulosa:** biz bugun nima haqida bilib oldik? Qumdonda qum zarralari ko‘pmi?

## **Tajriba № 4.**

### **Mavzu: Qumli konus**

**Maqsad:** qum sifatlarini aniqlab olish

**Jihoz:** quruq qum.

**Jarayon:** Bir siqim quruq qumni oling va uni shunday oqizingki u bir joyga to‘plansin. Asta-sekin qum tushgan joyda yuqori tomon ortib borayotgan va markaz atrofidagi barcha katta maydonni egallovchi konus hosil bo‘ladi. Agar qum uzoq vaqt hali u, hali bu joyga oqizib turilsa, u holda birlashish hosil bo‘ladi; bunda qum harakatlari oqimga o‘xshaydi.

**Xulosa:** Qum harakatlana oladi

## **Tajriba № 5.**

### **Mavzu: Sochilgan qum**

**Maqsad:** sochilgan qumning sifatlarini belgilash

**Jihozlar:** elak, qalam, kalit, qum, idish.

**Jarayon:** quruq qumdan iborat yuzani tekkislang. Butun yuza bo‘ylab bir tekisda qumni elak yordamida soching. Qalamni chuqur botirmagan hola qum ichiga tiqing. Qum yuzasiga biron bir og‘ir predmetni qo‘ying (masalan, qalam). Predmetdan qumda hosil bo‘lgan izning chuqurligiga ahamiyat bering. Endi esa idishni silkiting. Qalam va kalit bilan avvalgi harakatlarni takroran amalga oshiring. Sochilgan qum ichiga elangan qumga nisbatan qalam ikki barobar ortiqroq kiradi. Og‘ir predmet izi elangan qumga nisbatan sochilgan qumda aniqroq ko‘rinadi.

**Xulosa:** Elangan qum zichroq. Qumning bunlay sifati quruvchilar uchun yaxshi tanish.

## **Tajriba №6**

### **Mavzu: “Ho‘l qum”**

**Maqsad:** bolalarni Ho‘l qumning sifatlari bilan tanishtirish

**Jihozlar:** ho‘l qum, qum uchun shakllar

**Jarayon:** ho‘l qumni kaftlar orasiga olish va uni oqizishga harakat qilinsa, u oqmaydi, aksincha qo‘ldan bo‘laklab tushadi. Qum uchun mo‘jalangan shakllarni Ho‘l qum bilan o‘ldirish va ularni ag‘darish. Qum shaklni saqlab qoladi.

**Xulosa:** Ho‘l qumni kaftlar orasidan oqizib bo‘lmaydi, biroq u qurib qolishiga qadar har qanday kerakli shaklni hosil qila oladi. Qum namlanganda qum zarrachalari orasidagi havo yo‘qoladi, Ho‘l zarrachalar o‘zaro yopishib qoladi.

## **Tajriba № 7.**

### **Mavzu: Qum**

**Maqsad:** zarrachalar shaklini ko‘zdan kechirish.

**Jihozlar:** toza qum, idish, lupa

**Jarayon:** toza qumni idish ichiga soling. Bolalar bilan birgalikda lupa orqali qum zarrachalarining shaklini ko‘zdan kechiring. SHakllar turlicha bo‘lishi mumkin. Sahroda qum zarrachalari romb shaklida bo‘lishi haqida so‘zlab bering. Har bola qumni qo‘liga olsin va uni qanchalik sochiluvchan ekanligini his etsin.

**Xulosa:** qum sochiluvchan va uning zarrachalari turli shaklda bo‘ladi.

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Sovun ko‘pikchalarini hosil qilish

**Maqsad:** qanday qilibsovun ko‘pikchalarini hosil qilishni tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** suyuqsovun, stakanda suv va turbochkalar.

**Tajribaning borishi:** stakandagi suvga ma’lum miqdorda suyuqsovun solinadi va turbochkalar yordamida puflanadi.

**Xulosa:** Puflangandasovunko‘pikchalarihosilbo‘lishini ko‘ramiz.

### **Tajriba №.1.**

**Mavzu:** “Sabzidan bo‘yoq olish”

**Maqsad:** sabzavotlardan bo‘yoq olishga o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** sabzi, pichoq, tova, yog‘, qirg‘ich, likopcha, elak, stakan

**Tajribaning borishi:** sabzi qirg‘ichdan o‘tkaziladi, tovaga yog‘qo‘yib, qirg‘ichdan chiqqan sabzini tovaga solib qovuriladi va sekin elakdan o‘tkazib suvi siqiladi. Hosil bo‘lgan sharbat stakanga solinadi.

**Xulosa:** natijada sariq sharbat hosil bo‘ladi va uni rasm chizishda ishlatish mumkin.

### **Tajriba №.2**

**Mavzu:** Lavlagidan bo‘yoq olish

**Maqsad:** lavlagidan bo‘yoq olishga o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** xom va pishgan lavlagi, pichiq, tova, yog‘, qirg‘ich, elak, stakan

**Tajribaning borishi:** lavlagi tozalanib qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Tovaga yog‘ solib qovuriladi. Unlab olib elakdan siqib olinadi. Hosil bo‘lgan sharbati stakanga solinadi.

**Xulosa:** lavlagidan sharbatidan qizil bo‘yoq olinishini va rasm chizishda foydalanishini bilib olishadi.

### **Tajriba № 3**

**Mavzu:** Yashil ko‘katlardan bo‘yoq olish

**Maqsad:** ko‘katlardan bo‘yoq olishga o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** shivit bog‘lami, pichoq,to‘g‘rash taxtasi, elak, stakan

**Tajribaning borishi:** shivit bog‘lami suvda yuviladi. To‘g‘ram taxtasida maydalanadi. Kukuni elakda siqib, sharbati olinadi. Bundan yashil rangli sharbat hosil bo‘ladi.

**Xulosa:** yashil ko‘kat sharbatidan yashil bo‘yoq olinishini va rasm chizishda foydalanishini bilib olishadi.

### Tajriba №1

**Mavzu:** Yaproqlarni o‘rganamiz

**Maqsad:** bolalarga yaproq shakllari, ulardagি o‘zgarishlari tuzilishini o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** barglar quritilganligi, yelim,qog‘oz

**Tajribaning borishi:** o‘simglik barglariga qanday suv kelishini kuzatish. Kesilgan shoxchani siyoh yoki bo‘yoq bilan bo‘yalgan suvga solinadi. Bir necha kundan keyin dastasi kesiladi va rangli bo‘lgani ko‘riladi. O‘simglik bargi qacha ko‘p suvda tursa shuncha rangli suv ko‘tariladi

**Xulosa:** O‘simglik barglari ham suv ichadi.



### Tajriba №2

**Mavzu:** O‘simglik barglarining shaklini o‘rganish.

**Maqsad:** Yaproqlarni va qaysi daraxtgа tegishli ekanligini aniqlash

**Kerakli jihozlar:** barglar, yelim, shoxchalar, oq qog‘oz.

**Tajribaning borishi:**

1. Yaproqlarni yig‘ib kelish.
2. Har bir daraxtni shoxlarini olamiz.
3. Tarbiyachi bargni ko‘rsatib bu qaysi daraxtdan olinganini aniqlash.
4. Panjasimon chinorda, tuxumsimon gilosda, yuraksimon o‘rikda, tangasimon archada.
5. Berilgan shoxlarga kerakli barglarni yopishtiramiz.

**Xulosa:** Bola qaysi daraxtgа qaysi barg to‘g‘ri kelishini biladi.

### Tajriba №3.

**Mavzu:** Bir o‘simglik nimani ishlab chiqaradi?

**Maqsad:** zavodda kislorod ishlab chiqarishni aytish o'simlik uchun nafas olish zarurligini tushintirish.

**Kerakli jihozlar:** havo bilan to'ldirilgan idish, suvda o'simlik soni mayda chuqr matolar barglar.

**Tajribaning borishi:** bolalar bog'ga taklif qilinadi. O'simliklar inson nafas olishi uchun kislorod ishlab chiqarishini bilishadi. O'simlik idishga joylashtiriladi.

**Xulosa:** O'simliklar inson uchun foydali ekanini bilib olishadi.



### **Mavzu: Nomini ayt, tamini top**

#### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Limon va uning tarkibi.

**Maqsad:** bolalarni mevalar haqidagi bilimini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** limon mevasi, pichoq, tarelka.

**Tajribaning borishi:** bolalar 3 guruhga bo'linadi. 1 guruh - hididan, 2 guruh – ushlab,

3 guruh – ta'midan topiladi. Limon – sariq, yumaloq, daraxtda o'sadi, nordon ta'mli.

**Xulosa:** bolalar limonni ta'mini, rangini, shaklini bilib olishadi.

#### **Tajriba № 2**

**Mavzu:** Mandarin va limon farqini bilish.

**Maqsad:** mandarin va limon farqini bilish.

**Kerakli jihozlar:** lupa, mandarin, limon, pichoq, tarelka.


**Tajribaning borishi:** limon va mandarin po'stlog'ini lupa yordamida kuzatish. O'zaro hidlarini solishtirish. Hidlarini farqlash. Bo'laklarga bo'linishini kuzatish.

**Xulosa:** limon bo'laklarga bo'linmaydi, mandarin bo'laklarga bo'linadi.

#### **Tajriba № 3**

**Mavzu:** Qaysi meva og'irroq

**Maqsad:** mevalarni vazniga qarab ajratish



**Kerakli jihozlar:** limon, mandarin, suv, pichoq, tarozi

**Tajribaning borishi:** limon va mandarindan bir xil bo'lak olinadi.

Tarozida o'lchab ko'ramiz. Suvga solib ko'rildi.

**Xulosa:** limon og'irroq, lekin ikkalasi ham suvda cho'kadi.

#### **Tajriba №4**

**Mavzu:** Qaysi nordonroq

**Maqsad:** bolalarni ta'm bilish ko'nikmasini hosil qilish.

**Kerakli jihozlar:** limon, mandarin, suv, pichoq, ichimlik sodasi, stakan, qoshiq.

**Tajribaning borishi:** mandarin va limon sharbati olinadi. Har biriga bir qoshiqdan ichimlik sodasi solinadi. Bolalar kuzatishadi. Qanday hodisa sodir bo'ldi?

**Xulosa:** qaysi ko'proq ko'pirsa, o'sha sharbat nordonroq.

### **Mavzu: Un va xamirturushning xususiyatlari**

#### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Xamirturushning xususiyatlari

**Maqsad:** bolalarga non qanday paydo bo'lishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** xamirturush, shakar, un, iliq suv, 0,5 litrli baklajka, shar.

**Tajribaning borishi:** 0,5 litrli baklajkaga iliq suv, unga 3 choy qoshiq xamirturush, 1 osh qoshiq shakar solib aralashtiramiz. Og'ziga sharikni o'rnatamiz. So'ng iliq suvli idishga qo'yamiz va kutamiz.

**Xulosa:** xamirturush shakar bilan oziqlanib, o'zidan gaz ajratib chiqaradi. Natijada shar shishadi.

#### **Tajriba №2**

**Mavzu:** Non qayerdan keladi.

**Maqsad:** bolalarga non qanday tayyorlanishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** un, suv, tuz, shakar.


**Tajribaning borishi:** idishga barcha masalliqlarni solib, xamir qilamiz, iliq joyga qo'yamiz. 1 soatdan keyin xamir ko'tariladi.

**Xulosa:** xamirdan non yasab pishirishni o'rgandilar.

#### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Fonar chiroqlari yordamida kamalak hosil qilamiz.

**Maqsad:** fonar, oyna, qog'oz jismlari yordamida kamalak hosil qilish malakalarini shakllantirish.



**Kerakli jihozlar:** fonar, maxsus idishda suv, ko‘zgu va oq qog‘oz.

**Tajribaning borishi:** idishdagi suvgaga oyna solinadi, fonar oynaga yo‘naltiriladi, bir qo‘lda oq qog‘oz ushlab turiladi. Natijada kamalak tutilgan qog‘ozda ko‘rinadi.

**Xulosa:** Har xil jismlar orqali kamalakni hosil qilish mumkin.

### Tajriba №1

**Mavzu:** Magnit bilan tanishuv

**Maqsad:** magnitning qanday jism ekanligi va qanday xususiyatlarga ega ekanligi to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** magnit, yog‘och bo‘lagi, temir bo‘lagi, plastmassa, qog‘oz, mato, rezina.

**Tajribaning olib borilishi:** bolalar kerakli jihozlardan bittadan olib, nomlarini aytadi va magnitga yaqinlashtiradi.

**Xulosa:** bolalar magnitga faqat metal jismlar yopishishini bilib olishadi.

### Tajriba №2

**Mavzu:** Magnit qanday jismlar turiga kiradi?

**Maqsad:** magnitning qattiq jismliligi, o‘ziga xos tabiiy rangga egaligi haqida tushinchcha berish.

**Kerakli jihozlar:** bo‘yalmagan tabiiy magnit, rezina o‘yinchoq, gubka

**Tajribaning olib borilishi:** bolalar kerakli jihozlarning barchasini ushlab ko‘rishadi. Tarbiyachi yumshoq qattiqligiga va rangiga ta’rif beradi.


**Xulosa:** bolalar magnitning qattiq va tabiiy rangga ega ekanligini bilib olishdi.

### Tajriba №3

**Mavzu:** Magnit nimalarni tortadi?


**Maqsad:** bolalarni magnit va uning xususiyatlari bilan tinishtirish.

**Kerakli jihozlar:** yog‘och, temir, qog‘oz, plastmassa, mato, charm buyumlar.



**Tajribaning borilishi:** bolalar buyumlarni birma-bir qo'llariga olib nomlarini aytishadi va magnit tomonga yaqinlashtiradi. Natijada bolalar temir buyumlarni magnit o'ziga tortib olishini ko'rishadi.

**Xulosa:** bolalar magnit o'ziga temir buyumlarni tortishini bilib olishadi.



#### Tajriba №4

**Mavzu:** “Magnit boshqa buyumlarga qarab harakatlanadimi?”

**Maqsad:** magnitni boshqa buyumlarga nisbatan harakatlanishi to'g'risida, magnitni to'siqlar ortidan ham tortishish xususiyatini namoyon bo'lishi to'g'risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** shisha idishda suv, qog'oz, yog'och, plastmassa, karton.

**Tajribaning olib borilishi:** suv solingan stakanga temir qisqich (skripka)ni tashlaymiz, magnitni stakanga tomon yaqinlashtiramiz va magnitni stakanni yuqori qismiga qarab ko'taramiz. Natijada qisqich (skripka) ham magnitga yaqinlashib yuqoriga ko'tariladi.

**Xulosa:** bolalar magnitni to'siqlar ortida ham buyumlarni harakatlantira olish xususiyatiga ega ekanligini bilib olishadi.

#### Tajriba №5

**Mavzu:** “Magnitni to'siqlar ortidan ham tortishish xususiyati”

**Maqsad:** bolalarga magnitni to'siqlar ortidan ham tortishish xususiyati haqida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** magnit, karton qog'oz, skripka.

**Tajribaning olib borilishi:** bolalar karton qog'ozni olishib, bir nechta skripkani qog'oz ustiga qo'yishadi. Mangitni qog'oz tagidan qo'yib harakatlantirishadi. Shunda bolalar to'siq bo'lganda ham magnit buyumlarni harakatlantira olishi haqida bilib olishadi.

**Xulosa:** bolalar magnitni to'siqlar ortida ham buyumlarni harakatlantira olish xususiyatiga ega ekanligini bilib olishadi.

## Tajriba №6

**Mavzu:** “Magnitni bir-biriga tortishish va ajralish xususiyati”

**Maqsad:** bolalarga ikkita magnitni bir-biriga yaqinlashtirganda qanday hodisa ro‘y berishi to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihoz:** 2 dona magnit

**Tajribaning olib borilishi:** stol ustiga ikkki dona magnit qo‘yiladi. Bolalar magnitlarni qo‘llariga olib bir-biriga yaqinlashtirib, magnitlarni bir-biriga tortishishini ko‘rishadi. Shundan so‘ng magnitlarni orqa tomonini bir-biriga yaqinlashtirishadi va magnitlar bir-birida ajralishini ko‘rishadi. Shunda bolalar magnitni bir tomoni manfiy, ikkinchi tomoni musbat ekanligini bilib olishadi.

**Xulosa:** magnitning ikki tomoni, ya’ni manfiy va musbat tomonlari bo‘lganligi tufayli magnitlar bir-biriga tortishish va ajralish xususiyatiga ega



2. “Ilm fan va tabiat” markazida dekabr, yanvar, fevral oylarida o‘tkaziladigan oddiy tajribalarni texnologiyasi.

### Mato turlari

#### Tajriba №1

**Mavzu:** Matoning xususiyatlari

**Maqsad:** matolarning turlari, tabiiylici, havo o‘tkazish hususiyati to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** paxtali va charm matolar

**Tajribaning olib borilishi:** stol ustiga mato turlari qo‘yiladi. Bolalar doka va charm matolarni birma-bir qo‘llariga olib ushlab ko‘rishadi. Dokani olib burun sohasiga yaqinlashtirib, nafas olib ko‘radi va nafa dokadan yaxshi o‘tishini sezadi. Charm matosini ham olib xuddi shu holatni takrorlaydi. Bunda nafas olishi qiyinlashganini sezadi.

**Xulosa:** matoning tabiiylici nafas o‘tkazish xususiyatlari to‘g‘risida bilish.

## Tajriba №2

**Mavzu:** Mato turlari

**Maqsad:** Matolarning silliq va dag‘alligi to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** shoyi va junli matolar

**Tajribaning olib borilishi:** stol ustiga mato turlari qo‘yiladi. Bolalar shoyi va junli matolarni birma-bir qo‘llariga olib ushlab ko‘rishadi. Shoyi matosini olib qo‘llari bilan ushlab uning silliqligini sezishadi. Junli matolarni ham xuddi shu holatni qo‘llari bilan ushlab ko‘rishadi. Bunda junli matoning dag‘allagini uning shoyi matodan farq qilishini sezadi.

**Xulosa:** silliq va dag‘al mato turlari mavjudligi to‘g‘risida bilib olish.

### **Tajriba №3**

**Mavzu: Matoni bo‘yash**

**Maqsad:** bolalarga matoga rang berish jarayoni to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** oq rangli mato, avvaldan tayyorlangan anor po‘stlog‘idan, piyoz po‘sti, ismaloq, qizil lavlagi suvi, bo‘yoqlarni solish uchun idishlar

**Tajribaning olib borilishi:** stol ustiga idishlarda tayyor bo‘yoqlar va mato bo‘laklari qo‘yiladi.

Bolalar mato bo‘laklarini idishlardagi tayyor bo‘yoqlarga solishib, ozroq vaqt o‘tgach matolarni idishlardan olishadi va matoga ko‘chgan rangni ko‘rishadi.

**Xulosa:** matolarga turli xil mahsulotlardan tabiiy rang olib ularni bo‘yash mumkinligi to‘g‘risida bilib olish.

### **Tajriba №4**

**Mavzu: Matolar qanday tayyorlanadi?**

**Maqsad:** bolalarga matoni tayyorlanishida jun va paxta mahsulotidan ipni hosil qilish jarayoni to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** tozalangan hayvon juni, paxta, charx.

**Tajribaning olib borilishi:** stol ustiga jun, paxta va charx qo‘yiladi. Bolalar paxta va junni qo‘llari orasiga olib uni tasma shakliga keltirib bir-biriga ulab, uni charxga o‘rab ip shakliga keltirashadi. Jun mahsuloti ham xuddi shunday qilib takrorlanadi.

**Xulosa:** matolarni turli xil ip mahsulotlaridan tayyorlanishini bilib olish.

### **Tajriba №1**

**Mavzu : Qor bilan tajriba**

**Mavzu:** Qor bilan tajriba

**Maqsad:** qor harorati va eruvchanligi bilan tanishtirish.

**Keraklijihozlar:** haqiqiy qor, sovuq va issiq suv stakanda.

**Tajribaning borishi:** birinchi sovuq suv turgan stakanga qor solinadi so'ngra issiq suv turgan suvgaga qor solinadi va kuzatiladi.



**Xulosa:** sovuq suvgaga solingan qor sekin eriydi chunki sovuq suv bilan qorning harorati bir xil, issiq suvgaga solingan qor zudlik bilan eriydi chunki issiq suvning harorati qorga nisbatan yuqori.

### **Tajriba №2**

**Mavzu:** Qor bilan tajriba

**Maqsad:** su'niy qorni hosil qilishni o'rgatish va qorning xususiyatini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** kartoshka kraxmali , salat yog'i, turli xildagi qolipchalar.

Tajribaning borishi: 500gr kraxmalga 100 gr salat yog'i qo'shiladi va sun'iy qor hosil qilinadi va qolipchalar bilan qordan har xil shakllar hosil qilinadi.

**Xulosa:** sun'iy ravishda ham qor hosil qilish mumkin, qorda yopishuvchanlik xususiyati mavjudligini ko'ramiz.

### **Tajriba №3**

**Mavzu:** Qor bilan tajriba.

**Maqsad:** qorning yog'ishi haqida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** sun'iy qor va qog'oz qutisi;

**Tajribaning borishi:** qog'oz qutisi olinadi, quti ustidan sun'iy qor yog'dirtiladi.

**Xulosa:** demak bolalar qorning qanday yerga tushushini kuzatishlari mumkin.

## **Havo va uning xususiyatlari**

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Havo u nima?

**Maqsad:** bolalarga havo to'g'risida aniq ma'lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** yelim xaltachalar, pufaklar va havoga oid rasmlar.

**Tajribaningborishi:** yelim xaltachalar va pufaklar shishiriladi va kuzatiladi.

**Xulosa:** havorang siz ko'zga ko'rinas, hajmsizligi kuzatiladi.

## **Tajriba №2**

**Mavzu:**Havo u nima?

**Maqsad:** havo to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** koptok, shishirilgan o‘yinchoqlar, tog‘orachada suv.

**Tajribaning borishi:** tog‘orachadagi suvgaga koptok va shishirilgan o‘yinchoqlar solinadi va kuzatiladi.

**Xulosa:** Ichida havosi bo‘lgan narsalar suvda cho‘kmaydi chunki havo suvgaga nisbatan yengil.

## **Tajriba №3**

**Mavzu:** Havo u nima?

**Maqsad:** bolalarga nafas olish jarayonini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** o‘simlik va inson nafas olish jarayoni tasviri tushurilgan suratlar, qog‘oz lentalar.

**Tajribaning borishi:** har bir bola qog‘oz lentani burniga yaqin keltirgan holda nafas oladi.



**Xulosa:** qog‘oz lenta nafas olganda burunga yaqinlashadi nafas chiqarganda esa uzoqlashadi.

## **Tajriba №4**

**Mavzu:**Havo u nima

**Maqsad:**havoning harakatlanishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** qog‘oz bo‘lakchalari, qog‘oz yelpig‘ich.

**Tajribaning borishi:** bolalar qog‘oz bo‘lakchalariga puflashadi va qog‘oz yelpigich bilan qog‘oz bo‘lakchalariga yelpinadi, so‘ngra guruh eshik va derazalari ochib qo‘yiladi.

**Xulosa:** qog‘oz bo‘lakchalariga puflanganda, qog‘oz yelpigich bilan yelpiganda va guruh eshik derazalari ochilganda qog‘oz bo‘lakchalari uchib ketadi, demak havo harakatlanib turadi

## **Tajriba №5**

**Mavzu:**Havoning ifloslanishi.

**Maqsad:**bolalga xazonlar yoqilganida ham havo ifloslanishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** hazonlar (to‘kilgan barglar) gugurt, likopcha.

**Tajribaning borishi:** likopchaga barglarni yoqamiz, tutun va gaz chiqishini kuzatamiz.

**Xulosa:**demak hazon yoqqanda ham havo ifloslanishini ko‘ramiz.

**Mavzu: Havo sharlari bilan ishlash.**

**Tajriba №1**

**Mavzu:** Havo sharlari bilan ishlash.

**Maqsad:** bolarga havo og‘irligi to‘g‘risida ma’lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** 2 ta pufak, ikki xil rang(qizil, oq), ip yog‘och uzunroq tayoqcha.

**Tajribaning borishi:** Birinchi qizil pufak shishiriladi va yog‘och tayoqchaning bir uchiga bog‘lanadi, so‘ngra oq shishirilmagan pufak tayoqchanning ikkinchi uchiga bog‘lanadi, yog‘och tayoqchaning teng o‘rtasidan ip bilan bog‘lanadi va pufaklar og‘irligi o‘lchanadi.

**Xulosa:** tajribadan ko‘rinib turibdiki, shishirilgan qizil pufak, shishirilmagan oq pufakdan og‘irroq.

**Tajriba №2**

**Mavzu:** Havo sharlari .

**Maqsad:** havo shari ma’lum sig‘imga egaligi to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** pufaklar va ip.

**Tajribaning borishi:** bolalarga pufak shishirish aytiladi imkon qadar ko‘proq shishirish aytiladi .

**Xulosa:** ko‘p shishirilgan pufak yorilib ketishi kuzatiladi, buning sababi pufakda havo ko‘payib ketgani hisobigadir.

**Mavzu Havoning xususiyatlari**

**Tajriba №1**

**Mavzu:** Havo xususiyatlari

**Maqsad:** bolalarga havo xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** bo‘sh stakan, tog‘orachada suv.

**Tajribaning borishi:** tog‘oradagi suvga stakanni teskari qilib tushiramiz va sekinlik bilan oldinga o‘giramiz va havo pufakchalarini stakan suv bilan to‘lishi natijasida suv yuzasiga chiqishini kuzatiladi.

**Xulosa:** demak stakan bo‘sh ko‘rinsada uning ichida havo borligini ko‘ramiz.

**Tajriba №2**

**Mavzu:** Havo xususiyatlari.

**Maqsad:**havoning turli xil shaklga kirishi haqida tushancha berish.

**Kerakli jihozlar:** 1 ta pufak, qalinroq kitob.

**Tajribaning borishi:** pufak shishirilib ustiga qalin kitob qo‘yiladi.

**Xulosa:**pufak ustiga kitob qoyilganda pufak shakli o‘zgaradi demak havo turli shaklga kirishi mumkin.

### **Tajriba №3**

**Mavzu:**Havo xususiyatlari.

**Maqsad:**havo qanday qilib predmetlarni ushlab turishini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** 2 ta bir xil qog‘ozva 1 ta stul.

**Tajribaning borishi:** bolaga bitta

qog‘ozni buklab tashlash aytiladi va stulga chiqqan holda buklangan va buklanmagan qog‘ozlarni bir vaqtning o‘zida pastga tashlashi aytiladi. Qaysi qog‘oz birinchi pastga tushadi?

**Xulosa:**buklangan qog‘oz birinchi pastga tushadi, buklanmagan qog‘oz esa havoda aylanib sekinlik bilan pastga tushadi chunki uni havoda ushlab turadi.

### **Tajriba №4**

**Mavzu:**Havo xususiyatlarini tushuntirish.

**Maqsad:**havoni hamma joyda mavjudligini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:**yelim idish, issiq va sovuq suv, pufak bo‘sh idish.

**Tajribaning borishi:**bo‘sh idishga sovuq suv quyilib ,uning ichiga pufak kiydirilgan yelim idish solinadi , so‘ngra issiq suv quyiladi natijada pufak shishadi, qaytib sovuq suv solganda esa pufak o‘z holiga qaytadi.

**Xulosa:**issiq suv solganda yelim idishdagi havo pufakka o‘tadi, sovuq suv solganda esa pufakdagisi havo yelim idishga o‘tadi.

### **Shamol va uning paydo bo‘lishi**

#### **Tajriba №1**

**Mavzu : Shamol**

**Mavzu:**Nima uchun shamol uyni yiqqitdi?

**Maqsad:** bolalarga shamol tezligi to‘g‘risida tushuncha berish.

**Kerakli jihozlar:** yog‘och kubikchalardan uycha, qog‘oz va legodan uychalar.

**Tajribaning borishi:** bolalar har bir uyning oldiga borib, sekin, o‘rtacha va qattiq puflaydi.

**Xulosa:**sekin va o‘rtacha puflanganda uylarga hech qanaqa zarar yetmaydi, qattiq puflaganda qog‘oz uyning uchib ketganligini ko‘ramiz bu shamol tezligi bilan bog‘liq.

#### **Tajriba №2**

**Mavzu:**Shamol

**Maqsad:** shamol to‘g‘risida tushuncha berish.



**Kerakli jihozlar:** tog‘orachada suv va qog‘oz qayiqchalar.

**Tajribaning borishi:** tog‘orachadagi suvgaga qog‘oz qayiqchalar solinadi va puflanadi.

**Xulosa:** puflanganda shamol hosil bo‘lishi va qayiqchalarni harakatga kelgani ko‘rinadi.

### **Tajriba №3**

**Mavzu:** Shamol

**Maqsad:** sun’iy shamol hosil qilish mumkinligi to‘grisida ma’lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** qog‘oz yelpig‘ich, daftar, qog‘oz bo‘lakchalari.

**Tajribaning borishi:** bolalar qo‘llari bilan, qog‘oz yelpig‘ich bilan va daftar bilan qog‘oz bo‘lakchalariga yelpib sun’iy shamol hosil qiladilar.

**Xulosa:** turli xil usullarda sun’iy shamol hosil qilish mumkin.

### **Tajriba №4**

**Mavzu:** Shamol

**Maqsad:** sun’iy shamol hosil qiluvchi vositalar to‘g‘risida ma’lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** qog‘oz yelpig‘ich, sun’iy shamol hosil qiluvchi vositalarning rasmlari.

**Tajribaning borishi:** bolalarga qog‘oz yelpig‘ichda yelpinish aytiladi va nima hosil bo‘lishi aytiladi. Hozirgi kunda yelpig‘ichlarni o‘rnini nima egallagani so‘raladi.

**Xulosa:** qog‘oz yelpig‘ichda sun’iy havo hosil qilinishi va qanaqa vositalardan sun’iy shamol hosil qiluvchi vositalarning suratlari ko‘rsatiladi.

### **Tajriba №5**

**Mavzu:** Shamol

**Maqsad:** shamol xusisiyatlarini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** tog‘orada suv, qog‘oz yelpig‘ich

**Tajribaning borishi:** bolalar yelpig‘ich bilan tog‘oradagi suvgaga yelpishadi. Natijada to‘lqinlar hosil bo‘ladi.

**Xulosa:** shamol hosil qilinganligi uchun suvda to‘lqinlar hosil bo‘ldi

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Fonar chiroqlari yordamida uyni yoritamiz.

**Maqsad:** fonar yordamida yorug‘lik va qorong‘ulikni hosil qilish va fonar xususiyati.

**Kerakli jihozlar:** o‘rtacha hajmdagi modulli uycha, qora rangli mato bo‘lagi, fonar.

**Tajribaning borishi:** uychaga kirib, derazasidagi qora rangli mato bo‘laklarini yopib olib qo‘lidagi fonarni yoqib o‘chirib ko‘rish.

**Xulosa:** fonar orqali qorong‘ulikdan yorug‘lik hosil qilish.

### **Tajriba №2**

**Mavzu: Fonarni qanday ishlatalamiz.**

**Maqsad:** fonarni qanday ishlatalishini o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** fonar, fonar uchun batareykalar.

**Tajribaning borishi:** har xil turdagin fonarlardan quvvatlagichni (batareyka)ni chiqarib olib, uni yoqib ko‘rish, natijada fonar yorug‘lik bermaydi. Quvvatlagichlarni fonarlarga joylashtirsh, murvatlarini bosish va natijada yorug‘lik berishini kuzatish.

**Xulosa:** bolalar quvvatlagichlar yordamida fonar kuchlanishi va quvvatlagichlarsiz fonar yonmasligini bilib oladilar.

### **Tajriba № 3**

**Mavzu:** Fonar chiroqlari yordamida soya tushirish.

**Maqsad:** fonar yordamida har xil shakllarni hosil qilishga o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** fonar, qorong‘u xona.

**Tajribaning borishi:** xonani qorong‘u holatga keltirib, fonar yorug‘ligi yordamida bolalar barmoqlari yordamida har xil shakllarni tasvirlaydilar va ularga nom beradilar.

**Xulosa:** bolalar fonar yordamida qorong‘ulik va yorug‘lik o‘rtasidagi farqni bilib oladilar va har xil shakllardan biron bir buyumni tasvirlab beradilar.

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Qog‘oz turlari bilan tanishtirish.

**Maqsad:** har xil turdag qog‘ozlarni lupada ko‘rish.

**Kerakli jihozlar:** har xil turdag qog‘ozlar, lupa, idishda suv.

**Tajribaning borishi:** har xil turdag qog‘ozlarni lupa orqali ko‘rish, g‘ijimlab

ko‘rish va ularni suvgga botirib olish.

**Xulosa:** bolalar qog‘ozlarni turlarini bilib oladilar va ularning xususiyatlari bilan tanishadilar.

### **Tajriba №2**

**Mavzu: Qog‘ozni yelimlash orqali kitoblarni ta’mirlash.**



**Maqsad:** qog‘oz xususiyatlari bilan tanishtirish va kitoblarni asrab, avaylashga o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** har xil ta’mirga muhtoj bo‘lgan kitoblar, yelim, qaychi, qog‘oz nam sochiq.

**Tajribaning borishi:** kitoblarning varoqlarini joy-joyiga qo‘yib, yelimlab tekis qilib yopishtirish.

**Xulosa:** bolalar yirtilgan qog‘ozlarni birlashtirish va qog‘ozni yelim yordamida yopishtirishni bilib oladilar.

### Tajriba №3

#### Mavzu: Qog‘ozga rang berish.

**Maqsad:** har xil turdagи qog‘ozlarni rang olish farqlarini ko‘rsatish va qog‘ozning yana bir hususiyati bilan tanishtirish.

**Kerakli jihozlar:** har xil turdagи qog‘ozlar, bir xil rangdagi bo‘yoqli suv.

**Tajribaning borishi:** har xil turdagи bir xil hajmli qog‘ozlarni idishdagi rangli suvga ketma-ket solib olishva jarayonni kuzatish qaysi qog‘oz tezroq o‘z rangigi o‘zgartirdi.

**Xulosa:** har xil turdagи qog‘ozlarni suvda qanday holatda bo‘lishligi va rang olish xususiyatlarini bilish.



### To‘g‘ri ovqatlanishning inson hayotidagi o‘rni.

#### Tajriba №1

**Mavzu:** Rangli va gazli ichimliklarni inson hayotiga zararli tomonlari

**Maqsad:** bolalarga gazli va rangli ichimliklar inson sog‘ligiga xavf tug‘dirishini o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** kola gazli ichimligi, go‘sht bo‘lagi, shisha idish, sanchqi

**Tajribaning olib borilishi:** tarbiyachi bolalar bilan birlgilikda shisha idishga kola gazli ichimligini qo‘yadi. Gaz pufakchalarini ko‘rishadi, so‘ngra kola quyilgan idishga go‘sht bo‘lagini soladi. Birozdan so‘ng go‘shtning rangini o‘zgarganini ko‘rishadi.



**Xulosa:** bolalar kola ichimligining inson hayotiga zararli ekanligini bilib olishadi.

#### Tajriba №2

**Mavzu:** Meva va sabzavotlar qanday iste’mol qilinadi?

**Maqsad:** bolalarga meva va sabzavotlarni qanday iste'mol qilish va nimalarga e'tibor berishni o'rgatish

**Kerakli jihozlar:** meva va sabzavotlar, suv, namlangan toza sochiq

**Tajribaning olib borilishi:** bolalarga yuvilmagan meva va sabzavotlarni ko'rsatadi, so'ngra namlangan sochiq yordamida artib mikroblarni ko'rsatadi. Bu jarayonni bolalar ham mustaqil ravishda bajarishadi.

**Xulosa:** Bolalar yuvilmagan mevalarda mikroblar borligini ko'rishdi va bu inson sog'ligi uchun zararli ekanligini bilib olishadi.

### Tajriba №3

**Mavzu:** Qovurilgan kartoshka (chips)ni inson sog'ligiga zarari

**Maqsad:** bolalarga qovurib sotilayotgan kartoshka (chips)larni zararli tomonini tushuntirib ko'rsatib berish.

**Kerakli jihozlar:** qovurilgan kartoshka (chips), gugurt, qisqich

**Tajribaning olib borilishi:** tarbiyachi bolalarga qisqich yordamida chipsni ushlab, olovda yoqib ko'rsatadi. Kartoshkani rangi o'zgarib, qora tusga kirib qoladi va iste'molga yaroqsizligi aniqlanadi. Tarbiyachi bolalarga bunday oziq-ovqatlarni iste'mol qilmaslikni tushuntiradi.



**Xulosa:** Bolalar tajriba o'tkazish jarayonida sifatsiz mahsulotlar inson sog'ligiga zarar yetkazishini bilishadi.

### Tajriba №4

**Mavzu:** Ovqatlanish tartibini o'rgatish

**Maqsad:** bolalarga to'g'ri ovqatlanish haqida ma'lumot berish va to'g'ri ovqatlanishga o'rgantish

**Kerakli jihozlar:** ikkita bir xil hajmdagi shisha idish oziq-ovqat mahsulotlari va suv

**Tajribaning olib borilishi:** tarbiyachi boalar bilan bir xil hajmdagi shisha idishni oshqozon misolada tushuntiradi. Birinchi idishga har xil shirinliklar, olma, go'shtli taom, non, ichimlik, salatni solib, bu noto'g'ri ovqatlanish ekanligini tushuntirib beradi. Ikkinchi idishga salat, suyuq ovqat, non, quyuq ovqat, kampotni solib bu to'g'ri



ovqatlanish ekanligini tushuntiradi. Tarbiyachi birinchi idishdagi tartibsiz ovqatlanish, ikkinchi idishdagi to‘g‘ri ovqatlanish ekanligini tununtiradi.

**Xulosa:** bolalar ushbu tajriba orqali to‘g‘ri va tartibli ovqatlanish haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.

### 3. “Ilm fan va tabiat” markazida mart, aprel, may oylarida o‘tkaziladigan oddiy tajribalarni texnologiyasi.

#### Tajriba №1

**Mavzu:** Sovun ko‘pikchalarini hosil qilish.

**Maqsad:** sovun ko‘pikchalari yordamida rasm chizdirish.

**Kerakli jihozlar:** stakanda suv, suyuq sovun yoki shampun, trubochkalar har xil rangdagi bo‘yoqlar kichkina qoshiqcha oq qog‘ozlar.



**Tajribaning borishi:** stakandagi suvgaga suyuq sovun yoki shampun solinadi va trubochka yordamida puflanib ko‘pikchalar hosil qilinib, ularga har xil buyoklar solinadi so‘ngra kichkina qoshiqcha yordamida sovun pufakchalari oq qog‘ozga ko‘yilib rasm chiziladi.

**Xulosa:** tajribamizdan ko‘rinib turibdiki sovun ko‘pikchalari yordamida chiroyli rasmlar chizish mumkinligini ko‘rsatadi.

#### Tajriba №1

**Mavzu:** Har kuni ob –havoni taqqoslash

**Maqsad:** har kungi ob-havo har xil bo‘lishi haqida ma’lumot berish.

**Kerakli jihozlar:** termometr 2 ta.

**Tajribaning borishi:** birinchi termometr guruh xonasiga osib qo‘yiladi, ikkinchi termometr esa tashqariga chiqarib qo‘yiladi. Ma’lum vaqtadan so‘ng termometrlar taqqoslanadi.

**Xulosa:** ichkarida va tashqarida ob- havoni bir xil emasligi kuzatiladi.

#### Shaxsiy gigiyenaga oid qoidalarni amalda bajarish

#### Tajriba №1



**Mavzu:** Qo‘lni yuvish qoidalari

**Maqsad:** bolalarni qo‘llarini yuvishga hamda shaxsiy gigiyena qoidalariiga rioya qilishga o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** sovun, suv, toza paxta, suv uchun tog‘oracha

**Tajribaning olib borilishi:** bola qo‘liga toza paxtani oladi va uni ozgina suvda namlab

qo‘llarini artadi. Natijada bola qo‘llarini artgan paxta ifloslanganini ko‘radi. Shundan so‘ng bola qo‘llarinisovun bilan tozalab yuvib, toza paxta bilan artadi va paxtani tozaligini ko‘radi.

**Xulosa:** bolalar toza qo‘l bilan kir qo‘lni farqlaydi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish kerakligini tushunadi.



### Tajriba №2

**Mavzu:** Tishni kareysdan himoya qilish gigiyenasi

**Maqsad:** bolalarga tishni yuvmaganda tishda kareys hosil bo‘lishini ko‘rsatish

**Kerakli jihozlar:** suv, tish pastasi, tish maketi, tish cho‘tkasi, tog‘oracha

**Tajribaning olib borilishi:** Tarbiyachi bolalarga ifloslangan tish maketini ko‘rsatadi va bu ifloslangan tishda koreys paydo bo‘lishini aytadi. Bolalar tish cho‘tkasiga pastani surtib, ifloslangan tishni maketini tozalab yuvishadi. Natijada tish toza bo‘lganini bolalar ko‘radi.



**Xulosa:** bolalar tishlarini doimiy yuvib yurishsa tishlarda koreys paydo bo‘lmashagini bilishadi.

### Tajriba №3

**Mavzu:** Tirnoq ostidagi kirlarni ko‘rish

**Maqsad:** bolalarga qo‘llar yuvilmaganda, tirnoqlar olinmaganda tirnoq ostidagi kirlarni ko‘rsatib, zararli xususiyatlarini tushuntirish, tirnoq ostidagi kirlarni lupada ko‘rsatish.

Kerakli jihozlar: lupa, ifloslangan tirnoqlar kumli idish, mavzuga oid rasmlar.

**Tajribaning olib borilishi:** bolalar qumli idishda qum o‘ynashadi. Qo‘llar yuvilmaganda tirnoq ostida kirlar qolib ketadi. O‘yin davomida qum va tirnoq ostidagi hosil bo‘lgan kirlarni lupa yordamida ko‘rishadi. Shundan so‘ng bolalar qo‘llarinisovun bilan yuvib, lupuda tirnoq ostini kuzatishadi va kirlar yuvilib ketganini ko‘rishadi.

**Xulosa:** bolalar qum bilan o‘ynash jarayonida tirnoq ostida har xil zararli mikroblar hosil bo‘lishi va qo‘l yuvilmaganda mikroblarni qolib ketishini bilib olishadi.

### Tajriba №4

**Mavzu:** Sochlarni toza tutish gigiyenasi

**Maqsad:** bolalarga yuvilmagan soch bilan yuvilgan sochni farqlab, sochlarni toza tutish gigiyenasi o'rgatish

**Kerakli jihozlar:** qo'g'irchoq, chelakcha, tog'oracha, soch yuvish vositasi, cho'mich, sochiq

**Tajribaning olib borilishi:** bolalar ishtirokida qo'g'irchoqning sochlari suv bilan namlanadi va soch yuvish vositasi surtilib qo'g'irchoqning sochlari ko'pirtiriladi. Shundan so'ng sochlар toza suv bilan chayiladi. Yuvilgan sochlар sochiq yordamida quritiladi. Bolalar tog'orachadagi ifloslangan svnni ko'rishadi.

**Xulosa:** Bolalar tog'orachagadagi ifloslangan suvdan sochlарimizda ham kirlar paydo bo'lishi va sochlарimizni yuvib yurimiz kerakligi to'g'risida bilib olishadi.

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Lupa bilan tanishtirish va tajriba o'tkazish.

**Maqsad:** tuproq va qumni lupa orqali ko'rish va ulan nima uchun katta hajmda ko'rinayotganligini bola ongiga singdirish.

**Kerakli jihozlar:** lupa, maxsus idishda tuproq va qum aralashmasi.

**Tajribaning borishi:** maxsus idishdagi aralashmani bolalar lupa orqali kuzatadilar. Tuproq va qumning farqini, shaklini, rangini o'rganadilar. Lupasiz shu harakatlarni qayta takrorlaydilar va hodisani tahlil qiladilar.

**Xulosa:** lupa orqali mayda zarrachalarni yirik tarzda ko'rinishini bilib oladilar.

### **Tajriba №2**

**Mavzu:** Lupa yordamida barglarni tomosha qilish.



**Maqsad:** manzarali va mevali daraxtlarning barglarini lupa orqali kuzatish, barg tomirlarini ko'rish va ularni tahlil qilishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** lupa, manzarali va mevali daraxtlarning barglari.

**Tajribaning borishi:** bolalar lupa orqali manzarali va mevali daraxtlarning barglarini

ko'rardilar, nimadan tashkil topganligini tahlil qiladilar.

**Xulosa:** lupadan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar.

### **Tajriba №3**

**Mavzu: Lupa orqali matolarni kuzatish.**

**Maqsad:** lupa orqali har xil turdag'i matolarni sifatini kuzatish va lupa nima uchun kerakligini bola ongiga singdirish.

**Kerakli jihozlar:** lupa, bir xil o'lchamdag'i har xil turdag'i mato bo'lakchalar'i .

**Tajribaning borishi:** bolalar lupa orqali har xil turdag'i matolarni olib kuzatadilar va mato sifatini farqlaydilar.

**Xulosa:** lupa orqali matolarni kuzatish va farqlash.

#### **Tajriba № 4**

**Mavzu: Lupa bilan tanishtirish va tajriba o'tkazish.**

**Maqsad:** bolalar lupa orqali o'z barmoqlarining izlarini kuzatishga va yo'nalishlarini aniqlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** lupa , maxsus rangli namlangan mato, namli qo'l sochiqlar, oq qog'oz.

**Tajribaning borishi:** Bolalar barmoqlarini rangli namlangan matoga bosishib, qog'ozga o'z qo'l izlarini qoldiradilar va lupa orqali kuzatadilar

**Xulosa:** lupa orqali bolalar o'z barmoq izlarini bir-biridan farqlanishini kuzatadilar.

### **Daraxtning hususiyatlari**

#### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Daraxtning xususiyatlari

**Maqsad:** daraxtning xususiyatlari haqida tushuncha berish va suvda cho'kish cho'kmasligini kuzatish

**Kerakli jihozlar:** tog'orada suv, ikkita katta va kachik daraxt bo'lagi, ikkita stakan biri shishali, biri yog'ochli, 2 pufak.

**Tajribaning borishi:** tog'oradagi suvg'a katta va kichik daraxt bo'lagini solamiz, ular cho'kmadi.

**Xulosa:** daraxt suvda cho'kmaydi

#### **Tajriba №2**

**Mavzu:** Daraxtning issiq-sovuqligini tekshirish

**Maqsad:** daraxtning tarkibi va uning issiq sovuqga chidamliligini tushuntirish.

**Kerakli jihozlar:** stakan, daraxt bo'laklari, temir trubacha, plastilin

**Tajribaning borishi:** stol ustida daraxt bo'laklari va temir truba bor. Daraxt bo'lagini bir yuzingizga, temir plastinani ikkinchi yuzingizga





qo‘ying. Qaysi issiqroq? Demak daraxt bo‘lagi issiqni ushslash xususiyatiga ega. Undan uy qursa bo‘ladi.

**Xulosa:** daraxt issiqni saqlagani uchun uy qurish mumkin.

### Tajriba №3

**Mavzu:** Daraxt va temir bo‘lagini farqlash

**Maqsad:** daraxt va temir bo‘lagini farqlash

**Kerakli jihozlar:** daraxt bo‘lagi, mix, temir, plastina, bolg‘acha

**Tajribaning borishi:** daraxt bo‘lagiga mix qoqamiz, mix daraxtga oson qoqiladi. Endi mixni metall plastinaga qoqomiz. Mix qoqilmadi.

**Xulosa:** daraxt metalga nisbatan yumshoqligi aniqlandi.

### Tajriba №4

**Mavzu:** Daraxtlarni kuzatamiz va farqlaymiz.

**Maqsad:** yengil yoki og‘irligini bilish.

**Kerakli jihozlar:** daraxt bo‘lagi, temir bo‘lagi, suv, stakan.

**Tajribaning borishi:** suv quyilgan stakanka daraxt va temir bo‘lagini solamiz. Nima uchun temir bo‘lagi cho‘kdi? Daraxt bo‘lagi esa suzib yuribdi.

**Xulosa:** temir og‘ir bo‘lgani uchun, daraxt bo‘lagi esa yengil bo‘lgani uchun cho‘kmadi.

## Bug‘doy va unning xususiyatlari

### Tajriba №1

**Mavzu:** Suvda bug‘doy undirish

**Maqsad:** tajriba orqali bug‘doyni suvda qanday undirishni o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** suv, idishlar, bug‘doy donalari, qum

**Tajribaning borishi:** tovoqchalarga bug‘doy donlari qo‘yiladai, uchta tovoqchadagi bug‘doy donlariga suv solinadi, birinchisiga ko‘proq suv solamiz, ikkinchisiga sepib qo‘yamiz, uchinchisi shunday qoldiriladi va uch kun kuzatiladi.

**Xulosa:** tez-tez suv solingan idishdagi bug‘doy tez unadi. Sepilgani asta unadi. Suv solinmasa o‘z holicha qoladi.

### Tajriba №2

**Mavzu:** Tayyorlangan bug‘doyni o‘stirish.

**Maqsad:** bug‘doyni yerda qanday o‘sishini o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** namlangan bug‘doy, doka, qum solingan idish, qoshiqcha

**Tajribaning borishi:** suvda ivitilgan bug‘doy uchta tuvakka ekiladi, qumga tez-tez suv qo‘yiladi. Ikkinchisiga sepib qo‘yiladi. Uchinchisiga

umuman suv quyilmaydi. Bolalar har uchala bug‘doyni qanday o‘sishini kuzatishadi.

**Xulosa:** yumshatilgan vaqtida suv berilgan bug‘doy yaxshi o‘sadi. Suv quyilmasa qurib qolishini bilib olishadi.

### **Tajriba №3**

**Mavzu:** Bug‘doyning foydali tomonlari

**Maqsad:** bolalarga o‘stirilgan bug‘doyni foydasi haqida tushuncha berish

**Kerakli jihozlar:** bug‘doy donalari, filtrlangan suv, idish, doka

**Tajribaning borishi:** bug‘doyni botib turguncha suv solib, 8-10 soat shishishi uchun qo‘qib qo‘yamiz, suv filtrlangan bo‘lishi kerak. Urug‘ shishgach doka yopib qo‘yamiz, har kuni dokani namlab qo‘yamiz. Bir, ikki kun o‘tganch bug‘doy o‘sishi boshlanadi va yam-yashil bo‘ladi.

**Xulosa:** o‘sgan bug‘doydan ovqatlarda vitamin sifatida foydalanish mumkin.

### **Tajriba №1**

**Mavzu:** Oymomo pecheniysi

**Maqsad:** pecheniy tayyorlash jarayonini tanishtirish

**Kerakli jihozlar:** un, tuxum, tuz, shakar, ichimlik sodasi, sariyog‘, sut, taxtakach, jo‘va, kurakcha, qo‘shiqcha.

**Tajribaning borishi:** xamir uchun un, yog‘, tuchush, shakar, ozgina soda solib yaxshilab aralashtirish xamir solamiz. Taxtacha ustiga xamir yopishmasligi uchun ozgina un sepamiz. Pichoq bilan ozgina xamir kesamiz va juvada yoyamiz. Shaklchalarni olib xamir ustidan bosamiz va pecheniy shaklini hosil qilamiz. Pecheniylarni pishirish uchun pechga qo‘yamiz.

**Xulosa:** bolalar ko‘rsatilgan masalliplardan pecheniy pishirishni o‘rganishdi.

### **Tajriba №2**

**Mavzu:** Sho‘r xamirdan pecheniy tayyorlash

**Maqsad:** sho‘r xamirdan har xil pecheniylar tayyorlashni o‘rganish

**Kerakli jihozlar:** tuz, suv, un.

**Tajribaning borishi:** un, tuz, suv bilan sho‘r xamir tayyorlaymiz. Xamirdan bo‘laklar olib undan oymomochalar yasaymiz. Xamir quriganch ustini bezaymiz.

**Xulosa:** sho‘r xamirdan xoxlagan shaklda pecheniylar yasashni o‘rganishdi.

### **Tajriba №3**

**Mavzu:** Uvalanuvchi pecheniy

**Maqsad:** uvalanuvchi pecheniy tayyorlash usuli va pishirishni o‘rgatish

**Kerakli jihozlar:** patnis, taxtakach, jo‘va, shaklchalar, ko‘pirtigich, xamir uchun mahsulot, idishlar, qo‘shiq.

**Tajribaning borishi:** sxema bo‘yicha xamir tayyorlanadi. Xamirdan bo‘laklar olib yoyamiz va shakllar kesib olamiz. Pechda pishiramiz.

**Xulosa:** uvalanuvchi pecheniy qo‘l bilan teginganda uvalanib ketadi.

**Mavzuni mystahkamlash  
uchun inter faol metod:  
ESSE yozing.**



**“Rivojlantiruvchi “Ilm fan va tabiat” markazning bola  
rivojlanishida ta’siri mavzusida ESSE yozing.**

**Mavzuga oid ilmiy adabiyotlardan o‘rganish va ma’lumotlar  
to‘plash.To‘plangan ma`lumotlar asosida “ESSE” tayyorlash.**

Esse hajmi taklif qilingan mavzudagi 1000 so‘zdan 5000 so‘zgacha bo‘lgan asardir.Dalillangan esse bu qyilgan savolga dalillangan javob mavjud bo‘lgan yozma ishdir. Muallif muayyan pozitsiyaga ega va uni himoya qiladi, o‘z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad - muallif o‘zi qo‘llaydigan nuqtai nazarga boshqalarni ham ishontirishni xohlaydi.

Dalillangan essening tuzilishi:

- masala yuzasidan muallifning nisbiy nuqtai nazarini bildirish (1 xatboshi).
- aytilgan pozisiyaning dalillanishi – muallifning shu pozisiyani qo‘llash uchun ishonarli dalillari bunday pozisiyani qabul qilishga ishontiradi.
- xulosa – rezyume (1 xatboshi).
- dalillangan esseni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari: mazmunning mavzuga muvofiqligi;
- muammoni ko‘rish, unga munosabat, o‘zining nuqtai nazari, dalillarning ishonchliligi;
- uslub: bayonning aniqligi, ochiq-ravshanligi;
- yozish qoidalariga rioya qilish.

## **6-MODUL: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISH**



**Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar**

### **Reja:**

1. Tabiat burchagining tashkil etishda qo'yiladigan talablar.
2. Tabiat burchaging tarkib topishidagi qisimlari.
3. Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil etish.

**Tayanch tushunchalar:** *tabiat burchagi, derazadagi tomorqa burchagi, metodik burchak, o'zin burchagi, turli guruhda tabiat burchagini tashkil etish, o'simlik va hayvonlarni joylashtirishdagi talablar.*

### **1. Tabiat burchagining tashkil etishda qo'yiladigan talablar.**

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar maktabgacha ta'lism tashkilotlarida jonli tabiat burchagini bo'lishidir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va sistemali tarzda tanishtirish ularda jonli tabiat burchagida yashovchilar haqida chukur va puxta bilimlarni, mexnat, malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilish, kuzatuvchanlikni o'stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko'nikmalar asosida tabiatga ehtiyyotkorona munosabat ham, unga qiziqishi ham tarbiyalanadi.

Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha hayvonlarga, ularning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan hayvon va o'simliklarning xilma-xilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan obyektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko'rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## **Tabiat burchagi uchun qo‘yiladigan talablar:**

1. O‘simlik yoki hayvon biron bir aniq, tur uchun xos bo‘lishi kerak.
2. Tabiat burchagida yashovchilar «beozor» ko‘p mehnat talab qilmaydigan, ovqat tanlamaydigan, bolalar yoshiga mos bo‘lishi kerak.
3. Tabiat burchagida yashovchilar yorqin, jozibador, bolalar diqqatini o‘ziga jalg qilib tura oladigan bo‘lishi zarur.
4. Bir turdag'i o‘simlik va hayvonlarni bir necha xili bo‘lishi kerak.
5. Tabiat burchagida yashovchilar tamoman xavfsiz va bolalar sog‘ligiga hech qanday zarar yetkazmasligi shart.
6. Tabiat burchagida yashovchi o‘simliklar va hayvonlar soni cheklangan va biologik xususiyatlari hisobga olingan holda joylashtirilishi kerak.

## **MTTda tabiat burchagidan obyektlarga qo‘yiladigan talablar:**

1. Tabiat burchagi obyektlari dasturning maqsadlariga mos kelishi va ularni amalga oshirishga hissa qo‘shishi kerak.
2. O‘simliklar va hayvonlar bolalar uchun xavfsiz bo‘lishi kerak. Tabiat burchagidagi obyektlar murakkab parvarishni talab qilmasligi kerak.
3. Tabiat burchagi obyektlari orasida himoyalananadigan yoki soni ahamiyatsiz bo‘lgan o‘simliklar, hayvonlar bo‘lmasligi kerak.
4. Tabiat burchagi obyektlari o‘zgarishi kerak, doimiy yashovchilar vaqtinchalik bo‘lishi kerak. Bu yangi ma'lumotlarning doimiy oqimini ta'minlaydi - bolalarning bilim qiziqishlarini rivojlantirishning muhim sharti.
5. Tabiat burchagini joylashtirish va jihozlash. Tabiatning burchagi xonaning yorqin qismida joylashgan bo‘lishi kerak, bu uning ko‘pchilik aholisi uchun qulay sharoit yaratadi. Uni joylashtirish uchun standart va nostandard uskunalar ishlataladi.

## **O‘simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishdagi talablar.**

Tabiat burchagidagi mebel derazalar yoniga yoki ular orasidagi bo‘shliqlarga joylashtiriladi, lekin isitish tizimlari yonida emas. Xona o‘simliklarni joylashtirishda ularning yorug‘lik talablari hisobga olinadi. Nurni yaxshi ko‘radigan o‘simliklar yorug‘lik manbasiga yaqinroq joylashtiriladi. Yorug‘likni yoqtirmaydigan o‘simliklar kamroq yoritilgan joylarga joylashtiriladi.

Xona o‘simliklarning toji bir xilda rivojlanishi uchun vaqt -vaqt bilan yorug‘lik manbasiga nisbatan o‘z o‘rnini o‘zgartirish kerak. Yopiq o‘simliklarni joylashtirishda siz dekorativ effekt haqida g‘amxo‘rlik qilishingiz kerak. O‘simliklarni bir xil havo haroratida yetishtirish kerak

(3-6 ° S gacha bo‘lgan tebranishlar zararli emas). Chizmalar o‘simliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ularni qoralama bo‘lmagan joyga qo‘yish kerak.

Tabiat burchagini saqlash uchun barcha jihozlarni bizning do‘kondan sotib olish mumkin.

Hayvon va o‘simliklarni tabiat burchagida saqlash, joylashtirishda birinchi navbatda ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlari nazarda tutilishiga e’tibor berish kerak.

Masalan: Ba’zi bir xona o‘simliklari (chiroqgul, kaktus) quyosh nurlarini ko‘proq talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug‘ joyga qoyish lozim. Boshqalar (gunafsha) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Tabiat burchagi ko‘zni quvontirishi, xonani bezashi lozim. Nihoyat obyektlarni shunday joylashtirish lozimki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari tabiat burchagini kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari kerak. Agar imkon bo‘lsa, har bir guruh bolalari keng foydalana oladigan umumiy jonli burchak tashkil etilsa, yanada ham yaxshi bo‘ladi. Bunda istagan guruh bolalari ekskursiya qilib kelib ko‘radi, tanishadi, o‘rganadi Bunday jonli tabiat burchagida tulki quyon, tovuq, echki kabilarni parvarishlash mumkin Bundan tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o‘ziga xos hayotiy va biologik tomonlari bo‘lib, uni har bir tarbiyachi yaxshi bilishi zarur.

Tabiat bola uchun ma’naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo tabiat bilan aloqada. Hayvonot dunyosining xilma-xilligi qiziqish uyg‘otadi, bolalarni faollikka undaydi. Tabiat bilan uchrashish ularda tevarak-atrof haqida real bilimlarni shakllantirishga, tirik mavjudotlarga insonparvarlik munosabatini tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri - bolani tabiat olami bilan tanishtirish, uni tushunishga o‘rgatish, unga nisbatan hurmatli munosabatni tarbiyalash. Bu muammoni bolalar tabiat haqida boshlang‘ich bilimga ega bo‘lganda hal qilish mumkin oddiy usullarda o‘simliklarni yetishtirish, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish. Ya’ni, buning garovi nafaqat nazariy tushunish, balki amaliy bilim va ko‘nikmalar: masalan, bolalar uchun o‘rmonda, dalada, o‘tloqda qanday o‘simliklar borligini bilishning o‘zi yetarli emas, ularni xarakterli xususiyatlariga ko‘ra farqlash kerak.

Bolaning ekologik tarbiyasi metodologiyasiga biotsentrik yondashuv tirik tabiat obyektlarini bolaning obyektiv muhitiga, uning hayoti fazosiga olib kirish zarurligini ilgari suradi. Bunga maktabgacha ta’lim tashkiloti hududida jonli burchakni tashkil etish yordam beradi.

Har bir guruh uchun obyekt tanlashda guruh bolalarining yosh xususiyatlarini, bilim darajasini, bog'chaning tabiiy sharoitini hisobga olish lozim, hamda o'simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning predmetlarni idrok etish xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. Shuningdek ta'limiy masalalar nazarda tutiladi.

Jonli tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim. Ular quyidagilardir:

- o'simlik yoki hayvon u yoki bu ekologik guruhga xos bo'lishi lozim. Bunda bolalarni o'simlik va hayvonlarning katta guruhi uchun xarakterli bo'lgan, asosiy, o'ziga xos belgilari, yashash sharoitlari bilan tanishtirish imkoniy yaratiladi;

- tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish, qilinadigan mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos (tarbiyachining ishtiroti va rahbarligi ostida) bo'lishi lozim. Shuning uchun «beor» o'simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi;

- tabiat burchagidagi hayvon va o'simliklar tashqi ko'rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hali unchalik barqaror bo'limgan diqqatini o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi kerak;

- tabiat burchagida bu turdag'i o'simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo'lishi lozim. Chunki bolalar kuzatish obyektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o'ziga xos xususiyatlari belgilarni xham ko'ra olishlari kerak. Bu bolalarning tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini bilib olishlariga yordam beradi;

- tabiat burchagida o'simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo'lishi, bolalarning sog'liqlariga hech qanday zarar yetkazmasligi lozim;

- o'simlik va hayvonlarning bolalar muassasasi binosidagi hayot faoliyati, o'sishi va rivojlanishida binoning doimiy haroratini, karbonat angidrid gazining konsentratsiyasini, quruqligini, shovqin-suronning mavjudligini hisobga olish lozim.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishda, birinchi navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga e'tibor berish lozim. Masalan, ba'zi xona o'simliklari (chiroqgul, kaktus va boshkalar) quyosh nurini ko'proq bo'lishini talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim, ba'zilari esa (masalan, uzambarg gunafshasi) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Shu bilan birga jonli tabiat burchagi ko'zni quvontirishi, bezashi lozim. Bunda, obyektlarni shunday joylashtirish kerakki, bolalar ularning yoniga bemalol

kela olishlari, kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari mumkin bo'lsin.

Tabiat burchagida yashovchilarni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin. Doimiy yashovchilarga xona gullari, qafasdagagi qushlar, akvariumdagi baliqlar, katta guruhlarga esa hayvonlar kiradi. Vaqtincha yashovchilarga qisqa muddatga olib kiriladigan mahalliy o'lka o'simligi, hayvonlar, dastlabki bahorgi gullar, kuzda qiyg'os gullaydigan gulxonadagi dekorativ o'simliklar, xonadagi manzarali o'simliklar, hasharotlar va shu kabilalar kiradi.

## **2.Tabiat burchagini tarkib topishidagi qismlari.**

Tabiat bilan tanishtirish burchagi nechta kichik qismlarda tashkil topish maqsadga muvofiqdir:

### **Metodik burchak**

Burchakda -bolalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan materiallar bilan ishlash qoidalari, shartli belgililar, ruxsat beruvchi va ta'qiqlovchi belgililar. Shuningdek, turli sxemalar, ota-onalar uchun ma'lumotlar (maslahat va tavsiyalar), tarbiyachining bolalar bilan hamkorlikda olib borilgan kuzatuvlari va tajribalari qayd qilingan kundaliklar

### **"Hamma narsani bilishini xohlayman" burchagi**

Ushbu burchakda kitoblar, ensiklopediyalar, atlaslar, albomlar (yil fasllari, daraxtlar, o'simliklar dunyosi, tabiat hodisalari, hashorat, qushlar, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar) bo'ladi. Burchakning talab darajasida jihozlanishi bolalarga kitoblar bilan mustaqil ishslash, kerakli ma'lumotli olish imkonini beradi.



**Tabiat burchagi**

Tabiat burchagi jonli tabiat bo'yicha vazifalarni ijobiy hal qilishga o'simliklar qismlari vazifalar, o'simliklar nima bilan nafas olishi oziqlanishi, rivojlanishi bilan tanishtirish imkonini beradi.

Bu burchakda navbatchilar uchun formulalar suv qo‘ygichlar, purkagichlar, matolar, belkurakchalar, mavzuli albomlar, (dala gullari, bog‘ gullari xonaki gullar, hashoratlar) tabiat kalendari turadi.



### “O‘yin” burchagi

Bu yerda ekologik o‘yinlar, pazllar, “Kim qayerda yashaydi?”, “Hayvonlar”, “O‘simliklar- bizning do‘stimiz”, “Zoologik loto ”, “Kim nima bilan oziqlanadi ? “ Yil fasllari” va boshqa o‘yinlar turadi. O‘yinlarda bolalar tajriba yo‘li orqali olgan bilimlarini mautahkamlaydi.

### “Tabiat ustaxonasi” burchagi

Bu burchak bolalarning mustaqil faoliyati uchundir. Burchakda bolalar tabiat materallari bilan tanishish bilan birligida, ulardan narsalar yasaydi. Bu yerda tabiat materiallari (loy, bo‘r, qum, daraxt po‘stloqlari, turli o‘simliklar urug‘lari va mevalari) va qo‘shimcha jihozlar ( kley, plastilin, matolar, qog‘oz) kerak bo‘ladi.

Bolalar tomonidan yaratilgan ijod namunalari, rasmlar, qo‘l ishlari, san’at markazida namoyish qilinadi. Vaqt vaqt bilan kichik ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. Bu narsa yana bir bor bolaga atrofimizni o‘rab turgan olam haqiqatini anglashga , hissiy-sezish tajribasi orqali ijobiy dunyoqarashni shakllantiradi.



## 7 “Derazadagi tomorqa”

Bu tomorqada piyoz, sarimsoq piyoz, loviya, makkajo‘xori, shivit, bulg‘or qalampiri, pomidor kabi o‘simliklar nihollarini ekish va o‘stirish mumkin. Bunda bolalar o‘simlikning o‘sishi, o‘sish sharoitini uzoq vaqt kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqiy faoliyat davomida kuzatuv kundaligi yuritib boriladi, unda tarbiyachi bolalar bilan hamkorlikda kundalik kuzatuv natijalari bo‘yicha xulosalarni qayd qilib boradi. Shunday qilib, tajriba uyg‘unlashuvi bolaga bilim tajribasi orqali egallashga yordam beradi. Agar tadqiqodchi bola pedagog va ota-onasi tomonidan qullab-quvvatlansa, bu boladan kuzatuvchan, mustaqil xulosa chiqaruvchi, mantiqiy fikrlovchi, hayoti davomida atrofni o‘rab turgan narsalar orasidan qiziqarli va noodatiylarini topuvchi, o‘zini o‘rab turgan narsalarga nisbatan hayrat va qiziqish bilan qarovchi tadqiqotchi bola yetishib chiqadi.

### 3.Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil etish.

**Kichik yosh guruhining tabiat burchagi.** Kichik guruh tabiat burchagi uchun o‘simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etish xususiyatlari shuningdek, ta’limiy masalalar nazarda tutiladi. Kichkintoylar 2— 3 xil o‘simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlari lozim.

Ikkinci kichik guruhdagi bolalar o‘simliklami parvarish qilishga jalb qilinadilar: ular o‘simlikJarga suv quyadilar (suvni kattalar tayyorlab beradi, qancha quyish lozimligini ham ular ko‘rsatishadi), nam latta bilan o‘simliklarning barglarini artadilar. Hayvonlarni kuzatar ekanlar, bolalar hayvonlarni tashqi aniq belgilariga: gavda qismlari, harakatlanish xarakteri, chiqaradigan ovozlari va hokazolarga ko‘ra tanib olishni, tanasining asosiy qismlarini farqlashni o‘rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarni kuzatishga, savolni anglashga, diqqatni kuzatilayotgan narsaga qaratib, uncha murakkab bo‘lmagan harakatlaridan foydalanishga, kuzatish jarayonida berilgan savollarga javob qaytarishga o‘rgatadi.

Kichik yosh guruhning tabiat burchagiga asosiy qismlari (poyasi, bargi) aniq ifodalangan va yorqin, qiyg‘os hamda uzoq gullaydigan o‘simliklar joylashtiriladi. Masalan: xina, azaliya, fuksiya, xitoy atirguli va hokazolar. Aytib o‘tilgan turlardan yil davomida kuzatish uchun 3—4 o‘simlik tanlanadi. Ularning ba’zilari 2 nusxada bo‘lishi lozim. Bular ichidan bolalar bir xil o‘simliklami topib, ajratib ko‘rsatishni o‘rganadilar.

Ilk yoshdagilarning ikkinchi guruh tabiat burchagiga akvarium joylashtiriladi. Akvariumga kichkintoylarning idrok etish xususiyatlaridan

kelib chiqib, chiroyli rangdagi, yilning ko‘p qismida faol yashaydigan, ozuqani shoshib pishib yeydigan baliqlarni tanlash lozim (masalan, oddiy tilla baliq, tilla yoki kumush rangdagi tovon baliqlar). Kichik yosh guruhlarning tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o‘zi xushchaqchaq bo‘lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashi maqsadga muvofiqdir. Kanareyka xuddi shunday qushlardandir. Biroq imkon bo‘lsa, sa’va, snegirni saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sut emizuvchilarni doimo saqlash mumkin emas.

**O‘rta yosh guruh tabiat burchagi.** O‘rta yosh guruhdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilmassalligi, rangi, kattaligi, sathining xarakteri va shu kabilar) ko‘ra olish malakasi hosil qilinadi. Bolalar solishtirib ko‘rishning murakkabroq usullarini egallaydilar, narsalarning farqi va o‘xshashligini aniqlashni, ularni u yoki bu belgilariga ko‘ra umumlashtirishni o‘rganadilar. O‘simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. Bolalar o‘simliklarning xususiyatlarini aniq farqlashni boshlaydilar, ularning hayotlari uchun zarur bo‘lgan sharoitlari bilan tanishadilar. Shu bilan bolalar ko‘rganda taniydigan hamda nomlarini biladigan o‘simliklar soni ortib boradi.

Besh yoshga qadam qo‘ygan bola hayvonlar bilan tanishar ekan, ularning tashqi ko‘rinishi, tuzilishi, harakat qilishi, ovqatlanishining o‘ziga xosligini va dastlabki bog‘liqlik — harakat qilish xarakteri oyoqlarining tuzilishiga bog‘liq ekanligini bilib oladi.

Jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish jarayonida bolalar unchalik murakkab bo‘lmagan ko‘nikmalarni egallaydilar: bular — o‘simlikni toza saqlash, uni to‘g‘ri sug‘orish, suvdon va oxur (donxo‘rak)larni yuvish, ozuqa berish kabi. Bu yoshdagi bolalar o‘simlik va hayvonlarni kuzatar ekanlar, ularning o‘sishi va rivojlanishidagi o‘zgarishlarni qayd qiladilar, o‘z kuzatishlarini to‘g‘ri gapirib berishni o‘rganadilar. O‘rta yosh guruhdagi bolalarning jonli tabiat haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida tabiat burchagini aholisini to‘ldirib, boyitib turish talab qilinadi. Xona o‘simliklari turli shakl va hajmdagi barglarga ega bo‘lishi lozim, chunki bolalar o‘simliklarni ozoda saqlashning o‘zлari uchun yangi bo‘lgan usullarini egallaydilar, egilgan barglarni mo‘yqalam bilan artadilar, gullarga suv purkaydilar. Bunda bolalar parvarish qilish usulini barglarning xarakteriga: kattaligi, miqdori, sathining xarakteri, pishiqligiga ko‘ra aniqlashni o‘rganadilar. O‘rta yosh guruh jonli tabiat burchagida doimiy yashovchilar sifatida sut emizuvchilarni ham saqlash mumkin. Bu yoshdagi bolalar ularni parvarish

qilishning oddiy malakalarini bemalol egallay oladilar. Xatti-harakatiga ko‘ra qiziqarli bo‘lgan dengiz cho‘chqasi va siriya og‘maxonlarini joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Ularni parvarish qilish qiyin emas, ular vaqt va muhitga oson shakllanadigan jonivorlardir.

### **Katta guruh tabiat burchagi.**

Katta guruhda narsalarni kuzatish, solishtirib ko‘rish, ularni turli belgilariga ko‘ra umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi. Kuzatishlarning asosiy mazmuni o‘simplik va hayvonlarni o‘sishi hamda rivojlanishini, ularning mavsumlarda o‘zgarishlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Bolalar o‘simplik o‘sishi uchun yorug‘lik, nam, issiqlik, tuproqdan oziqlanishini, turli o‘simplik turli miqdordagi yorug‘lik va namlik talab qilishini bilishlari kerak.

Bolalarni o‘simpliklar, ularning tashqi tuzilishining xususiyatlari, faqat barglarigina emas, balki poya va gullarining ham xilma-xilligi bilan tanishtirish davom ettiriladi. O‘simpliklarni parvarish qilish usuli asosida barg va poyalarni xarakteriga ko‘ra aniqlash, o‘simplikni ozoda saqlash ko‘nikmasi mustahkamlanadi. O‘simpliklarni o‘rganishda ularni ko‘paytirishning ba’zi usullari, jumladan, poyasini “qalamcha” qilib ko‘paytirish haqidagi bilimlar ham kiritiladi. Bulamingbarchasi jonli tabiat burchagini yangi o‘simpliklar — xilmaxil poyali, chirmashadigan, yoyilib o‘sadigan yoki tik poyali, piyozli, kartoshka piyozli va shu kabilar bilan to‘ldirib borishni talab qiladi. Tradeskansianing 2—3 xil turi, xona uzumi, plush, chirmashuvchi fakus, aloe, zigokaktus, epifdlyum, siklamen, primula, amarilis, kiavniya kabilar shular qatoriga kiradi. Bu o‘simpliklarning shakli va barglari, poyasi, gullari xarakteriga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, quyosh nuri va suvga ehtiyojlari ham turlichadir.

Katta guruh bolalarining jonli tabiat burchagi uchun hayvonlarni tanlashda asosiy vazifa hayvonlarning yashash muhit sharoitlariga moslashish xususiyatlari haqidagi boshlang‘ich bilimlarni shakllantirishni ta'minlashdir.

Akvariumda issiqsevar, tirik tutiladigan va ikra tashlaydigan baliqlar guruhi — mechenosets, skalyariy, guppi va shu kabilarni saqlash maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh tabiat burchagida toshbaqaning istalgan turini saqlagan yaxshi. Odatda bu jonivor qishda qisqa muddatli uyquga ketadi. Agar toshbaqa tabiat burchagida bir necha yildan beri yashayotgan boisa u uxlamasligi mumkin, biroq u bu davrda lanj bo‘lib qoladi, ozuqani istaristamas yeydi. Bunday holatning sababini hamda uning yashashi uchun mos sharoitni faqat mакtabgacha ta’lim yoshidagi katta bolalar

tushunishlari va yaratishlari mumkin. Sutemizuvchilarni tanlash ham juda xilmaxildir. Bu guruh burchagida “dengiz cho‘chqasi”dan tashqari tipratikan, olmaxon ham bo‘lishi kerak. Olmaxon tabiat burcha gida yashovchi boshqa sutemizuvchilarga nisbatan mavsumlarda o‘z hayot tarzini ko‘proq o‘zgartiradi. Bu o‘zgarishlar hayvonlarning tabiatdagi hayot sharoitlariga bog‘liqligini maktabgacha ta’lim yoshidagi katta bolalar bilishlari kerak.

**Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagi.** Tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ularda tabiat olamidagi muhim bog‘liqliklar — o‘simliklarning kompleks sharoitlarga (namlik, issiqlik, yorug‘lik va shu kabilar), hayvonlarning tashqi tuzilishi va hayot tarzi, yashash muhitiga bog‘liqligi haqida elementar bilimlarni shakllantirishdir. Bolalar turli mavsumlarda o‘simlik va hayvonlar hayotida sodir bo‘layotgan doimiy takrorlanuvchi o‘zgarishlar, ularning o‘sish va rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishadilar.

O‘simliklar dunyosi haqidagi bilimlar mazmuniga ularni ko‘paytirishning ba’zi usullari haqidagi bilimlar kiritiladi. Bolalar narsalarning muhim, umumiyligi belgilarini ularning o‘zgaruvchanligiga ko‘ra bilishlari kerak. Shunga ko‘ra o‘simlik va hayvonlarni tanlashda faqatgina tuzilishlarining xilma-xilligiga emas, balki muhitning ma'lum sharoitlarga moslashganligiga ham e'tibor beriladi. Bolalar o‘simliklarni sug‘orish (suvning miqdori va sug‘orishning takrorlanishi) o‘simlikning tabiatdagi yashash muhitiga (tropik botqoqliklar va soy, changalzorlar, quruq cho‘l va dashtlar), shuningdek, yil fasllariga bog‘liqligini anglab olishlari uchun jonli tabiat burchagiga, yilning 10 oyi davomida juda nam tuproqda o‘sadigan papirusni, suvni kam talab qiladigan va ondasonda sug‘oriladigan *kaktusni* (1–2 turini), namga ehtiyoji katta bo‘lgan *pirimula*, *tradiskantsiyani* hamda o‘rtacha sug‘orishni talab qiladigan *uzambarg gunafshasini* qo‘yish zarur. Qishda ko‘pgina subtropik o‘simliklar sug‘orishni uncha ko‘p talab qilmaydi.

Tabiat burchagidagi o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini tabiiy sharoitdagi o‘sish sharoitlari bilan aloqasi haqida boshqa o‘simliklar ham, ayniqsa liliya va amarillis oilasiga taalluqli bo‘lgan — amarillis, kliviya, krinum, dratsena, gemantis va shu kabilar dalolat beradi. Mazkur o‘simliklar uchun qishning birinchi davri — tinchlik davri bo‘lib, bu vaqtida sug‘orish deyarli to‘xtatiladi.

Xona o‘simliklarini ko‘paytirish usullari xilma-xildir: *yorongul*, *begoniyareks*, sanseyvera va boshqalar novdalaridan, aspidistra, asparagus va shu kabilar butoqchalaridan ko‘paytiriladi.

“Tirik tug‘iluvchi” o‘simliklardan — toshyorar, xlorofitum, briofillyum bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Akvariumdagi baliqlar ham (ularning 23 turi bo‘lishi kerak) mahalliy suv havzalaridagi issiqsevar baliqlardir. Bu guruhlarning har biri, garchi unchalik murakkab bo‘lmasada, boqishda alohida sharoit talab qiladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida tutqunlikda bola ochadigan qushlarni, yozda esa maydonchada tovuq, o‘rdaklarni (mahalliy sharoitga ko‘ra) boqish maqsadga muvofiqdir. Sutemizuvchilardan tabiat burchagida istalgan jonivor, ayniqsa hayot tarzi mavsumga muvofiq o‘zgaradiganlarini (tipratikan, olmaxon), bog‘cha hovlilarida esa katta bolalar quyonlarni parvarishlab boqishlari mumkin.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Quyosh nurini ko‘proq talab qiladigan xona o‘simliklarini ayting
2. Tabiat burchagi uchun qandat talablar qo‘yilgan?
- 3.“Hamma narsani bilishini xohlayman” burchagida nimalar bo‘ladi?
4. O‘rta guruh yoshidagi bolalar tabiat burchagidan nimalarni bilib oladilar?
5. Namga ehtiyoji katta bo‘lgan o‘simliklarga nimalar kiradi?
6. Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida qanday hayvonlar bo‘ladi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



1.chiroqgul, kaktus qanday o‘simliklar?

a) soyasevar

b) quyosh ko‘p talab qilmaydigan o‘simliklar

**d) quyosh ko‘p talab qiladigan o‘simliklar**

2. “Tabiat burchagi”da nimalar bo‘ladi?

**a) suv qo‘ygichlar, purkagichlar, matolar, belkurakchalar, mavzuli albomlar, dala gullari, bog‘ gullari xonaki gullar, hashoratlar tabiat kalendari**

b) kitoblar, ensiklopediyalar, atlaslar, albomlar

d) loy, bo‘r, qum, daraxt po‘stloqlari, turli o‘simliklar urug‘lari va mevalari

3. Kichik yosh guruhining tabiat burchagida bolalar nimalarni bilib oladilar?

a) Kichik yosh guruhda narsalarni kuzatish, solishtirib ko‘rish, ularni turli belgilariga ko‘ra umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi

b) Kichik yosh guruhdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilmassalligi, rangi, kattaligi, sathining xarakteri va shu kabilar) ko‘ra olish malakasi hosil qilinadi.

**d) Kichik yosh guruhdagi bolalar 2— 3 xil o‘simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlari lozim.**

4. epifdlyum, siklamen, primula, amarilis- nimaning turlari?

a) hayvon turlari

b) baliq turlari

**d) o‘simlik turlari**

5. “Tirik tug‘iluvchi” o‘simliklarni toping.

a) siklamen, primula, amarilis

b) toshyorar, xlorofitum, briofillyum

d) toshyorar, xlorofitum, amarilis

**Mavzuni mustahkamlash  
uchun interfaol metod.  
“Video topishmoq” metodi**



## **MAVZUGA OID ILMIY ADABIYOTLARDAN O‘RGANISH VA MA`LUMOTLAR TO‘PLASH.**

### **To‘plangan ma’lumotlar asosida video topishmoq tayyorlash**

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompyuter-televizion, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida ehtibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: O‘quvchilar e‘tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi; o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar; jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etadilar; o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.



## Maktabgacha yoshdagagi bolalarni o'simliklar, hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi

### Reja:

1. Tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish texnologiyasi.
2. Terrariumda yashovchilarini boqish texnologiyasi.
3. Qushlar uchun donxo'rak va inlar tayyorlash texnologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** o'simliklarni parvarish qilish, hayvonlarni parvarish qilish, terrariumda yashovchilar, sun'iy inlar tayyorlash, xona o'simliklarini parvarishlash.

### 1. Tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish texnologiyasi.

Tabiat burchagidagi xona o'simliklarini saqlash ularni sug'orish, purkash, yuvish, tuprog'ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, oziqlantirish, kesish, ko'paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishdan iboratdir.

**Suv quyish.** O'simlikka xona haroratidagi suv quyiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorni yo'qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi. O'simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtida unga xona haroratidan 2°C ortiq bo'lган suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yig'ilib qolgan bo'lsa va ikki soat davomida tuvak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to'kib tashlanadi.

**Purkash.** Purkash ko'pgina o'simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o'simlikning suv bilan me'yorida ta'minlanishiga yordam beradi. Purkaganda o'simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko'mko'k bo'lib turadi. Iliq suv bilan purkab turilganda o'simlik novdalari va barglari tezroq o'sadi, kurtak chiqaradi.

**Yuvish.** O'simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan muntazam yuvib turish lozim. O'simlik dush tagiga yoki tog'oraga qo'yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq yuvilib ketmasligi uchun uning usti kleyonka bilan yopib qo'yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho'tka bilan tozalanadi. Egilgan bargli o'simliklarni yuvish mumkin

emas, ulami changi mayin mo‘yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3-4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho‘tka yordamida yuviladi.

**Yumshatish.** Yumshatish — bu suvsiz sug‘orishdir. U suv quyilgan kunning ertasiga amalga oshiriladi. O‘simlik ildizlariga zarar yetkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq ko‘pi bilan 1-1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

**Ko‘chirib o‘tqazish va ko‘chat qilish.** Ko‘chirib o‘tqazish — tuvak torlik qilib qolganda o‘simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o‘tqazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solinib, o‘rtasiga ko‘chat o‘tqaziladi. Bunda, qolgan tuproq bo‘sh joyga solinadi. Ko‘chat qilishda esa o‘simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir oz tozalanadi va eski tuproqni bir qismi olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3-4 sm kattaroq bo‘lishi kerak. Ko‘chat qilishni bahorda, o‘simlik o‘sishni boshlamasdan oldin amalga oshirish maqsadga muvofikdir.

**O‘g‘itlash.** O‘simliklarning me'yorida oziqlanishlari uchun ularni o‘g‘itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bog‘chasi sharoitida mineral o‘g‘itlardan foydalangan ma’qul. O‘simlik ko‘chat qilib o‘tqazilgandan so‘ng o‘sma boshlagach yoki ildiz olgach o‘g‘itlanadi. O‘g‘itlashdan bir necha soat oldin o‘simlikni yaxshilab sug‘orish lozim.

**Kesish.** O‘simlikning chiroyli ko‘rinishi va sershox bo‘lishi uchun uning o‘sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o‘sishi uchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10-15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o‘tkir pichoqdan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko‘mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozan va shu kabilar kesiladi.

**Ko‘paytirish.** Xona o‘simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilari, piyozi, butani bo‘lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko‘paytirish mumkin.

**Qalamchalar yordamida ko‘paytirish.** Qalamchalar poya va bargdan bo‘lishi mumkin. O‘simliklarning ko‘pchiligi (radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba, xina, pelargoniya) poya qalam chalaridan ko‘payadi, bundao‘sib turgan novdadidan 23 bo‘g‘imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday bo‘g‘imning tagida bo‘ladi. Qalamcha suvga solib qo‘yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko‘milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniyareks, sansevyera, uzambarg gunafshasi barg qalamchalaridan ko‘payadi. Begoniyareksning

bargi (pastki tomoni)ni tomirlari tarqalgan joydan lezviya bilan kesiladi va nam qumga o'tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo'yiladi.

**Piyozdan ko'paytirish.** Amaralis, krinum, gemantus, zafirantes piyozdan ko'payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo'lib, ulardan piyozchalar o'sib chiqadi. Ko'chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

**Bachkilardan ko'paytirish.** Yer ustidan deyarli to'liq shakllangan yosh o'simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o'simliklar (toshyorar xlorofitum) juda oson ko'payadi. Bu bachkilar asosiy o'simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o'tqaziladi.

**Ildizpoyadan ko'paytirish.** Bu usuldan o'simliklami ko'chat qilib ekishda foydalaniлади. Ildizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o'tkir pichoq bilan har bir bo'lakda, juda bo'limganda 1—2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qismlarga ajratiladi. Aspidistra, sansevyera, siperus ildizpoyadan ko'payadi.

### **Bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirish**

Maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama rivojlantirishda atrof-olam bilan tanishtirish alohida o'rinn tutadi. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishni o'ziga yaqin bo'lgan hayvonot dunyosidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalarning hayvonot olamiga qiziqishi juda yuqori bo'ladi. Bu orqali ularning tasavvur va idrokini shakllantirish mumkin.

**Mashg'ulotning maqsadi:** bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, ularning foydali tomonlari bilan tanishtirish, hayvonlar bilan do'stona munosabatni shakllantirish.



**Ta'limiy maqsadi:** bolalarni hayvonot dunyosiga qiziqtirish.

**Tarbiyaviy maqsadi:** bolalarni hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarini shakllantirish, kengaytirish, rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda ularni ikki guruhga bo'linishi (uy va yovvoyi hayvonlar);

hayvonlarning nimalar bilan oziqlanishini va ular haqidagi tasavvurlarini boyitish.

**O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Uslub:** ortiqchasini top, ajoyib xaltacha, og‘zaki savol-javob. Shakl: guruhlarda va individual ishlash.

**Vosita:** hayvonlar rasmlari tushirilgan rasmlar, haykalchalar.

**Usul:** hayvonlarning kichik haykalchalari, chizmalar.

**Nazorat:** kuzatish, og‘zaki nazorat,o‘z-o‘zini nazorat, savol-javob.

**Baholash:** rag‘batlantirish asosida.

**Kutiladigan natijalar:** tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishning oson va samarali usullaridan foydalanadi. Bolalarga hayvon nomlari o‘rgatiladi, ularning uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi tasavvurlari kendaytiriladi.

**Kelgusi rejalar:** tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni tatbiq etishni takomillashtirish; o‘z ustida ishlash; mavzuni hayotiy misollar va voqealar bilan bog‘lash; pedagogik mahoratni oshirish.

Mashg‘ulot davomida bolalar hayvonlarning turli sharoitlarda yashashga moslashganini bilib oladi. Shu bilan birga, ular hayvonlar bir necha guruhga bo‘linishi haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

**Mashg‘ulotning borishi:** tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratib oladi. “Toychoqlar” va “Yo‘lbarslar” deb guruhlarni nomlab olishadi. Yozuv taxtasiga esa uy va yovvoyi hayvonlar tasviri tushirilgan rasmlarni ilib qo‘yadi va savollar beradi.

- Rasmda qanday hayvonlar tasvirlangan?
- Bu hayvonlar nimalar bilan oziqlanadi?
- Bulardan qaysilarini ko‘rgansiz?
- Uyingizda qanday hayvonlar bor?
- Hayvonlarni yaxshi ko‘rasizmi?

Tarbiyachi bolalar bilan savol-javob jarayonida har bir guruh bergen javoblarini nazorat qilib boradi va fikrlarni umumlashtiradi.Tarbiyachi bitta guruhga uy hayvonlarining rasmini, ikkinchi guruhga yovvoyi hayvonlarni navbat bilan ko‘rsatadi. Bolalar esa hayvonlar nomlarini aytadi. Rasmda tasvirlangan hayvonlarni ko‘rsatib savol beradi.

Tarbiyachi: – Bu yerda nechta hayvon bor?

Bolalar: – It, mushuk, qo‘y, echki, sigir, yo‘bars, fil, bo‘ri, tulki, olmaxon.

Tarbiyachi: – Bu hayvonlar nima bilan oziqlanadi?

Bolalar: – Yem-xashak, o‘t- o‘lan, go‘sht, sichqon, yong‘oq.

Tarbiyachi: – Bu hayvonlarni yaxshi tanib oldingizmi?

Bolalar: – Ha

Tarbiyachi: – Hayvonlarni tanib olgan bo‘lsangiz juda yaxshi. Bolalar, hayvonlar nimalar bilan oziqlanishini tushunib oldingiz, deb o‘ylayman. Ularni inson hayotida tutgan o‘rnini ham bilib oldingiz. Umid qilamanki, endilikda jonivorlarga ozor yetkazmaysizlar.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi siz bilan bitta o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimizning nomi: “Ortiqchasini top”. Biz uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni bir-biridan ajratamiz. Men hozir sizga quticha beraman. Unda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar rasmi aralashgan. Siz esa guruhngiz bilan uy va yovvoyi hayvonlar rasmini ajratib berasiz.

Bolalar uy hayvonlar orasida adashib qolgan yovvoyi hayvonni, yovvoyi hayvonlar orasida adashib qolgan uy hayvonini topishadi. To‘g‘ri bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

Tarbiyachi mashg‘ulotni mustahkamlash uchun “Ajoyib xaltacha” o‘yinidan foydalanadi. Bunda ikkala guruhdan bittadan ishtirokchi chiqarib xaltacha ichiga solingan hayvonlar haykalchalarini olib nomi, rangi, shakli, uy yoki yovvoyi hayvon ekani haqida ma`lumot beradi. Qolgan ishtirokchilar ham navbat bilan chiqadi.

Tarbiyachi bolalarning topshiriqlarni qanday bajarishini nazorat qilib boradi. To‘g‘ri bajargan guruh bolalarini rag‘batlantiradi va mashg‘ulotga yakun yasaydi.

## **2.Terrariumda yashovchilarni boqish.**

**Terrarium turlari.** Toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarga mo‘ljallangan terrariumlarning tagiga 5—6 sm qalinlikda tuproq va qum solinib, ko‘proq qismiga chim o‘tqaziladi. 1—2 ta yassi tosh solib qo‘yilsa yaxshi bo‘ladi. Terrariumdagi «suv havzasi» o‘rnini tog‘orachadagi suv bajaradi. Agar terrariumda qurbaqa yoki toshbaqa saqlansa, gultuvak parchalaridan uy (yashirinish joylari) yasash lozim. Qishda o‘to‘lanlardan uzun, ingichka bargli xona o‘simliklari, suli, salat barglari qo‘yiladi.

Tirik tug‘iluvchi kaltakesaklar, baqa, qurbaqalarga mo‘ljallangan terrarium toshbaqalar terrariumiga o‘xshash bo‘ladi: uning tagiga qum solinadi, usti esa o‘rmon yo‘sini bilan qoplanadi va 12 ta tosh, po‘stloqli yo‘g‘on shox solib qo‘yilsa yaxshi bo‘ladi. Baqalar uchun tuvak parchalaridan yashirinadigan joy qilinadi. To‘sin orasiga kichikroq suv havzasi joylanadi. Qishda aspidistra, plyush, paporotnik o‘simliklarini qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Terrariumga qarash unchalik murakkab emas. Suv vaqtiga almashtirilib, suv idish muntazam yuvilib turiladi.

Bir yilda 2—3 marta terrariumni, undagi tuproqqum ustini, devorlarini tozalab turish kerak. Terrariumdagi o'simliklar xona o'simliklaridek parvarish qilinadi. Terrariumda yashovchilar past temperaturada harakatchanligini yo'qotadi va ovqat yemay qo'yadi. Bunday hollarda terrariumni elektr lampochkalari bilan isitish lozim. Jonivorlarni 25—30°C haroratda nimrang margantsovka eritmasida, boshini suvga tiqmay, 20—30 soniya cho'miltirish maqsadga muvofiqdir.

Agar jonli tabiat burchagida qurbaqa, baqa, kaltakesaklarning yashashi uchun normal sharoit yaratishning iloji bo'lmasa, hayotini saqlab qolish maqsadida kuzda ularni qo'yib yuborish kerak.

Sudralib yuruvchilar hamda suvda va quruqlikda yashovchilar terrariumda saqlanadi. Tayyor terrariumlardan tashqari turli idishlardan, eski akvariumlardan foydalanish mumkin. Ularning ustidan doka yoki mayda metall to'r qoplash kifoyadir. Terrariumlar hayvonlarning biologik xususiyatlariga moslab tayyorlanadi.

Quruqlikda yashovchi toshbaqa. Toshbaqa salat, qoqio't barglari, sabzi, sholg'om, xom kartoshka bo'laklari bilan boqiladi. U tarvuz po'sti, pomidor, ba'zi mevalarni va nonni yaxshi ko'rib yeydi. Goh gohida qiyma go'sht berish kerak. Bu toshbaqa ozuqani quyoshda yaxshi yeydi. Ozuqa yozda har kuni, qishda 1—2 kun oralatib beriladi. Ozuqa suvli bo'lsa, toshbaqa suv ichmaydi.

**Botqoq toshbaqasi** go'sht, mayda baliq, chuvalchang, suv shilliq qurti bilan oziqlanadi va ozuqani faqat suvda yeydi.

**Takimon.** Un qurti, chuvalchang, tirik hasharotlar va ularning lichinkalarini yeydi. Qishda unga chivin g'umbagi, uzun qilib kesilgan xom go'sht beriladi. U suvni yaxshi ko'radi.

Tirik bola tug'adigan kaltakesak takimondan ko'ra maydarоq narsalar (tutgan o'ljalari) bilan oziqlanadi.

*Baqa va qurbaqa* tirik ozuqa: hasharotlar, chuvalchanglar, molluskalar hamda xom go'sht bilan boqiladi. Bunda go'shtni tayoqcha uchiga ilib, qurbaqaning ko'zi oldida qirmirlatib turish kerak.

## **2.Qushlar uchun donxo'rak va inlar tayyorlash texnalogiyasi.**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisidagi qushlarni butun yil davomida kuzatish mumkin. Qushlarni jalb qilish usullaridan biri ularni qishda boqishdir. Kuz fasli yaqinlashgan sari chumchuq, qarg'a, katta chittak, sa'va singari qushlar odamlar yashaydigan joylar yaqiniga uchib kela boshlaydi. Xuddi mana shu vaqtarda hovlida donxo'rak va uyalarni o'rnata boshlash kerak. Eng oddiy donxo'rak — don tokchasidir (hajmi 50x60 sm, chetlari bir oz ko'tarilgan taxta). Uni daraxtga, deraza,

yog‘ochga osib qo‘yish mumkin. Qushlarni derazadan boqishda ularni xonada ko‘rib turish imkonini beradigan donxo‘raklar qulaydir. Qushlar bu vaqtda o‘zлari yaxshi ko‘rinib tursalarda, kuzatilayotganliklarini sezmaydilar. Bunday donxo‘rakni bir litrlik shisha bankadan qilish mumkin. Yonboshlatib ayvon panjarasiga bog‘lab qo‘yilgan bunday shisha banka deraza donxo‘ragi o‘rnida qoilaniladi.

Qushlar ozig‘i xilma-xildir. Bu yovvoysi holda o‘suvchi o‘simliklar — qayin, otquloq urug‘i va mevalaridir. Qovoq, tarvuz, pista urug‘lari ham qushlar uchun yaxshi ozuqadir. Bu ozuqalarni katta chittak sevib yeydi. Chittaklarni qishdagи sevimli ozuqalari — tuzlangan yog‘dir. Qushlar oq non ushoqlarini ham yaxshi ko‘rib yeydilar.

**Sun’iy inlar.** Hovlida sun’iy inlarni ommaviy osish chittak, chug‘urchuq, hasharotxo‘r kabi qushlarni jalb qilishda yaxshi natijalar beradi.

Chittak va chug‘urchuq uchun inlar ko‘pincha taxtadan tayyorlanadi. Inning o‘lchami uch ko‘rsatkich bilan: tubining maydoni, chuqurligi (tagidan tuynugigacha bo‘lgan oraliq) va tuynugining o‘lchamiga ko‘ra aniqlanadi. Chug‘urchuqlar inining eng qulay o‘lchami — 14x14 sm, hasharotxo‘rlarga — 9x9 sm, chittaklarga esa — 12\*12 sm dir. Chittak va chuqurchuqlarga in yasashda taxtaning qalinligi 1,5 sm yoki yaxshisi 0,5 sm bo‘lgani ma’qul. Inni fanerdan yasash yaramaydi. Yaxshi inlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: in mustahkam qoqilishi, teshiklar qoldirmasligi, tayyorlash usuli sodda. Taxtalarning faqat tashqi tomonini ranglash lozim, chunki ichki tomoni ranglansa, qushning silliq devordan chiqishi qiyin bo‘ladi. Tuynuk in tomiga yaqin bo‘lishi zarur. Bu oraliq taxminan tuynuk diametriga teng. Inning tuynugi dumaloq, tomi esa olinadigan qilinadi. Qushlar inga yaxshi joylashishlari uchun ularni to‘g‘ri osish muhimdir. Inlar yoz va kuz faslida osiladi.

Qushlar uchun inlar juda zarur, chunki qishlovchi qushlar sovuq tunda shu yerda jon saqlaydilar. In tuynugining yo‘nalishi turli qushlar uchun turlichadir.

### Bahorda uchib keluvchi qushlar

**Mashg‘ulotning maqsadi:** bolalarga uchib kelib-ketuvchi qushlar haqida tushuncha berish, ularning tashqi ko‘rinishi, o‘ziga xos xususiyatlari hamda hayot tarzi bilan tanishtirish, qushlarga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish hissini tarbiyalash, kuzatuvchanlik va qiziquvchanliklarini oshirish; savollarga to‘liq javob berish, mustaqil

applikatsiyaga o‘rgatish; geometrik shakllar nomini mustahkamlash; topishmoqlarni tezlik bilan topishga o‘rgatish, aqliy qobiliyatlarini

mustahkamlash; bolalar diqqati, xotirasi tasavvuri va nutqini rivojlantirish, faolligini ta'minlashda kompyuter orqali ta'limiy o'yin, mantiqiy mashq va kuylardan foydalanish.

**Kutilayotgan natija:** bolalar uchib kelib-ketuvchi qushlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Qushlarning hayot tarzi bilan tanishadilar. Ularga nisbatan muhabbat uyg'onadi. Ularni ardoqlash kerakligini tushunadi.



**Zarur jihozlar:** kompyuter ekranida issiq o'lkalarga uchib ketuvchi qushlarning rasmlari (qaldirg'och, turna, laylak, bulbul), gugurt cho'plari, yog'ochdan yasalgan uycha, mo'yqalam, oq qog'oz, sa'vaning rasmi va uycha shaklini yopishtirish uchun tayyorlangan rangli qog'ozlar)

#### Tayyorgarlik ishlari:

1. Tarbiyachi Quddus Muhammadiyning "Bahor" she'rini o'qib beradi. Uchib ketgan qushlarning qaytishi, nima uchun ular uchib kelib-ketuvchi qushlar deyilishi to'g'risida tarbiyachining hikoyasi tinglanadi.

2. "Issiq o'lkalarga uchib ketuvchi qushlar" rasmi, ularning har biri haqida so'zlab berish va suhbatlashish.

Bolalar kim laylak, qaldirg'och, turna, bulbulni ko'rgan?

Kim bulbulning sayrashini eshitgan?

Suhbat davomida bolalar savollarga to'liq javob berishlari kerak.

3. Qushlar (qaldirg'och, turna, laylak, bulbul) haqida topishmoq aytish.

4. Maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisidagi daraxtlarning birontasiga ota-onalar

yordamida yasalgan uychani o'rnatish.

5. Sayr vaqtida qushlarni kuzatish.

6. Tabiat burchagida bolalarning mustaqil ko'rishlari uchun "Issiq o'lkalarga uchib ketuvchi qushlar" haqidagi rasmlar va rangli kitobchalarni tashkil qilish.

7. Bahorda barcha qushlar uy qurishlari yoki mavjud uyalarini ta'mirlashlari, so'ngra esa tuxumlaridan bola ochishlari, polaponlari ustida qayg'urishlari haqida tarbiyachining hikoyasi.

**Mashg‘ulotning borishi:** bolalar doira bo‘lib turadilar. Tarbiyachi bolalar bilan suhabat olib boradi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar hozir qaysi fasl?

**Bolalar:** – Bahor.

**Tarbiyachi:** – Janubdan biz tomonga qanday qushlar uchib keladi?

**Bolalar:** – Qaldirg‘och, laylak, turna, bulbul.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, nega ularni uchib kelib-ketuvchi qushlar deymiz?

**Bolalar:** – Chunki ular kuzda issiq o‘lkalarga uchib ketadilar, bahorda esa qaytib keladilar.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, uchib kelib-ketuvchi qushlarning qaysilari to‘g‘risida

eshitgansiz? Ularni ko‘rganmisiz?

Javoblar berilgandan so‘ng tarbiyachi bolalarga stol atrofiga o‘tirishni va stoldagi rasmida tasvirlangan uchib ketayotgan qushlar galasini tomosha qilishni taklif qiladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, ayting-chi, qaysi qushlar galasi uchib ketyapti?

Hozir biz shu qushlar galasini gugurt cho‘plar yordamida yasaymiz. Buning uchun bizga nechta gugurt cho‘p kerak bo‘ladi?

Bolalar nechta qush uchib ketayotgan bo‘lsa, o‘sha sonni aytishadi. Tarbiyachi esa bolalar ishlarini kuzatadi va baholaydi.

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlar bilan kompyuterda o‘yinlar o‘ynaymiz, xohlaysizmi? Yaxshilab kuzating. Siz ekrandagi qushlarning qaysi biri ortiqcha ekanini aytasiz. (“To‘rtinchisi ortiqcha” o‘yini. Bolalar uchib ketuvchi va qaytuvchi hamda qishin-yozin yashovchi qushlarni farqlab nomini aytadilar. Masalan: Sa’va, turna, laylak va musicha, qaldirg‘och, jiblajibon, so‘futurg‘ay va mayna”).

Mashg‘ulot davomida tarbiyachi yog‘ochdan yasalgan uychani tomosha qilib, suhabatni davom ettiradi.

- Bolalar, qushlar o‘z uylariga qaytib kelganlaridan so‘ng nima qiladilar?

- Bolalar qaldirg‘ochlar nima uchun odamlarga yaqin joylarga uy quradi?

- Bolalar, odamlar uychalarni qaysi qushlar uchun joylashtiradilar?

Tarbiyachi bolalarga “Baliq, qush va hayvonlar” o‘yinini o‘ynashni taklif qiladi.

**Bolalar doira bo‘lib turadilar.** Doira o‘rtasida tarbiyachi-boshlovchi qo‘lida to‘pni ushlab turadi. Boshlovchi ishtirokchilarning birortasiga to‘pni otib, “hayvon” deydi, to‘pni ilib olgan bola birorta hayvonning

nomini aytib, boshlovchiga qaytaradi. Boshlovchi to‘pni otib, “baliq” yoki “qush” desa, to‘pni tutib olgan bola baliq yoki qushning turini aytib, boshlovchiga to‘pni qaytarishi kerak bo‘ladi. O‘yin tugagach bolalar joylariga o‘tiradilar. Tarbiyachi bolalarga qush uchun in yasashni taklif qiladi. Navbatchilar tomonidan oldindan tayyorlangan yelim, mo‘yqalam, qog‘oz, turli geometrik shakllar stollarga taqsimlanadi. Geometrik shakllarning nomlari bolalar bilan birgalikda takrorlab olinadi, so‘ngra qog‘ozga uychani qanday yopishtirish ko‘rsatib beriladi.

Bolalar mustaqil ishlayotganlarida, tarbiyachi shakllarni to‘g‘ri joylashtirilayotganini kuzatadi, zarur joylarda yordam beradi. Barcha topshiriqni bajarib bo‘lishgach, tarbiyachi bolalarga qush shakllarini tarqatadi va qush uychalarini ko‘rib olishlarini va “Qushlar uychalari bilan qanday tanishadilar?” o‘yinini o‘ynashni taklif qiladi. Qushlar uychaning oldin ustidan, keyin esa tagidan uchib o‘tdilar va unga qo‘ndilar. **Tarbiyachi:** – Endi sizlarni kompyuter oldiga taklif qilaman, diqqat bilan ekrandagi qushlarning nomini aytинг. Uylarning belgilarini kuzatib, diqqat bilan eslab qoling. Eslab qoldingizmi? Endi keyingi sahifaga o‘tamiz. Qani qaldirg‘och uyining tomi qanday edi. Mana bu yashil tomli uy qaysi qushniki edi?

Barcha qushlar uyining tomi so‘raladi. O‘yin oxirida tarbiyachi qushchani rasmga yopishtirib qo‘yib, u haqida hikoya qilib beradi. Sen qanaqa qush bo‘lmoqchisan, deb bolalardan so‘raladi, kompyuterda musiqa yangraydi, qushlar harakati bajariladi.

Mashg‘ulot jarayonida bolalar rag‘batlantirib boriladi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Xona o‘simliklarini qaysi qismlari orqali ko‘paytirish mumkin?
2. Terrariumda yashovchilarni boqish qanday amalga oshiriladi?
3. Quruqlikda yashovchi toshbaqa nimalar bilan boqiladi?
4. Qushlar uchun donxo‘rak va inlar tayyorlash texnologiyasini aytib bering.
5. Hovlida sun‘iy inlarni ommaviy osish qaysi qushlarni jalg qilishda yaxshi natijalar beradi.

#### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**



1. O'simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan necha gradusdan ortiq bo'lgan suv quyiladi.

- a) 2°C
- b) 3°C
- c) 5°C

2. Radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba, xina o'simliklari qaysi o'simliklar o'rnida ko'paytiriladi?

- a)piyozchalari orqali
- b)poyasi orqali
- d)qalamchasi orqali**

3. Bachkilardan ko'paytiriladigan o'simliklarni toping.

- a) begoniya, fikus
- b) toshyorar , xlorofitum**
- d) radeskatsiya, begoniya

4. Botqoq toshbaqasi nimalar bilan oziqlanadi?

- a) go'sht, mayda baliq**
- b)o'simliklar
- d)hasharotlar

5. Chug'urchuqlar inining eng qulay o'lchami qancha?

- a)14x14 sm**
- b) 15x15 sm
- d) 19x19 sm

**Mavzuni mustahkamlash  
uchun interfaol metod:  
“Refleksiya” metodi**



“Bolalarni o'simliklar,hayvonlar va qushlar bilan tanishtirish”  
mavzusini

### **“Refleksiya” metodi asosida yoriting**

3 ta fikr yozing

- 1.
- 2.
- 3.

Men uchun yangilik (mohiyatini bildim) bo'ldi.

Men uchun qiziqarli bo'ldi va boshqalarga yetkazaman.

Kelajakda o'z faoliyatimda qo'llayman.

## 7-MODUL: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YIL FASLLARI BILAN TANISHTIRISH



### Yil fasllariga umumiy tavsifnama

#### Reja:

- 1.Kuz fasliga tavsifnama.
- 2.Qish faslga tavsifnama.
- 3.Bahor fasliga tavsifnama.
- 4.Yoz fasliga tavsifnama.

**Tayanch tushunchalar:** ob havodagi o'zgarishlar, hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar, qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar, fasillarga tavsifnama.

#### 1.Kuz fasliga tavsifnama.

**Ob-havodagi o'zgarishlar.** Sentabr kuz faslining birinchi oyidir, biroq O'zbekistonda sentabr oyida ham yoz faslidagidek issiq bo'ladi. Sentabr oyida havo issiq bo'lib, kechalari harorat +7 darajagacha tushib ketadi. Kunduz kunlari esa +20+25 darajagacha ko'tariladi.

Oktabr odatdagidek kuz oyi hisoblanadi. Bu oyda o'lkamiz quvoshli, issiq va quruq bo'ladi, kunning birinchi yarmida harorat +7+10 daraja bo'ladi, kunduz kunlari +15+23 darajaga, ba'zi hollarda esa +27 darajagacha ko'tariladi.

Oktabr oyining ikkinchi yarmida harorat odatda pasayadi, ertalab +3+5 daraja bo'lib, kunduz kunlari esa +16+20 darajagacha ko'tariladi. Uzoq yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'simliklarning katta qismini va ayniqsa, qishloq xo'jalik o'simliklaridan paxta, kartoshka, pomidor, bodring va boshqalarni sovuq uradigan ayozlar o'lkamizda taxminan 12—18oktabrlarda boshlanadi.

Sovuq tushishi — bu haroratning qisqa vaqtli pasayishi bo'lib, yer qatlamlari va yer yuzasining ustki qatlamlari nol darajadan pastroq bo'ladi. Ana shunday dastlabki ayozlar kuz faslining boshlanganidan dalolat beradi. Shimoliy kenglikdan sovuq shamol esa boshlashi bilan sovuqlar boshlanadi. Sovuq darajasi joyning relyefiga va tuproqning issiqligiga bog'liq bo'ladi.

Odatda, sovuq tushganining dastlabki kuni kunduzi, ba'zi hollarda esa tunda havoning bulutli bo'lishi kutiladi. Agar, kechasi osmon bulutsiz bo'lsa, yer ustki qatlamlarining parlanishi natijasida yerning yuza qatlami muzlaydi. Bunday sovush yer qatlamlariga tegib, havoning haroratini yanada ko'proq pasaytiradi. Sovuqning dastlabki to'lqinlari o'zi qoplagan barcha hududni ozgina muzlatadi, u faqatgina past joylarga tarqaladi va bir-ikki kun davom etadi. Agar havo to'lqinining harorati nol darajadan past bo'lsagina muzlash barcha hududga yoyilishi mumkin. Shunda tuproq va o'simliklaming ustki qatlamlariga ertalabki shudring tushadi.

Ba'zi vaqtarda oktabr oyida kuchli va sovuq shamollar aralash yomg'irlar ham yog'ib o'tadi. Bunday paytlarda tarbiyachi bolalarning diqqat e'tiborini daraxtlarning katta shoxlari va ingichka novdalarning tebranishiga jalb etadi.

Noyabr qishga o'tish oyi hisoblanadi. Odatda noyabr oyida o'lkamizda ob-havo qulay bo'lmaydi: goh yomg'ir, goh qor yog'adi, kun goho iliq, goho sovuq bo'lib turadi.

**O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar.** Bog'larda kechki olmalar, kechki uzumlar, yong'oq pishib yetiladi, shuningdek, O'zbekiston uchun xos bo'lgan behi, anor pishadi, yovvoyi do'lana, olcha va na'matak hamda bolalarning eng sevimli mevalaridan biri — jiyya pishadi. Gulxonalarda gultojixo'rozlar, xrizantemalar gullaydi, floks va boshqa gullar esa so'liy boshlaydi.

Kuzning tushishi avvalo mevasiz daraxtlarga ta'sir qiladi. Birinchi galda bu daraxtlarning barglari sarg'aya boshlaydi. Bunday o'zgarishlarni bolalar butun kuz davomida kuzatib boradilar. Ushbu davrda ma'lum turdag'i o'simliklaming hammasi birdaniga o'zgarmaydi, albatta. Bu vaqtida ularning bir qismi «kuz libosi»ni kiya boshlaydilar, boshqa bir qismi esa, o'zining yozgi holatini to'la qoplaydi (barglari ko'mko'k bo'ladi). O'simliklaming yoshi ham ma'lum darajada ta'sir qiladi, qari daraxtlarda yosh daraxtlarga nisbatan ilgariroq o'zgarish ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari barglarning sariq tuslari qizg'ish tusga, qizg'ish tusdan to'q binafsha tusga o'tadi. Bolalar bog'chalarining tarbiyachilari esa tabiatda bo'layotgan bunday o'zgarishlarga bolalarning e'tiborini jalb qiladilar. Bu rang *antotsian* deb ataluvchi alohida pigmentga bog'liq bo'ladi.

Barglarning kuzdagi rang o'zgarishi bilan tiniq rangli zarang ilgariroq o'zgara boshlaydi (ular och sariq rang hosil qiladilar) va majnuntolning barglari to'q sariq, oqish tusga kiradi.

Uzum, o‘rik, nok va keyinroq esa qayrag‘och, shaftoli va boshqa daraxtlarning barglari sarg‘ayib, qizg‘ish tusga kiradi.

Barglarning rangi o‘zgara borishi bilan asta-sekin xazon bo‘la boshlaydi va o‘simliklarning qishga tayyorlanishiga zamin hozirlaydi, chunki bunday tayyorgarlik o‘simliklar hayoti bilan bog‘liqdir. Oktabr oyida barglar to‘kila boshlaydi. Avvalo zarang daraxtining barglari to‘kiladi, keyinchalik esa, akatsiya, qayrag‘och, gledichiya, eman, yong‘oq, oq terak va chinorlarning barglari to‘kila boshlaydi.

Bolalar barglarning to‘kilishi ustida bir necha marta kuzatish olib borishlari natijasida kuz fasliga xos xazonrezgilik haqida to‘g‘ri tasavvurga ega boiadilar.

Noyabr oyida daraxt va butalarning barglari ko‘proq sarg‘ayib qo‘ng‘ir tusga kiradi, keyinchalik asta-sekin to‘kilib tamom bo‘ladi. Eman, chinor va boshqa daraxtlarning barglari ayrim hollarda qattiq sovuq tushgunga qadar ham ko‘m-ko‘k bo‘lib turadi.

### **Qushlar va hasharotlar hayotidagi o‘zgarishlar.**

Sentabr-oktabr oylarida o‘lkamizga go‘ngqarg‘alar uchib kelishadi. Biz ularni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham bog‘larida ham ko‘ramiz. Ular bizga tog‘lardan tushib uchib kelishadi (bu qushlar bahor va yoz fasllarida tog‘larda yashaydilar). Go‘ngqarg‘alar kunduz kunlari dalalarga uchib ketishadi va hosili yig‘ib olingan ekin maydonlaridan don va turli begona o‘tlarning urug‘larini terib yeydilar. Qarg‘a turli qoldiqlarni yeydi. Sentabr oyida qorayaloqlar, chittaklar mamlakatlarga uchib ketayotgan tilla rangli qushlarni ko‘rish mumkin.

Zarg‘aldoq, qaldirg‘och, bulbul, chivinxo‘r qushlar, moyqutlar, jiblajibon, ko‘kqarg‘a va boshqa shu kabi qushlar janubdan issiq mamlakatlarga uchib ketadilar Qushlar uchib ketishga odatlanib qolganliklari, shuningdek, hasharotlarning (kapalak, ninachi, qo‘ng‘izlarning) sekinasta yo‘qola borishi tufayli uchib ketishadi. Chunki bu hasharotlar ana shu qushlar uchun ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

Sentabr oyida laylaklar, g‘ozlar, o‘rdaklar va turnalar o‘z inlariga yig‘iladilar va uchib ketishga tayyorlanadilar.

Sentabr oyida asalarilar ham qishga tayyorlana boshlaydilar. Ular o‘zlarining asal zahiralarini uyalarining bir tomoniga olib o‘tadilar, o‘z uyalarini isitadilar, keraksiz teshik va yoriqlarni bekitadilar, o‘z uyalaridan o‘rgimchaklarni haydar chiqaradilar, chunki o‘rgimchaklar qish vaqtida asarlarilar uchun ortiqcha yuk bo‘lib, asal zahiralarini yeb qo‘yishlari mumkin. O‘rgimchaklarning asalalariniki kabi nishlari va jag‘lari bo‘lmaydi, shuning uchun ular o‘zlarini himoya qila olmaydilar, uyalarni

tashlab chiqib ketib ochlikdan o‘lib qoladilar. Asalarilar boshqa hasharotlar singari uzoq uxmlamaydilar. Dastlabki sovuqlar tushishi bilanoq turnalar va g‘ozlar janub tomonga galagala bo‘lib uchib ketishadi. Sa’valar o‘zlarining chiroyli patlari va ajoyib ovozlari bilan bolalarni o‘zlariga jalb qiladilar. Bolalar sa’valarni tabiat burchaklarida parvarish qilishni o‘rganadilar: toza suv, so‘k, arpa, pista donlarini maydalab beradilar. Shuningdek, kuz faslida zarang va shumtol daraxtlarining urug‘laridan tayyorlangan ozuqalarni beradilar. Sa’valar qirilgan sabzini va bolalar qo‘li bilan tabiat burchagida o‘stirilgan ko‘k sulini zo‘r ishtaha bilan yeydilar. Kechalari dalalardan shaharlarga go‘ngqarg‘a, zag‘cha va qarg‘alar to‘da-to‘da bo‘lib uchib keladi.

Oltin kuz davomida uchib yurayotgan o‘rgimchak uyasi ko‘zga tashlanadi. Uning kumushsimon uzun to‘qimasida kichkina o‘rgimchak uyachalari, shuningdek, ko‘chmanchi qo‘ng‘izlar bo‘ladi.

Bog‘larda ko‘pgina qorayaloqlar va chittaklar paydo bo‘ladi. Ular, asosan, togiardan uchib keladi. Ko‘k chumchuqlarning o‘tkir ovozlari ham eshitilib turadi.

### **Hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar.**

Kuz faslida qurbaqalarning vaqirlashi kamroq eshitila boradi. Bunga bolalar e’tiborini jalb qilish lozim.

Kuz faslida, o‘tlar quriganda shahar atrofidagi rayonlarda quyonlar yosh daraxtlarning qobiqlarini, cho‘lli rayonlarda esa cherkez qandim, yulg‘un va shu kabi yovvoyi o‘simliklarning qobiqlarini kemirib tashlaydilar.

Sudraluvchi hayvonlar (kaltakesaklar, ilonlar, toshbaqalar) dong qotib uqlash davriga kiradilar. Sovuq tushishi bilan qurbaqalar hovuz tagidan balchiqlar ichiga kirib ketadilar, cho‘l qurbaqalari esa uy atrofidagi kavaklarga kirib, uyquga ketadilar.

Tipratikanlar sovuq tushguncha o‘zlarining qishgi joylariga ketishadi. Ular qishda to‘rt oydan ortiq uqlaydilar. Bu vaqt ichida qimirlamaydilar va hech qanday ovqat ham yemaydilar. Ular ana shu uyqu jarayonida o‘zlarining gavda og‘irliklarining uchdan bir qismini yo‘qotadilar.

Ba’zi vaqtlarda bolalar bog‘chalarida tipratikanni qish vaqtida ham olib qoladilar. Ularni qutilarga solib, bahorgacha salqin verda saqlaydilar. Bolalar tipratikanning uyg‘onishini alohida qiziqish bilan kuzatadilar.

Ko‘rshapalaklar sovuq tushishi bilan tashlandiq uylarning shiplariga kelib, osilib olgan holda yashaydilar. Ular yoz mobaynida to‘plagan ozuqa zahiralarini qishda juda kam sarflaydilar. Agar ko‘rshapalak qishda, issiqroq joylarda yashasa, tez-tez uyg‘onib turadi.

## **2.Qish fasliga tavsifnomasi.**

**Ob-havodagi o‘zgarishlar.** Yerining ustki qatlamini qor qoplashi va suvlarning muzlashi qishning boshlanishidan darakdir.

O‘zbekistonda qish o‘ziga xos xususiyatga ega. Qor qatlamlari mumtoz bo‘lmay, tez eriydi va qishda bir necha martagina yog‘adi. Odatda qor dekabr oyining boshlarida yog‘adi. Qishning ikkinchi yarmida — yanvar oyida, fevral oyining boshlarida ko‘proq qor yog‘adi, mart oyida ham bir oz yog‘ishi mumkin.

Dekabr oyida sovuq tushib, tez-tez shamol esib turadi. Dekabr oyida barvaqt qor yog‘ishi yanvar oyida odatda qor yog‘adi, lekin tez erib ketadi. O‘rtacha harorat butun oy davomida +4—6°C atrofida bo‘ladi, biroq ba’zan janubi-sharqdan iliq shamol «garmsel» esishi natijasida haroratning keskin ko‘tarilishini payqash mumkin. Kunduz kunlari harorat +17+20 darajagacha isiydi. Vaqtincha iliq va quyoshli havo bo‘ladi. Shunday vaqtarda daraxtlar va butalar kurtak chiqarib qoladi. Keyinchalik yengil ayoz ta’siri ostida asta-sekin yana havo sovib qoladi.

Fevral oyida quyosh yuqoriroq ko‘tariladi, kun ancha uzayadi. Fevralning birinchi o‘n kunida odatda kun iliq, quruq bo‘ladi, harorat +17+19 darajagacha ko‘tariladi. Ikkinchi o‘n kunlikda unchalik qattiq sovuq bo‘lmay, kuchli qor yog‘ib o‘tadi. Ba’zi vaqtarda uchinchi o‘n kunlikda ham qattiq sovuq tushib, qor quruq yog‘adi. Daraxtlarning shoxlari oqarib, qattiqqina qor qatlami hosil bo‘ladi. Qushlar ovqat topib yeishiga qiynaladilar.

**O‘simliklar hayotidagi o‘zgarishlar.** Qishda daraxtlar «yalang‘och» holda bo‘ladilar va nisbiy osoyishtalik holatida yashaydilar. O‘simlikning yer ustidagi qismlari o‘sishdan to‘xtab, qishki osoyishtalikka o‘tadi, ildizlarning yer ostidagi hayot faoliyatları esa davom etadi. Daraxt nisbiy osoyishtalik vaqtlarida ozuqa zahiralarini to‘playdi, (kraxmal, shakar va yog‘) to‘qimalarining nafas olishi pasayadi. Qish davrida daraxtlarning barcha shoxlari va po‘stlog‘i, shuningdek, kurtak, tanasidagi yoriqlar va burglar o‘z namini yo‘qotib boradi. Daraxtlar namligining katta miqdorda yo‘qolishiga qishki shamollar ham sabab bo‘ladi. Qishki shamollar ta’sirida o‘simliklarning novdalari va hatto butun o‘simlik ham halok bo‘lishi mumkin. Shuning uchun hosil olingach, kech kuzda bog‘larni asta-sekin qoplatib sug‘oriladi. Qishda daraxtlarning halok bo‘lmasliklari va ko‘proq nam saqlashlari uchun ular atrofiga qorlarni to‘dalab qo‘yadilar.

Ikki yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklarning yer yuzasidagi qismi qurib, ildizpoya, piyozbosh va tuganaklari qoladi, bular o‘simlikning yangidan o‘sib chiqishi uchun ozuqa moddalar zahirasini to‘playdi. Ildizlar

yer tagida, qor tagida sovuqdan saqlanib turadi. Qishda sovuq qattiqroq boiib yer qatlami qattiq muzlasa, o'simliklarning ildizlari ham nobud bo'ladi.

Ba'zi yillarda dekabr oyida ham o'simliklar kurtak chiqaradi: bo'tako'z, margaritkalar ochiladi.

Fevral oyida sovuq bo'lsa, o'simliklar hayotida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Bunda agar havo iliq bo'lsa, ko'k o'tlar ko'rina boshlaydi.

Iliq qish vaqtida, fevral oyining o'rtalarida gunafshalarning kurtagi bo'rtadi, kumushdek teraklar kuchalalay boshlaydi, zarang daraxtining bo'rtib chiqqan kurtaklarida nozikkina gul barglari ko'rina boshlaydi, Maysa o'tlar chiqqa boshlaydi, gunafsha, qoqio't bodom, oq qaldirmoqlar gullaydi.

**Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar.** Qish vaqtida o'simliklarning uyquga ketishi munosabati bilan bu davrda bolalarning diqqat e'tiborini qushlar hayotiga va holatiga jalb etish mumkin. Dekabr oyida shahar va qishloqlarda, aholi yashaydigan punktlarda chumchuqlar, qarg'alar, zag'chalar va boshqa qishlaydigan parrandalar yig'iladi. Ular o'ralar, axlatxonalar, shuningdek, serqatnov yo'llarda ozuqa qidiradilar. Ovqatlanib bo'lishgach, bog' va xiyobonlarga uchib ketadilar. Daraxtlarning shoxlarida dam oladilar. So'ng, yana hovlima-hovli uchib keladilar. Qorong'i tushishi bilanoq to'da-to'da bo'lib uchib ketib, baland daraxtlarning shoxlariga qo'nib tunaydilar.

Dekabr oyida shahar atroflaridan ko'kraklari oq-qora rangli katta chittaklar uchib keladilar va Toshkent bog' va hiyobonlarini to'ldirib yuboradilar. Ular, daraxtlarning kavaklari va shoxlarida qishlagan hasharotlami topib yeydilar. Ular hasharotlarning yuz minglarcha tuxumlarini ham tozalaydilar. Quyoshli kunlarda qushlar ko'proq harakatchan, quvnoq bo'lishadi, bunga bolalarning diqqatini jalb etish kerak.

Shahar atrofidagi joylarda bu vaqtida ko'pgina so'fito'rg'aylarni uchratish mumkin, ular dalalardagi yovvoyi o'tlarning urug'larini terib yeydilar. Shuningdek, bu vaqtida bog'lar va odamlar yashaydigan yerkarta yaqin kelib yashovchi zag'izg'onlarni ham uchratamiz.

Dekabr oyida qorayaloq va chittaklarning sayrashi eshitiladi. Bog'larda qizilquyruqlar paydo bo'ladi. Kamkam uchrasada, har o'n yilda bir marta sovuq qish vaqtida snegirlar paydo bo'lishadi. Ular sekin-sekin hushtak chalib uchadilar. Bunda ota qushgina emas, balki ona qush ham sayraydi (ba'zi qushlarda esa ona qushlar sira sayramaydi).

Doimiy qishlovchi qushlar bilan birgalikda ahyon-ahyonda jarqanotlarni uchratish mumkin. Bu qushlar tog' qoyalaridan shaharga tushib kelishadi va xoliroq yerdagi g'isht devorli binolarga joylashadilar.

Qor yoqqan vaqtda bu qushlar och qolishadi va hatto ochlikdan o'la boshlaydilar. Ular birovning ovqat berishiga muhtoj bo'lib qoladilar. Shuning uchun bolalar bog'chalari hovlilarida qushlarni oziqlantirish maqsadida har turli inlar yasab qo'yish kerak. Bunday manzara bolalar bilan birgalikda qushlarning harakatlarini kuzatish imkoniyatini beradi. Qushlarni cho'chitib yubormaslik maqsadida inlar uchun tinch yerlarni tanlaydilar. Ularni daraxtlarga, uylarning devorlariga osib qo'yadilar, deraza tokchalariga o'rnatadilar. Donxo'rak yoki inlarda doimo ozuqa bo'lishi kerak. Qushlar bunday ozuqalarga ko'nikadilar va har kuni ma'lum soatlarda uchib keladilar. Bolalar qushchalar to'g'risida g'amxo'rlik qiladilar, deyarli har kuni ularga ozuqa berib turadilar. Kuzatish vaqtida har turli qushlarning o'zlarini qanday tutayotganlarini, shuningdek, qaysi bir ozuqani manzur ko'rishlarini payqab olish mumkin. Hatto hasharotni zaharovchi chittaklar ham qish faslida urug'liklar bilan oziqlanadilar. Yog' ularning assosiy ovqati bo'lib hisoblanadi.

Qushlar gavjum bo'lishib, oziq-ovqat qidirishni davom ettiradilar. Kunduz kunlari to'da-to'da qarg'alar, ko'kqarg'alar va go'ngqarg'alarning uchib yurishlarini ko'rish mumkin, shuningdek ko'pgina sa'avalar va g'urralar ham uchib yurishadi. Bog'larda qorayaloqning qattiq qichqirishi ahyon-ahyonda eshitilib tursada, lekin uning sayrashi endi eshitilmaydi. Ko'pincha qorayaloqlar ariqlarning bo'ylarini kavlayotganliklarini, shuningdek, bog'lardagi na'mataklarning donini topib cho'qiyotganligini ko'rish mumkin.

Yanvar oyining boshlarida g'urralarning g'urullashi eshitila boshlaydi. Yanvar oyining o'rtalarida esa g'urralarning akatsiya daraxtlarining chiviqlaridan mayda tayoqchalar va quruq qobiqlardan uyalar qurishga kirishganliklarini bolalar bilan birgalikda kuzatish mumkin.

Fevral oyida qushlar oziqlantirishga muhtoj bo'ladilar. Fevralning oxirida qushlar galasi qo'shaloq-qo'shaloq bo'lib ajraladi. Keyinchalik ular uya qurish uchun shahardan chetdagi joyiarga uchib ketadilar. Chittaklar bahor oldi qo'shiqlarini «kuylaydilar».

Fevral oyining oxirlarida shaharlardan jiblajibonlar uchib kelishadi. Kechki payt shaharga yana ko'pgina zag'chalar va ko'kqarg'alar uchib kelishadi. Tunash uchun baland daraxtlaming shoxlanga qo'nayotganlarida ularning shovqinlari va qichqiriqlari eshitiladi. Biroq ular asta-sekin sovuq o'lkalarga uchib keta boshlaydilar.

Bulutli kunlarda qorong‘i tusha boshlashi bilan mayda ko‘rshapalaklarni ko‘rish mumkin. Bular barcha ko‘rshapalaklar ichida eng kichigi hisoblanadi. Ularning qish faslida g‘orlarda qishlovchi ko‘pgina boshqa ko‘rshapalaklardan farqi shundaki, ular yil bo‘yi binolarning yoriqlarida yashaydi va haroratning ko‘tarilishi bilan birinchi bo‘lib uyg‘onadi. Qorong‘i tushishi bilanoq ovoz chiqarmasdan ucha boshlaydi hamda chivin, pashsha va boshqa jonivorlarni tutib yeysi. Yerda qishlagan tut kapalaklari fevral oyida kapalak qurtlari chiqaradi.

**Hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar.** Dekabr oyida ko‘pgina yovvoyi hayvonlar qishlash uchun o‘z uyalariga kirib oladilar. Dekabr oyida oziq-ovqat topish maqsadida tog‘lardan sahro bo‘rilari tushib keladilar va ko‘pgina mollarga hujum qiladilar, itlarni g‘ajib, ba’zi vaqtarda qishloq chetidagi poliz, hovlilarga kirishga urinadilar. Sahro bo‘rilari unchalik katta bo‘lmay, juni kalta, dag‘al tusda bo‘ladi. Uning rangi atrof muhitga qarab o‘zgarib turishi mumkin.

Yanvar, fevral oylarida tabiat burchagi sharoitida ba’zan toshbaqalar uyg‘ona boshlaydilar. Shu vaqt ularga ovqat berish zarur. Bolalar esa toshbaqalarni zo‘r qiziqish bilan boqadilar. Toshbaqa karam barglarini, qirilgan sabzi, ko‘k suli, sutda ivitilgan non, grechika va suli bo‘tqalarini zo‘r ishtaha bilan yeysi.

Fevral oyida yovvoyi hayvonlar hamda uy hayvonlarida bahorgi tullah boshlanadi. Tulkilar, qo‘shtoyoqlar, bo‘rilar, quyonlar, qumsichqonlar va boshqa hayvonlar po‘st tashlaydilar. Ularning yungi tushib, terilari ko‘rimsiz bo‘lib qoladi. Uy parrandalari, ayniqsa tovuqlarda katta jonlanish boshlanib, ular tuxum qilishga kirishadilar.

### **3.Bahor fasliga tavsifnomá**

Bahor mavsumi kalendar hisobi bo‘yicha birinchi martdan boshlanadi. Lekin bahorning kelishi har yilda turlicha bo‘ladi.

Yurtimizda bahor erta, odatda fevral oyidayoq boshlanadi. Biroq mart oyining oxirgi o‘n kunligida ko‘pincha qor yog‘ib, ertasigayoq erib ketadi.

Bahor kunlarining boshlanishi bilan daraxt kurtaklari bo‘rtadi, mevali daraxtlar gullay boshlaydi. Shundan keyin bo‘lgan qattiq sovuqlar esa kurtak va gullarni urib ketadi. Natijada o‘rik, shaftoli va boshqa mevali daraxtlar hosil bermaydi.

**Ob-havodagi o‘zgarishlar.** Mart oyida qattiq yog‘ingarchilik bo‘ladi. Martning oxirlarida ba’zan momaqaldiroq bo‘ladi.

Aprel oyida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi. Ba’zi yillarda sovuq tushib qolishi hollari ham bo‘ladi, ayrim hollarda qor ham yog‘adi. Bahorda

yoqqan katta-katta qorni xalqimiz «laylak qor» deydi, chunki shu qor bilan laylak ham keladi.

May oyida esa issiq kunlar boshlanadi, kunlik o‘rtacha harorat + 10+25 daraja atrofida bo‘ladi.

Biroq, oyning boshlarida ob-havo beqaror bo‘lib, tez-tez o‘zgarib turadi. Ba’zan g‘o‘za va boshqa o‘simliklarga zarar keltiruvchi do‘l yog‘adi, momaqaldiroq bo‘lib turadi.

**O‘simliklar hayotidagi o‘zgarishlar.** Mart oyida dalalar «ko‘klam libosini kiyadi». Boychechak, chuchmoma, sovrinjon, gunafshalar ochila boshlaydi. Yovvoyi ildizli o‘simliklar, lolalarning ko‘pgina turlari, giatsintlar, har turli narsislar barg chiqara boshlaydi.

Daraxtlar shira chiqara boshlaydi. Qor erishi bilan daraxt ildizlari yerdagi namlikni o‘ziga tortadi. O‘simlik to‘qimalari suvga to‘ladi, suv olish bilan birga ozuqa moddasi bo‘lgan uglevodni ham oladi. Uglevod barg to‘qimalari orqali ildizga borib, kunlar isiy boshlashi bilan ildizdan kurtakka qarab yo‘naladi. Kurtak bo‘rtadi va ochiladi. Ozuqaning shunday harakati orqali o‘simlik «uyg‘onadi». Suvning ildizdan daraxtga ta’siri shoxshabba orqali bo‘ladi, yozda suv shoxlar orqali ildizga boradi va parlanadi.

Mart oyida qo‘ziqorinlar paydo bo‘ladi. Ular O‘zbekiston sharoitida uch haftagina o‘sadilar, biroq seryomg‘ir bahorda qo‘ziqorinlar aprel-may oylarida ham o‘sishni davom ettiradi.

Mart oyida ko‘lmak suvlarda lempa, elodeya, qo‘ytikan, perolistnik va boshqa suv o‘simliklari o‘sadi.

Aprel oyida deyarli barcha daraxtlar barg chiqaradi. Eman va shumtol singari daraxtlar hamma daraxtlardan keyin ko‘karadi.

Yog‘ochli daraxtlar gullay boshlaydi, yong‘oq, eman, tol singari daraxtlar gulto‘da chiqara boshlaydilar, zarang daraxtining gullari kulrang va ko‘ksariq tusda bo‘ladi, shumtol daraxtida esa mayda gulkosalari ichida o‘tiradi, akatsiyada — cho‘p shaklidagi oq, xushbo‘y gullar ochiladi.

Aprel oyida daraxtlarning uyg‘onishi ob-havoning isishiga bog‘liq bo‘ladi. Martning oxiri va aprel oyining birinchi yarmida danakli o‘simliklardan birinchi bo‘lib: shaftoli, olcha, tog‘olcha, olxo‘ri gullaydi. Keyinchalik aprel oyining yarmida mevasining ichida urug‘i bo‘lgan daraxtlardan: olma, nok, behi gullaydi.

Bahorda harorat bir me'yorda ko‘tarilganda danakli daraxtlar bilan urug‘ daraxtlarning gullashi deyarli oldinma-ketin, ayrim hollarda esa, bir vaqtning o‘zida gullaydi.

O'rik, shaftoli singari daraxtlar avval gullab, keyin barg chiqaradi. Olcha, tog'olcha, olma, nok, olxo'ri, behi singari daraxtlar esa avval barg chiqarib, keyin gullaydi. Ob-havo sharoitining qulay kelishi daraxtlarning ko'plab gullahiga imkon beradi va hosildorlikni oshiradi.

Bolalar bilan gullarning har turli rangi va tuzilishi bilan tanishtirish maqsadida mevali boqqa ekskursiyalar o'tkaziladi. Bolalar o'rik, shaftoli, olcha daraxtlarining gullarini hajmiga, barglarining rangiga qarab tezda ajrata olib, eslarida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ana shu vaqtida sahrolarda lolaqizg'aldoq va lolalar chamandek ochiladi. Aprel oyining oxirida va ko'pincha may oyining boshlarida jiyda daraxti kumushsimon barglar bilan qoplanadi. U kuchli xushbo'y hid taratuvchi sariq gullar chiqaradi.

May oyida buldonej, uzum, jiyda gullaydi, olcha, gilos, qulupnay pishadi. Suv havzalarida mayda suv o'simliklarining ko'payishi davom etadi va suv yashil yoki sariq tusga kiradi.

**Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar.** Mart oyida qushlar uchib kela boshlaydi. Qushlarda ko'payish davri boshlanishi sababli ularda uyalariga qaytib kelish zarurati tug'iladi. Agar qushlarda ko'payish ikkinchi yilda bo'lmay, uchinchi yilda sodir bo'lsa (masalan: kakkuga o'xshash) u vaqtida ular ikkinchi yili ham o'sha yerda qishlab qoladilar.

Qushlar, odatda oziq-ovqat paydo bo'lishi bilan, hasharotxo'r qushlar esa keyinroq uchib keladilar. Ularning uchib kelishi hasharotlarning ko'payishi davriga to'g'ri keladi. Suvda suzuvchi qushlar suv havzalarida hayot qaynaganda uchib keladilar. Mart oyida biz bolalar bilan birgalikda turnalar, g'ozlar va o'rdaklarning to'da-to'da bo'lib uchib kelayotganligini kuzatamiz.

Fevralning oxiri, martning boshlarida jiblajibonlar uchib keladilar. Ular bahorning darakchilaridan hisoblanadilar.

Qaldirg'ochlar, jarqaldirg'ochlar, popishak, chug'urchuqlar uchib kelib, bo'g'otlarga, daraxt kavaklariga uya quradilar.

Chug'urchuqlar qurilgan tayyor uyalarga zo'r ishtiyoq bilan joylashadilar. Shuning uchun bog'cha hovlisida bolalar bilan birgalikda erta bahorda daraxtlarga donxo'rak va inlar osib qo'yish kerak.

Qushlar qo'shaqo'sha bo'lib urchiy boshlaydilar. Ba'zi bir qushlar butun bir umrga juftlashadilar. Agar ular qishda ba'zan ajralishsa, bahorda yana o'sha eski inlarida uchrashadilar. Qarg'alar esa o'z juftlaridan hatto qish faslida ham ajralmaydilar. Zag'chalar o'z juftlari bilan har yili o'zlarining eski inlariga joylashadilar.

Qushlar eski inlariga qaytib kelganlaridan keyin, uni «tuzatadilar». Ular tumshuqlarida pat va xashaklarni tishlab inlariga olib keladilar. Ba'zan ular daraxt shoxlarida shovqin suron qilib shox talashadilar. Bu vaqtida qushlarning sayrashlari, hushtaklari va qiyqirishlari, ajoyib parvozlari kishini o'ziga jalg qiladi.

In qurish vaqtida ota qushlar patlarining to'kilishi juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ona qushlarniki u qadar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Bolalar bilan ekskursiyaga chiqqanda ularning e'tiborini bu narsaga qaratish zarur.

Mart oyida ko'pgina hasharotlar (yaltiroq qurt qarsildoq qo'ng'iz va boshqalar) paydo bo'ladi. Ular o'simliklarning asosiy ildizlarini kemirib, ularga katta zarar yetkazadilar. Buning natijasida ko'pgina o'simliklar nobud bo'ladi. Ayniqsa bu kabi hasharotlar tut daraxtlarining ildizlariga zarar yetkazadilar.

Mart oyining boshlarida, ba'zan esa fevral oyining oxirlarida iliq kunlar boshlanishi bilanoq arilar o'z uyalaridan uchib chiqadilar.

Asalarilar katta-katta oila bo'lib yashaydilar. Har bir oilada bitta ona urug'i bo'lib, u besh yilgacha yashaydi. Bahorgi iliq kunlarning boshlanishi va gullarning ochila boshlashi bilan ona ari tuxum qo'ya boshlaydi. Bundan avvalo lichinkalar, keyinchalik esa qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi va nihoyat katta asalarilar yetishadi.

Bolalar bilan mevali bog'larga ekskursiyaga chiqilganda asalarilarning o'rik, shaftoli va boshqa o'simlik gullarining biridan ikkinchisiga qo'nib yurganligini kuzatish mumkin. Bolalar asalarilarning g'uvillashini eshitadilar. Bolalar bog'chasi gulzorlarida ham asalarilarni kuzatish mumkin.

Aprel oyida uya quruvchi qushlarning uchib kelishi ancha kamayadi. Zarg'aldoq, bulbul, moyqut, ko'rshapalak, laylak, ko'k qarg'a, chivinxo'r, shuningdek, o'zining kelganligidan xabar beruvchi kakkular ham uchib keladilar.

Aprel oyida turg'un qushlarda ham katta jonlanish boshlanadi. Ularning xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Jumladan, chumchuqlar uchishdan to'xtaydilar. Ular juftjuft bo'lib, ota chumchuq yangi chiqqan patiarini yozib ona chumchuq oldida sakrab yuradi. Chumchuqlar uylarning bo'g'otlarida, shuningdek, katta qushlar tashlab ketgan bo'sh joylarga uya soladilar.

Aprel oyida ko'kqarg'a, go'ngqarg'a, sa'valarning uchib ketishi tugaydi. Shaharda endi so'fito'rg'aylarni uchratib bo'lmaydi.

Uy parrandalari: tovuqlar, o'rdaklar, g'ozlar tuxum bosadilar. Bu tuxumlardan quyuq patli, ko'zları mo'ltirab turgan, chopishga va ovqat cho'qishga qobiliyatli bo'lgan qush bolalari — jo'jalar chiqadilar.

Aprel oyida turli qo'ng'izlar: tillaqo'ng'iz (ko'k rangli qo'ng'izcha), tutxo'r qo'ng'iz (havo rang va yonlarida sarg'ish dog'lari bo'lgan kichkina qo'ng'izcha), meva qo'ng'iz (yashil belgili, qanot ostlarida uchta oltinsimon chuqurchasi bo'lgan qo'ng'iz)lar paydo bo'ladi.

May oyida qizil zag'chalar uchib kela boshlaydi. Kakkularning sayrashlari eshitiladi, qizilishton, laylak, popushak, ko'kqarg'a, qaldirg'ochlar tuxum qo'ya boshlaydilar. Kakku o'z uyasiga tuxum qo'y may, balki boshqa qushlarning uyasiga (uning tuxumlari 20 tagacha bo'ladi) qo'yadi. Kakku uyaga tuxum qo'yanida uya egasining bitta tuxumini olib tashlab, o'zining tuxumini qo'yadi. Shunday qilib, uyadagi tuxumlarning soni o'zgarmay qolaveradi. Shu bilan kakkuning nasllar haqidagi g'amxo'rliги tamom bo'ladi.

May oyining o'rtalarida qushchalarning tuxumdan chiqishi boshlanadi. Yosh chumchuqlar, zag'chalarning bolalari chiyillaydilar, jarqaldirg'ochlar ovoz chiqarib uchib yuradilar. Bolalar ularning ovoziga quloq soladilar va qushchalarni ko'rsatishni iltimos qiladilar.

May oyida har xil rangdagi kapalaklar: limon o'simligi kapalagi, qichitqi o't kapalaklari va boshqalar paydo bo'ladi. Ekin maydonlarida sassiq qo'ng'iz (katta hajmdagi qo'ng'iz), go'rkov qo'ng'iz, xonqizi paydo bo'ladi.

**Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar.** Mart oyida qurbaqalar, cho'l baqalari va quruqlikda yashovchi hayvonlar o'z «konsertlarini» boshlaydilar. Qurbaqalar suv havzalari va anhorlarda, ariq va hovuzlarning bo'ylarida, cho'l baqalari esa devorlarning kavaklarida, ariqlardagi ko'priklar ostida, bog'larda, ekinzorlarda va dalalarda yashaydilar.

Qurbaqa singari cho'l baqasining ham terisi tarang bo'lib, dumi, bo'yni bo'lmaydi. Tanasi kallasidan keskin ajralmagan, ko'zları katta va serharakat, go'yo shishgandek bo'ladi. Bunday xususiyat tungi hayvonlar uchun xarakterlidir. Ko'zining bunday joylashishi kallasini ortiqcha harakatlantirmay yon atroflarini bemalol ko'rishiga imkoniyat beradi.

Qurbaqa suzgan vaqtida ko'zini zararlantimaslik uchun ko'z qorachig'ini ko'z kosasi ichiga tortib oladi. Qurbaqada og'iz kengligi juda katta. Tili ikkilangan, old uch tomoni yopishgan bo'lib, hasharotlarni ovlash uchun xizmat qiladi. Qurbaqa tilini chiqarib qanotli hasharotlarni ham urib tushiradi, ushlangan hasharot tilning yopishqoq qismiga uzatiladi, og'ziga tortiladi va butunicha yutiladi.

Mart oyida baliqlar ikra yig‘ishga va urchishga kirishadilar. Toshbaqalar, kaltakesaklar, ilonlar singari sudralib yuruvchilar ham uyg‘onadilar. Toshbaqaning rangi kosasining rangi bilan bir xilda: sarg‘ish yoxud qo‘ng‘ir tusda bo‘ladi, barmoqlari orasida parda bor. Dumi qisqagina bo‘lib, uchi o‘tkir, ota toshbaqa ona toshbaqaga nisbatan kichikroq bo‘lib, dumi uzunroq bo‘ladi.

Toshbaqalar mavsum davomida ikki uch marta tuxum qo‘yadilar. Tuxum qo‘yish iyun oyidagina tugaydi. Yosh toshbaqalar tuxumdan yuz kunda ochib chiqadilar.

Bu paytlarda ilonga o‘xshagan, oyoqsiz sariq qorinli kaltakesaklar ham uyg‘onadilar. Bu kaltakesak ko‘zini yumishi mumkin, ilonning ko‘zi esa, doimo ochiq turadi. Sariq qorinli kaltakesak qo‘ng‘ir yoki qizg‘ish tusda bo‘ladi. Yosh kaltakesaklar esa och kulrang bo‘ladilar. Kaltakesaklar ko‘pincha daryo vodiylarida, qirlarda, qalin o‘tlar o‘sadigan joylarda, shuningdek, bog‘larda, sug‘oriladigan joylarda ham uchraydi. U suvga ishtiyoq bilan borib, u yerda uzoq vaqt qolishi ham mumkin. Sariq qorinli kaltakesak kemiruvchilarning uyasida, shuningdek, toshlar tagida va butazorlar orasida yashirinadilar.

Tipratikanlar berilgan narsalarni tanlamay yeyaveradilar. Bolalar ba’zan o‘zlaridan qolgan ovqatlarni ham berishlari mumkin.

Tipratikanlar sichqonlarni, suvaraklarni qirib tashlaydilar. Shuning uchun ham ko‘pincha odamlar mushuk o‘rniga tipratikan saqlaydilar.

Aprel oyida ko‘pgina yovvoyi hayvonlar, jumladan, aprelning o‘rtalarida cho‘l bo‘risi bolalaydi, uning bolalari ko‘r holda tug‘ilib, oradan 12—13 kun o‘tgach, ko‘zları ochiladi. Bo‘ri bolalari 5—6 hafta onasining sutini emadi.

Bo‘rilar urchish davrida ko‘proq o‘z uyalaridan boshqa joylarga ketmaydilar.

Tuya cho‘l va sahroda yashaydigan ajoyib hayvonlardan biridir. Sahrodagi tuya shimolda yashaydigan bug‘u singari mehnat qiluvchi hayvonlardan hisoblanadi. Bizda tuya uy hayvonlaridek bo‘lib, kishilarga ko‘chib yurishda, og‘ir yuklarni tashishda va xo‘jalikda ham katta foyda keltiradi. Ona tuya oqsil moddalarga boy bo‘lgan va moyli quyuq sut beradi.

Tuyadan jun va par olinadi. Jundan dag‘al kiyimlar, ko‘rpalar, qop va arqonlar tayyorланади. Pardan bosh kiyimlar, shuningdek, qimmatbaho movutlar ishlab chiqariladi. Tuyaning go‘shti ovqatga ham ishlatiladi.

#### **4.Yoz fasliga tavsifnoma**

**Ob-havodagi o‘zgarishlar.** Iyun oyida ob-havo yaxshi bo‘ladi. Kunlik o‘rtacha harorat +20+30 daraja atrofida bo‘ladi. Ko‘pincha yoz oylarida havo ochiq bo‘lib turadi<sup>1</sup>.

Iyun oyida kamdan-kam yomg‘ir yog‘adi. Shunda ham oyning birinchi o‘n kunligida, ko‘pincha momaqaldiroq aralash yomg‘ir yog‘adi. Ba’zan esa hatto do‘l yog‘adi.

Iyul oyida harorat ko‘tarilib, +30°+40° o‘rtasida bo‘ladi. Ahyon-ahyon yomg‘ir yog‘adi.

Yaxshi ob-havo sharoiti bo‘lganini ko‘rsatuvchi ko‘pgina belgilar bor. Jumladan, ertalabki tongning zarrin nurlari quyoshning bulutlar orasidan chiqmasligi. Tuman tushadi va tezda tarqaladi, pashshalar barvaqt uyg‘onishadi, tong endi yorishishi bilanoq asalarilar, qaldirg‘ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda baland parvoz qiladilar, chivinlar qo‘ng‘izlar g‘o‘ng‘illab uchib yuradilar. Quyosh bulutlar orasiga yashirinmaydi, balki, botish oldidan to‘q qizil yoki oltin rangga kiradi, charaqlab oy chiqadi, yulduzlar moviy rangda charaqlaydilar. Ayniqsa, oyning ikkinchi yarmida o‘rtacha harorat pasayadi va +20°+25° darajaga tushadi. Havoda bulut bo‘lmaydi. Ba’zan avgust oxirlarida ozgina yomg‘ir yog‘adi.

**O‘simliklar hayotidagi o‘zgarishlar.** Bog‘larda o‘rik, olcha, erta pishar olma va noklar pishib yetiladi. 3—4 yil ilgari o‘tqazilgan mevali daraxtlar: shaftoli, olcha hosil bera boshlaydi, olma daraxti esa 4—7 yildan keyin hosil bera boshlaydi.

Ko‘pgina mevali daraxtlar yil sayin emas, balki yil ora hosil beradi. Bu hosil berishning davriyligi deb ataladi.

Iyunning uchinchi o‘n kunligida g‘o‘za gullay boshlaydi.

Iyul oyida, bog‘larda olma, shaftoli, olcha, nok pishib yetiladi. Polizlarda pomidor, baqlajon, bulg‘or qalampiri singari sabzavotlar pishadi.

Qovun, tarvuz kabi poliz ekinlari ham yetiladi. Gulzorlarda qo‘qongul, tizimgul, nastursiya, zafargul, kartoshkagul va boshqa gullar ochiladi.

G‘o‘zalar yoppasiga gullaydi va ko‘sak tuga boshlaydi. Makkajo‘xorilar dumbul bo‘ladi.

**Qushlar va hasharotlar hayotidagi o‘zgarishlar.** Qushlarning ovozi jaranglaydi. Ayniqsa, bulbul ko‘p sayraydi.

Sayroqi qushlarning tuxumlaridan madorsiz jish bolalar — qushchalar chiqadilar. Ularni onalari boqadilar. Bu paytda uyasidan tushib ketgan qaldirg‘och va chumchuq bolalarini tez-tez ko‘rish mumkin. Ularni

uyalariga solib qo‘yish kerak. Qush bolalarini tabiat burchaklariga olib kelib bo‘lmaydi. Ular juda serovqat bo‘ladilar.

Qo‘ng‘izlar, pashshalar, asalarilar tez-tez guldan-gulga qo‘nib turadilar. Ular gullardan nektar va chang yig‘adilar.

Kapalaklar ham gullarga qo‘nadilar. Barglarning quyi qismlarida hasharotlarning ignalari izini ko‘rish mumkin, ular barglarning sharbatidan so‘rib oladilar.

Salqin tunlarda gullarda mayda hasharotlarni uchratish mumkin. Ular tunda gullar ichida isinadilar. Ba’zi vaqtida esa, gullar ichiga tuxum qo‘yadilar. Jumladan, chinnigullarning gulkosalarida tungi kapalaklarning tuxumlari topilgan.

Suzg‘ich ona qo‘ng‘iz ham o‘simliklarga tuxum qo‘yadi. U ikki oy mobaynida mingtacha tuxum qo‘yadi. Keyinchalik tuxumdan lichinkalar chiqadi. Suzg‘ich qo‘ng‘izning lichinkalari ikki-uch oy yashaydi, ana shu davr mobaynida ikki marta tullaydi. Yozning o‘rtalarida lichinkalar qo‘g‘irchoqlarga aylanadi. Suzuvchi qo‘ng‘izlarning barcha qo‘ng‘izlardagi singari qo‘g‘irchog‘i bo‘ladi. Lekin qo‘ng‘iz lichinkasi suvdan chiqib, quruqlikda qo‘g‘irchoqqa aylanadi.

Avgust oyida hali kapalak, ninachi va qo‘ng‘izlar bo‘ladi.

**Hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar.** Iyun oyida suv havzalaridagi itbaliqlar yosh qurbaqacha va cho‘l baqalariga aylanadilar. Qurbaqalar suv havzalarining o‘zida yashayveradilar, cho‘l baqalari esa qirg‘oqqa chiqadilar, ekin maydonlari va bog‘larga joylashadilar.

May — iyun oylarining oxirlarida sahro kaltakesaklari (3—6 tadan) tuxum qo‘ya boshlaydilar. Iyun oyining oxirida sariq kaltakesak 8—10 tagacha tuxum qo‘yadi.

Yovvoyi hayvonlarning ham bolalari, jumladan, bo‘ri bolalari ulg‘aya boshlaydi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, bo‘ri bolalari 5—6 hafta ona suti bilan ovqatlanadi. Oltinchi haftadan boshlab astasekin go‘sht yeishga o‘rganadi. Bo‘ri bolalari katta hayvonlar singari ko‘p suv ichadigan bo‘ladilar. Shunday voqealar ham uchraganki, buloq suvining qurib qolishi natijasida ko‘pgina bo‘ri bolalari nobud bo‘lgan. Yozning ikkinchi yarmida bo‘rilar mol va yovvoyi tuyoqlilar: jayronlar, arxar (yovvoyi qo‘y)larga teztez hujum qilib turadilar.

Iyun oyida tuyalar ham tug‘adi. Yosh bo‘taloq odatda nimjon bo‘ladi. Mahalliy aholi uni o‘z o‘tovlarida saqlaydi, kigizlarga o‘rab, quyoshdan panalaydi. Bo‘taloq bir oz o‘sgandan keyin, uni soyasalqin yerga bogiab juda ehtiyyot qilib boqadilar. Faqat tunlari uni bo‘shatib, onasining yonida qoldiradilar. Ona tuyalar o‘z bolalariga juda g‘amxo‘r va mehribon

bo‘ladilar, hatto bolalarini emizish uchun ataylab yaylovlardan kelib turadilar.

Iyun — iyul oylarida ona echkemar qoyalarning yoriqlariga 1 — 2 tadan bir necha marta tuxum qo‘yadi. Iyul oyining oxirida yosh kaltakesaklar tuxumdan chiqadilar, shuningdek, sahro yosh ilonquyruqlari ham paydo bo‘ladi. Yaylovarda dumbali va qorako‘l qo‘ylarni boqish davom etadi. Dumbali qo‘ylarda moy to‘planadi.

Avgust oyida tipratikanlar 5—7 tadan bola tug‘adilar. Ular tug‘ilganda ko‘zлari ko‘r, tanasi maydachuyda qisqa ninachalar bilan qoplangan bo‘ladi. Tipratikanchalar ulg‘ayishi bilan ularning ninachalari o‘sа boradi, qattiqlashadi va to‘q qo‘ng‘ir tus oladi. Tipratikanlar ko‘pgina yovvoyi qushlar va hayvonlar (ukkilar, tulkilar) uchun yemish bo‘ladilar.

Avgust oyining oxirida bo‘ri bolalari o‘sib yetiladi. Ular ko‘pincha qorong‘i tushgach va tun paytlarida uy hayvonlarini ovlaydilar. Ba’zi hollarda uy hayvonlariga kunduz kunlari ham hujum qiladilar, lekin aholi yashaydigan punktlardan olisda boigan joylardagina shunday qilishlari mumkin. Chol bo‘risi chorvachilikka zarar keltiradi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Kuz faslida ob-havo o‘zgarishini aytib bering.
2. Qish faslida o‘simliklar hayotidagi o‘zgarishlarni aytib bering.
3. Bahor faslining qaysi oyida qo‘ziqorinlar chiqsa boshlaydi?
4. Yaltiroq qurt va qarsildoq qo‘ng‘iz qaysi oyda chiqsa boshlashadi?
5. Kakku tuxumlarini qayerga qo‘yadi?
6. Iyul oyidagi havo haroratini ayting.
7. Tuyalar qaysi oyda tug‘adi?
8. Qaysi hayvon chorvachilikka zarar keltiradi?



### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Kuz faslida kunduz kunlari havo harorati necha gradus bo‘ladi?  
**a) +20+25**  
b) +30+35  
d) +15+25
2. Birinchi to‘kiladigan daraxtning nomi?

a)chinor

b)oqterak

**d)zarang**

3. Qaysi hayvonlar qish faslida po'st tashlaydilar?

**a) tulkilar, qo'shoyoqlar, bo'rilar, quyonlar, qumsichqonlar**

b)ayiqlar, qo'shoyoqlar, bo'rilar, quyonlar, qumsichqonlar

d)echkilar, qo'shoyoqlar, bo'rilar, quyonlar, qumsichqonlar

4. .... katta katta oila bo'lib yashaydilar.

a)kakkular

b)kapalaklar

**d)asalarilar**

5. Iyunning nechanchi o'n kunligida g'o'za gullay boshlaydi?

a)ikkinchi

**b)uchinchি**

d)birinchi

### Mavuni mustahkamlash uchun interfaol metod: “Idrok xaritasi”



“Idrok xaritasi” (Konseptual xarita) metodi – fikrlarni taqdim qilish va bog'lash usuli bo'lib, u o'quvchilarda tassavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o'rganilayotgan mavzudagi bosh g'oyalar yoki asosiy tushunchalarni, birlamchi tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi va uchlamchi g'oyalar yoki tushunchalarni ajratish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Taklif etilayotgan usul yangi bilim va axborotlarni konspektlashtirishning standart chizmasini ishslashga xizmat qiladi va darsning uzundan uzoq konspektini yozish yukidan xalos etadi.

Xaritani tuzish o'quvchiga:

➤ asosiy, ikkilamchi, uchlamchi (va h.k.) shoxchalar (chiziqlar)larni ishlatish hisobidan iyerarxik tartibda mavzuning asosiy g'oyalarni strukturalashga;

➤ ravshan va rangli obrazlar orqali g'oyani kuchaytirishga;

➤ ular orasidagi bog'liqlikni namoyish etishga;

- rang, shrift razmeri, bo‘rttirish va h.k.lar bilan konsepsiyalarni ajratishga;
- maxsus belgilar yordamida g‘oyalarni baholash va izohlashga imkon beradi.

### **Bola rivojlanishida fasillratni ta’sirini “Idrok xarita” metodi yordamida tahlil qiling**



## GLOSSARY

**Tabiat** – keng ma'noda butun borliq olam va uning xilma – xil shakllari; tor ma'noda kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof tabiiy muhit.

**Jamiyat** – keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari majmui yoki tor ma'noda ijtimoiy munosabatlarning konkret tipidir.

**Inson** – tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurg'izuvchi individ. Inson tarixiy jamaa jarayoni subyekti bo'lib, u yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy madaniy rivojlanishning asoschisidir.

**Ibtidoiy jamaa davri** - jamiyatning geotizimlar tabiiy holatini buzmaydigan hayot tarzi. Odam paydo bo'lgandan boshlangan

**Qishloq xo'jaligi inqilobi davri** – jamiyatning geotizimlarni kichik hududlarda, kam buzilishiga sababchi bo'ladigan hayot tarzi.

**Sanoat inqilobi davri** – jamiyatning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanadigan hayot tarsi

**Fan-texnika inqilobi davri** – jamiyatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mavjud tabiiy muhitni saqlab qolish darajasidagi hayot tarzi.

**Ekologik munosabatlar davri** – jamiyatning sog'lom va ekologik toza atrof-muhitni iqtisodiy o'sish bilan teng darajada qadrlanishga asoslangan hayot tarzi.

**Aqliy tarbiya** – shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.

**Axloq** – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

**Estetik tarbiya** - jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

**Jismoniy tarbiya**- badan tarbiya — sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi.

**Ekologik tarbiya** – shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishga qaratilgan pedagogik faoliyat va jarayon.

**Ekologik ta’lim** ekologik ma’rifatning asosiy jihatni bo‘lib, o‘qitish va o‘qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o‘tkazilishidir. Ekologik ta’lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi.

**Ekologik ong** – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va xatti-harakatini tartibga solib turadigan ruhiyatning oliy shakli.

**Ekologik faoliyat** – esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

**Ekologik madaniyat** – shaxs yoki jamiyatning mavjud tabiatning tabiiy, atrof-muhitning esa sanitariya holatini muhofaza qilish yo‘lida mavjud axloqiy-ekologik me’yor, talablarga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi.

**Ekologiya-** (grekcha “oikos” - yashash, uy, makon, “logos” - ta’limot) -umumiylar tarzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma’noni anglatadi.

**Vizual texnologiya** – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.

“**Vizuallik**” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “visualis”, ya’ni ko‘rildigani, tasviriy degan ma’noni bildiradi.

**Vizuallik** - raqamli ma’lumot yoki fizik hodisani ko‘rish, kuzatish hamda tahlil qilish usullarining umumiylar nomi

**Terrarium** - Toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarga mo‘ljallangan uy

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti” 802-sonli Qarori
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (MTV ) hamda Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2019 yil 6 avgustda «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlari» bo‘yicha 7/1 va 6-sonli qo‘shma qarori.
10. Sobirov O‘. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekoliya xabarnomasi. – T.: № 3. 2005. - 17-19 b
11. Aluddin Mansur. Qur’oni Karim. – T.: Cho‘pon, 1992. – 544 b.
12. Hasanboyeva O. Jabborova H. Nodirova Z. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: 2013,
13. Maxmudov T. Avesto haqida. – T.: Sharq, 2002. – 63 b
14. Sobirov O‘. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekoliya xabarnomasi. – T.: № 3. 2005. - 17-19 b.
15. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xosligi. T.: O‘qituvchi, 2000.

16. Djanpeisova G.E., Rasulxujayeva M.A. Tabiat bilan tanishtirish. T.: Innovatsiya Ziyo, 2020 y
17. Nigmatov A. Maktabgacha ekologik ta'lim tarbiya. Darslik T.: "Navro'z" nashriyoti. 2020 y
18. Rasulxo'jayeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2020 y.
19. Sodiqova Sh.A., Rasulxo'jayeva M.A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Fan va texnologiya, 2013.
20. Yusupova P. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.: O'qituvchi. 1995

**Internet saytlari ro'yxati:**

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: <http://www.edu.uz>.
16. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
17. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
18. Ijtimoiy axborot ta'lim portal: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
19. Maktabgacha ta'lim vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz)
20. Respublika bolalar kutubxonasi: [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
21. <http://pedagog.uz> <http://nspi.uz>

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>1-modul: Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining nazariy asoslari va tabiat haqida tushuncha</b>	<b>5</b>
Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari	5
Tabiat, inson va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish zaruriyati.	13
Sharq va G‘arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o‘rnini haqidagi qarashlari	22
<b>2-modul: Tabiat bilan tanishtirishda tarbiya turlarining o‘rni</b>	<b>32</b>
Tabiat bilan tanishtirishda aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ekologik tarbiyaning ahamiyati.	32
<b>3-modul: Maktabgacha talim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiya</b>	<b>42</b>
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim berishda zamonaviy yondashuv. Bolalarga ekologik tarbiya berishda tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablar.	42
<b>4-modul: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalaridan foydalanish</b>	<b>65</b>
Tabiat bilan tanishtirishda ko‘rgazmali, og‘zaki, kuzatish, amaliy metodlar foydalanishning mohiyati.	65
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish turlari. Ekologik tarbiya berishda vizual-didaktik o‘yinlardan foydalanish.	73
<b>5-modul: Oddiy tajribalar, ularni o‘tkazish texnologiyalari</b>	<b>85</b>
Oddiy tajribalar va ularning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.	85
“Ilm-fan va tabiat” markazida oddiy tajribalar o‘tkazish texnologiyalari.	99
<b>6-modul: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil qilish</b>	<b>125</b>
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo‘yiladigan talablar.	125

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'simliklar, hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi.	137
<b>7-modul: Maktabgacha yoshdagi bolalarni yil fasllari bilan tanishtirish</b>	<b>148</b>
Yil fasllariga umumiy tavsifnoma.	148
<b>Glossariy</b>	<b>166</b>
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati</b>	<b>168</b>

**S.Y. ASHUROVA, M.B. KUBAYEVA**

# **TABIAT BILAN TANISHTIRISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYALARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnomalar raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.09.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog‘i 9,6. Shartli bosma taboq 10.

Adadi 100 nusxa. offset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.